


SHAHNOZA RAHMONOVA

**XX ASR IKKINCHI
YARMI O'ZBEK
SHE'RIYATIDA
ARUZ TIZIMI**

ISBN 978-9943-7558-2-6



9 789943 755826




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

SHAHNOZA RAHMONOVA

**XX ASR IKKINCHI YARMI O‘ZBEK
SHE‘RIYATIDA ARUZ TIZIMI**

MONOGRAFIYA



**«O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2021**

KBK: 83.3(50')

A 15

UO‘K: 821.512.133.09-1

ISBN 978-9943-7558-2-6

Rahmonova, Shahnoza.

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida aruz tizimi [Matn]: Monografiya / Sh. Rahmonova. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 188 b.

Monografiyada XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida aruz tizimining poetik shakl va mazmun takomilidagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot uchun shu davrda ijod qilgan shoirlar: Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she’riyati asos qilib olingan. Ushbu ijodkorlar devonlaridagi vaznlarning mazmun bilan munosabatini tadqiq qilish, baytli she’r shakllarining vazn xususiyatlari va mazmun uyg‘unligi, kichik lirik janrlarning vazn va o‘lchov darajalari, bandli she’rlarda janr imkoniyatlarining istifoda etilishi bilan bog‘liq masalalarni yoritish tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil qiladi. Monografiya mumtoz poetika, aruzshunoslik va XX asr davri adabiyoti bilan qiziquvchi olimlar, tadqiqotchilar va filolog mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Dilnavoz Yusupova – filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:

Nusratullo Jumaxo‘ja – filologiya fanlari doktori, professor.

Nurboy Jabborov – filologiya fanlari doktori, professor.

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-texnik Kengashining 2021-yil 24-oktyabridagi 8-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

© **Rahmonova Sh.**

© «**O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi**»
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.

KIRISH

Jahon she'rshunosligida badiiy asarlarning shakliy xususiyatlari, she'r qurilishi, kompozitsiyasi, misra, band, vazn, qofiya, badiiy tasvir vositalari bilan bog'liq she'riy unsurlar tadqiqi muhim yo'nalishni tashkil etadi. Aruz tizimida yaratilgan badiiy asarlarni tahlil qilish, ulardagi she'riy o'lchovlarni poetik shakllar va bahrlar kesimida o'rganish, jahon tajribalari asosida she'riy matnning boshqa shakliy unsurlar: qofiya, radif, tasviriy vositalar bilan munosabati, asar mazmuni bilan uyg'unligini tadqiq etish masalalari adabiyotshunoslikning rivojini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz poetika masalalari, xususan, aruz tizimi va uning evolyusion taraqqiyoti, Sharq mumtoz she'riyatida aruz tizimi, muayyan asarlardagi mazmun va ritm uyg'unligini tadqiq etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan va jiddiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, aruziy birliklar: *juzv, rukn, bahr, vazn, taqti', aruz doiralari, vazn ko'rsatkichlari* singari nazariy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi; badiiy asarlardagi qofiya tizimi, badiiy san'atlar, ularning she'r tarkibidagi o'rni, matn bilan munosabatiga doir masalalarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq XX asr o'zbek she'riyatida aruz tizimining poetik shakl takomilidagi o'rni, lirik janrlarning vazn xususiyatlari, ularning mumtoz an'analardan ta'sirlanish darajasi, vazn va mazmun munosabati bilan bog'liq masalalarni o'rganish bugungi aruzshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda mamlakat strategik rivojining bosh omillari belgilanar ekan, tarixiy, madaniy, adabiy va san'at asarlari, jumladan, she'riyat namunalarini o'rganish, tadqiq etish, ulardagi milliy va madaniy merosimizga oid g'oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish yosh avlod ma'naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yuz berayotgan har qanday islohot, avvalo, badiiy adabiyot va madaniyatda o'z ifodasini topadi, zero, "adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"dir¹. G'azal, mustazod, qasida, ruboiy, tuyuq, chiston, fardlar xalqimiz badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, aruz tizimida yaratilgan ushbu ijod namunalari adabiyotimiz mavzu ko'lami va badiiyatini tashkil etishda o'ziga xos taraqqiyot bosqichlariga ega. Bu o'rinda XX asr

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Т., 2017 йил 4 август.

ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida aruz tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan, aruz tizimining o'ziga xos xususiyatlari ritm va mazmun, vazn va qofiya, vazn va radif kabi unsurlar bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shu maqsadda ushbu tadqiqot XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotidagi manbalar (Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodi)ga tayanilgan holda ijodkorlar devonlaridagi aruz tizimiga xos jihatlarni o'rganish, ularni mumtoz aruz tizimi bilan qiyoslash, yetakchi vaznlarni aniqlash, aruzning badiiy asar mazmunini ochib berishdagi o'rnini tadqiq qilishga qaratilgani ham tadqiqotning dolzarb ilmiy muammo yechimiga bag'ishlanganini tasdiqlaydi.

Muayyan shoir ijodi yoki davr she'riyatining vazn xususiyatlarini tadqiq qilish o'rta asrlardayoq musulmon Sharqi poetikasida muhim masalalardan hisoblangan. Mumtoz poetika, xususan, aruz ilmiga doir risolalarda bahrlar va vaznlar tahlili bilan bog'liq o'rinlarda mumtoz aruzshunoslar tomonidan o'z salafлари yoki zamondoshlari she'rlarini misol qilib keltirish asnosida o'sha ijodkor she'rlarining vazn xususiyatlari muayyan tarzda o'rganilgan. Turkiy aruzshunoslikka doir manbalar: "Funun ul-balog'a", "Mezon ul-avzon", "Aruz risolasi"da ko'plab turkiy shoirlar bilan bir qatorda forsigo'y ijodkorlarning she'rlari ham vazn nuqtai nazaridan tahlil qilingan¹. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida yozilishicha, Husayn Boyqaro Amir Xusrav Dehlaviyning 18 ming baytdan iborat g'azaliyotini yig'dirib, bir to'plam holiga keltiradi va olimlarga ularning vaznlarini aniqlashni topshiradi. Xusrav Dehlaviy she'rlarining ko'pi murakkab bahr va vaznlarda bo'lib, ularni aniqlashda hatto ba'zi shoirlar ham ojizlik qilar edilar. Husayn Boyqaroning topshirig'i bilan aruzshunoslar Xusrav Dehlaviyning har bir she'ri ustiga shu she'rning vaznini yozib chiqadilar. Shundan so'ng devon tuzishda har bir she'rning vaznini qayd etib qo'yish odat tusiga kiradi².

Jahon adabiyotshunosligida D.Frolov, I.Stebleva, N.Chalisova, B.Sirus, R.Musulmonqulov, U.Toirov, S.Solihov, X.Kurbatov, X.Usmonov, M.Bakirov, A.Ja'far, Z.Axmetov, K.Risaliyev, A.Bekmuradov, Sh.Shomuhamedov, E.Talabov, M.Ziyovuddinova, G.To'ychiyeva, Z.Ishik (Zehra Işık) kabi olimlarning ilmiy

¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Тошкент: Хази́на, 1996; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971.

² Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 жилдлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 535.

izlanishlarida arab, fors-tojik, turkman, tatar, qirg‘iz, ozarbayjon aruziga doir nazariy qarashlar aks etgan bo‘lsa¹, A.Sa‘diy, A.Fitrat, I.Sulton, S.Mirzayev, U.To‘ychiyev, A.Rustamov, A.Hojiahmedov, S.Hasanov, H.Boltaboyev, A.A‘zamov, M.Olimov, N.Shodmonov, D.Yusupova, D.Zohidova, V.Qodirov, L.Sharipovanning tadqiqotlarida o‘zbek aruzining turli qirralari yoritib berilgan². Shuningdek, B.To‘xliyev,

¹ Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруда. – М.: Наука, 1991; Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и её трансформация в ранний классический период. – М.: Наука, 1976; Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993; Чалисова Н.Ю. Ватват и его трактат «Сады волшебства в тонкостях поэзии» / Ватват Р. Сады волшебства. – Москва: Наука, 1985; Сирус Б. Арузи тоҷики. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон. 1963; Мусульманкулов Р.М. Персидско-таджикская классическая поэтика (VII–XV вв.). – М.: Наука, 1989; Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арузи аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991; Тоиров У. Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии. Авт. дисс. доктора филол. наук. – Душанбе, 1997; Солихов С. Аруз ва омузиши он. – Душанбе, 2005; Курбатов Х.Р. Метрика «аруз» в татарском стихосложении // Советская тюркология. 1973. – № 6; Усманов Х.У. Тюркский стих в средние века. КГУ. – Казань: 1987; Бакиров М.Х. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. Автор. дисс. канд. филол. наук. – Казань, 1972; Джафар Акрем. Особенности азербайджанской поэтической метрики аруза. – Москва: Наука, 1960; Ахметов З.А. Казахское стихосложение. – Алма-Ата: Наука, 1964; Рысалиев К. Киргизское стихосложение. – Фрунзе: 1965; Шомухамедов Ш.М. Форс-тожик арузи. – Т.: ТошДУ, 1970; Талабов Э. Араб арузи. – Т.: ТошДУ, 1977; Талабов Э. Араб шеърятисида аруз тизими. Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Т., 2004; Зиявиддинова М. Поэтика в «Мафатих ул-улум» Абу Абдаллаха ал-Хорезми. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1990; Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг “Мафотиҳ ал-улум” асарида поэтика. – Т.: ТошДШИ, 2001; Тўйчиева Г. Форс арузи рисолалари. – Т., 2008; Zehra Işık. Özbek Şairi Mevlâna Habibiy’nin “Divan” Adli Eserinde Bulunan Gazeller Üzerine Tematik Bir Değerlendirme // Folklor Akademi Dergisi. 2019; Zehra Işık. Özbek Şairi Habibiy’nin Divan’ında Türkiye Türkçesi ile Ortaklaşan Ve Farklılaşan Bazı Sözcükler Üzerine // I. Uluslararası Türk dili ve edebiyatı öğrenci sempozyumu (OTUDES) bildiri kitabı. 1 cild. Dil ve folklore. Ordu. Aralık. 2017.

² Саъдий А. Амалӣ ва назарӣ адабиёт дарслари. – Т., 1925; Фитрат. Аруз ҳақида / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997; Султонов И. Навоийнинг “Мезон ул-авзон”и ва унинг критик тексти. Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 1947; Мирзаев С. Навоий арузи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1948; Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т.: Фан, 1981; Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985; Тўйчиев У. Система аруза в узбекской поэзии. Дис. ... докт. филол. наук. – Т., 1987; Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. –Т.: Фан, 1972. – Б. 56; Ҳоҷиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. – Т.: 1982; Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998; Ҳоҷиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006; Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи”. Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 1972; Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари. – Т.: Фан, 1981; Болтабоев Ҳ. “Рисолаи аруз” ва аруз ҳақида / Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2004; Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006; Аъзамов А. Аруз. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006; Олимов М. Рисолаи аруз. – Т.: Ёзувчи, 2002; Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 2008; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. TA’LIM-MEDIA. – Т.: 2019; Зоҳидова Д. Аруз сабоқлари. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016; Қодиров В. Ҳозирги замон ўзбек ғазаллари поэтикасининг айрим хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 1993; Қодиров В. Умумтаълим мактабларида ўзбек мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. (DSc) ...дисс. – Наманган, 2019; Шарипова Л. Асл рукнлар // Тил ва адабиёт таълими. 2013. – № 3; Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърятиси бадиий таракқиётида фольклор. Филол. фан. док. (DSc) дис. автореф. – Т., 2019.

N.Jumaxo‘ja, Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, U.Jo‘raqulov, I.Adizova, I.Yoqubov, O.Jo‘raboyevlarning mumtoz shoirlar va ularning an‘analarini davom ettirgan ijodkorlar asarlari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ham poetika bilan bog‘liq fikrlar keltirib o‘tilgan¹.

Rus va Yevropa adabiyotshunosligida she‘rshunoslik, xususan, she‘riy shakl, she‘riy nutq, ritm, vazn, qofiya bilan bog‘liq qator masalalar tarixiy poetika yo‘nalishida tadqiq etilgan².

Biroq aruz tizimini o‘rganish va aruzshunoslik ilmining tarixiy tadrijini belgilashda XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek aruzi haqidagi yaxlit ilmiy tahlil hanuz amalga oshirilgan emas. Aynan mana shu davr aruzshunoslik taraqqiyoti muammosi yaxlit holda fundamental o‘rganilmaganligi uning mustaqil ilmiy obyekt sifatida tadqiq qilinishini taqozo etadi.

¹ Тўхлиев Б. “Кутадғу билиг”нинг поэтикаси масалалари / Ўлмас обидалар. – Т.: Фан, 1989; Тухлиев Б. Вопросы поэтики «Кутадгу билиг» Юсуфа Хас Хаджиба. – Т., 2004; Жумахўжа Н. Навоий ғазалиёти талқинлари. – Т.: O‘zbekiston, 2018; Талқинларда шоирона шуур ва илмий тафаккур // Олтин битиклар. 2019. – № 2; Сирожиддинов Ш. Эркин Воҳидов ижодида ғазал / Эркин Воҳидов ижодини маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). – Т.: Навоий, 2017; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2005; Жабборов Н. Миллий руҳнинг бетакрор ифодаси / Эркин Воҳидов ижодини маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). – Т.: Навоий, 2017; Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Т.: TURON-IQBOL, 2017; Адизова И. Сўзимни ўқиб англағайсен ўзимни. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ; Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар такомил. – Т.: Muharrir, 2011; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. док. (DSc) дис. автореф. – Т.: 2018; Жўрабоев О. Аруз масаласи ва шеър матни / Матннинг матности сирлари. – Т.: TAMADDUN, 2017; Жўрабоев О. Мумтоз адабиётда муғаннийнома. – Т.: TAMADDUN, 2016.

² Шенгели Г. Техника стиха. – М.: Гослитиздат, 1960; Шервинский С. Ритм и смысл. – М.: Наука, 1961; Жирмунский В. Введение в метрику. Теория стиха. – Л.: Советский писатель, 1975; Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избр. труды. – М.: Наука, 1979; Веселовский А. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989.

I BOB. XX ASR IKKINCHI YARMI G‘AZALIYOTIDA VAZN VA MAZMUN UYG‘UNLIGI

1.1. Muttafiq ul-arkon bahrlari va mazmun munosabati

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyati o‘zining mazmun-mundariyasi, ifoda shakllari va badiiy-tasviriy vositalari bilan o‘zbek adabiyoti tarixida alohida bosqichni tashkil qiladi. Bu davrda she’riyatning asosiy diqqat-e’tibori hayot va kishilar tafakkuridagi o‘zgarishlarni butun bo‘y-basti bilan tasvirlashga qaratildi. Zero, “XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi”¹.

Bu davrda o‘zbek she’riyati poetik shakl va janr, til va uslub jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Barmoq vaznida bitilgan an‘anaviy she‘rlar bilan bir qatorda mumtoz adabiyotimizning asosiy she‘riy janrlari hisoblanmish g‘azal, ruboiy, tuyuq va muxammas kabi poetik shakllardan keng foydalanildi.

Ushbu davr she’riyatida Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Habibiy, Sobir Abdulla, Nabixo‘ja Nurillaxo‘ja o‘g‘li Chustiy, Asqarali Charxiy, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Matnazar Abdulhakim, Abdulla Oripov kabi shoirlar mahorat bilan qalam tebratdilar. Ularning ijodi mumtoz adabiyot an‘analarini zamonaviy adabiyot bilan birlashtiruvchi ko‘prik sifatida alohida ajralib turadi. Bu ijodkorlar she’riyatida barmoq vaznida yaratilgan she‘riy to‘plamlar bilan bir qatorda aruz tizimida bitilgan, mumtoz an‘analarimizga xos bo‘lgan devonlar ham tuzilganligini ko‘ramiz. Habibiyning “Mehnat qo‘shiqlari” (1949), “Ko‘ngil taronalari” (1957), “Zamon Farhodlari” (1959) kabi to‘plamlari zamonaviy she’riyatning tamoyillarini o‘zida aks ettirsa, “Gulzorim go‘zal” (1965), “Ko‘ngil taronalari”, “Tanlangan asarlar” (1967), “Navro‘zi olam” (1973), “Devon” (1971, 1975, 1980), “Umrin guli” (1980) kabi to‘plamlarida mumtoz adabiyotimiz an‘analari yorqin aks etadi.

Sobir Abdullaning “Erk ilhomlari” (1931), “Navbahor” (1931), “Ko‘klam na‘rasi”, “Zavq” (1932), “Gulshan” (1939), “So‘z va soz”

¹ Каримов Н. XX аср менинг тақдиримда // Jahon adabiyoti. – T., 2001. – № 1. – B. 24.

(1943), “Davr qo‘shiqlari” (1949), “Hayot gulshani” (1959), “Hayot qo‘shiqlari” (1962), “Devon” (1965), “Tanlangan asarlar” (1975–1976) kabi she‘riy kitoblarida ham ushbu o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi.

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she‘riyatida mumtoz adabiyotimiz an‘analarini davom ettirgan, bu davr adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan yana biri Chustiy bo‘lib, u yigirmaga yaqin she‘riy to‘plam nashr ettirgan: ular janr va uslub jihatidan boy va rang-barangdir. Uning “Qo‘zg‘ol” (1942), “Lolazor” (1945), “Hayot zavqi” (1951), “Gul mavsumi” (1969), “G‘azallar” (1978), “Yod eting kamtarin Chustiyni ham” (1984) kabi qator she‘riy majmualari qatorida mumtoz adabiyotimiz an‘analaridan oziqlangan “Hayotnoma” (1988), “Sadoqat gullari” (1992), “Ko‘ngil tilagi” (1994), “Muhabbatnoma” (2013) kabi devonlari kitobxonga Sharq axloqi falsafasini singdirishda muhim o‘rin tutadi.

Shoir Charxiy ham adabiyot ixlosmandlariga “Shirin va Achchiq” (1959), “She‘rlar” (1966), “Alixo‘ja va Xo‘jaali” (1970), “Devon” (1972), “Qiyolab o‘tdi” (2010) nomli kitoblarini taqdim etgan. “Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy singari mo‘tabar siymolardan keyin mumtoz g‘azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasidan birinchilardan bo‘lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi”¹. Shoirning “Yoshlik devoni” go‘yo “mudragan aruzni uyg‘otib yubordi”. Erkin Vohidov o‘z g‘azallari orqali o‘zbek aruzi imkoniyatlarini yanada kengaytirgan bo‘lsa, Abdulla Oripov she‘rdagi yashirin hikmatni o‘zbek g‘azalxonlari qalbiga joylay oldi. Shoirning “Tanlangan asarlar”idagi g‘azallari Sharq falsafasining nodir jihatlarini o‘zida jamlagani bilan betakrordir. Abdulla Oripov ta‘kidlaganidek, bu davr she‘riyatida aruz tizimidan foydalanish silliq kechgani yo‘q. Bir qancha o‘zbek ijodkorlari va she‘rshunoslari tomonidan aruz tizimi turkiy tilli xalqlarga yot degan fikrlar bildirildi. A.Muxtor: “Aruz... o‘zbek tili tabiatiga mos emas”, deb yozgan bo‘lsa, H.G‘ulom: “Aruz bizning tug‘ma vaznimiz emas. Aruz o‘zbek tilidagi she‘rning formasi emas. U bizga chetdan kelgan” degan fikrlari orqali aruz tizimining zamonaviy o‘zbek she‘riyatida qo‘llanilishiga manfiy munosabat bildirdilar. A.Qahhor tilimizga rus va Yevropa xalqlari orqali kirib kelayotgan so‘zlarni aruzda ifodalashning imkoni yo‘qligini ta‘kidlar ekan, “Biz aruzni muzey eksponati deb hisoblaganmiz va minba‘d ham shunday hisoblaymiz... Aruz ruscha va

¹ Орипов А. Сўз сеҳри / Сўз сеҳри. – Т.: Ўзбекистон, 2006. 10-б.

internatsional kalimalarni hamma vaqt ham xushlayvermaydi, bu soʻzlar koʻpincha vaznni buzadi yo oʻzi buziladi”, deb yozdi^{1*}.

Turkiy xalqlar sheʼrshunosligi boʻyicha tadqiqotlar olib borgan olim M.Hamroyev ham aruz turkiy tillarga muvofiq emas, u turkiy tilli xalqlar sheʼriyatida sunʼiy ravishda ishlatilmoqda, degan fikrlarni bildirdi². Tanqidchi N.Xudoyberganovning fikriga koʻra, “aruz tildagi tovushlarning uzun va qisqaligiga asoslanadi, hozirgi zamon oʻzbek tilida esa bunday xususiyat yoʻq”³.

Shunday murakkab bir sharoitda aruz himoyasi uchun otlangan oʻzbek ziyolilari “aruzni adabiyotimizdan chiqarib tashlab boʻlmasligini, bu davr aruzi ijodiy mehnat bilan qaytadan yaratilgan va boyitilgan, yangi poeziyaga xizmat eta oladigan aruz” ekanligini taʼkidladilar⁴.

Bolalikdan mumtoz anʼanalarga muhabbat va hurmat tuygʻusi bilan tarbiyalangan bir guruh ijodkorlarning aruz tizimi asosida yaratilgan devonlari vujudga keldi. “Klassik adabiyotimizga hurmat koʻzi bilan qaraganimdan aruz vaznining oʻynoqi, kishi qalbiga tez yetib boruvchi turlaridan ijodiy foydalandim va uni yanada rivojlantirishga intildim”, deb yozadi Charxiy oʻz tarjimai holida⁵.

Maʼlumki, sheʼriy asarning muhim va asosiy unsurlaridan biri vazn boʻlib, u “nazmdagi satrlarga yagona usul (ritm) bagʻishlaydi”⁶. Mumtoz ijodkorlarimiz asarlarining sheʼriy oʻlchovini tadqiq etish shoirlarimizning har bir sheʼrda asardagi gʻoya va obrazga muvofiq vazn tanlaganlaridan dalolat beradi. “Chunonchi, hayot va jamiyat, inson va muhabbat, shoir taqdiri, hijron alamlari haqidagi teran falsafiy mushohadalar vazmin, salobatli vaznlar vositasida ifodalansa, mahbuba tavsifi, oshiqning ehtirosli kechinmalari yengilroq, jozibador ohangdagi

¹Qarang: Мухтар А. Возвышенное и конкретное // Литературная газета. – Т., 12 ноября, 1955; Фулом Х. Поэзия ва ҳаёт // Совет Ўзбекистони маданияти. – Т., 1956, 23 май; Қаххор А. Шарҳ ва мундарижа ҳақида / Ёшлар билан суҳбат. – Т.: Ёш гвардия, 1968. – Б. 119–123.

*Shu va shunga oʻxshash fikrlar Abdulla Qahhorning koʻp yillar davomida aruzga qarshi turgan ijodkor sifatida talqin qilinishiga olib keldi. Adabiyotshunos O.Joʻraboevning fikricha, Abdulla Qahhorni “aruz gʻanimlari deb tanilgan kimsalar qatoriga qoʻshib boʻlmaydi”. Unga koʻra, soʻz ustasi Abdulla Qahhor faqatgina “estetik zavq bermaydigan, bir qolipdagi soʻzlar yigʻindisidan iborat aruziy sheʼrlar”ga qarshi boʻlganligi, oʻzi ham muxammas, qitʼa janrini aruzning ramal, hazaj bahri vaznlarida ijod qilganligi oydinlashdi (batafsil maʼlumot olish uchun qarang: Joʻraboev O. Aruz masalasi va sheʼr matni / Matnning matnoli sirlari. TAMADDUN. – Т.: 2017. – Б. 114–121).

²Хамраев М. Основы тюркского стихосложения. – Алма-Ата, 1963. – С. 94–95.

³Худойберганов Н. Илҳом мевалари // Шарқ юлдузи. – Т., 1969. – № 1. – 202-б.

⁴Рашидов Ш. Адабий танқид ҳақида // Шарқ юлдузи. – Т., 1956. – № 5. – Б. 104–105; Ҳайитметов А. Аруз ҳақида // Совет Ўзбекистони маданияти. – Т., 1956, 14 апрель; Маллаев Н. Яна аруз ҳақида // Совет Ўзбекистони маданияти. – Т., 1956 йил 20 июнь. 2-б.

⁵Чархий. Таржимаи ҳол / Қиёлаб ўтди: шеърлар. – Т.: Akademyashr, 2010. – 4-б.

⁶Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т.: Фан, 1972. – 3-б.

baytlarda mujassamlantiriladi, vafo va sadoqat tantanasi esa sho‘x va o‘ynoqi ritmga asoslangan misralarda tarannum etiladi”¹.

She’riy asar vaznini belgilovchi asosiy omillardan biri bu lirik janrdir. Ijodkor muayyan asari uchun vazn tanlar ekan, uning qaysi janrda yaratilishini ham nazarda tutadi, chunki har bir janr o‘z vazn doirasiga ega bo‘ladi. Ba’zi janrlarning vazn imkoniyatlari keng bo‘lib, ular aruz tizimining istalgan vaznida, ba’zi janrlar esa avvaldan belgilab qo‘yilgan vaznlar doirasida bitiladi.

Vazn imkoniyatlari keng bo‘lgan lirik janrlardan biri g‘azaldir. Mumtoz adabiyotimiz tarixida g‘azal bitmagan ijodkorni topish qiyin. Nasiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan boshlab ibtido topgan turkiy g‘azal ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Ma’lumki, g‘azal arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi “ayol kishiga xushomad qilmoq”, “oshiq bo‘lmoq”dir². “G‘azal Sharq adabiyotidagi o‘ziga xos janrlardan biri. U arab adabiyoti asosida shakllanib, keyinchalik forsiy va turkiy muhitda juda kuchli darajada rivojlandi. O‘zbek adabiyotida uni oliy cho‘qqiga olib chiqqan ijodkor Alisher Navoiydir”³. Ilk o‘zbek g‘azaliyotidan tortib keyingi davrlargacha yaratilgan g‘azallar ko‘proq aruzning *ramal* bahrida bo‘lgan.

Agar mumtoz adabiyotdagi ijodkorlar she’riyati kuzatiladigan bo‘lsa, ular ijodida aruz tizimidagi vaznlar miqdorining turlichaligini ko‘rish mumkin. Masalan, Navoiy g‘azallari 13 bahr doirasidagi 100 ga yaqin vaznlarda yaratilgan bo‘lsa⁴, Ogahiy g‘azal yozishda 50 dan ortiq vaznlardan foydalangan, Furqat aruzi esa 21 vaznni o‘z ichiga oladi⁵. Bu ko‘rsatkich Habibiy ijodida 39 (2-ilovaga qarang), Chustiyda 24 (3-ilovaga qarang), Sobir Abdullada 22 (4-ilovaga qarang), Charxiyda 17 (17-ilovaga qarang), Erkin Vohidov g‘azaliyotida 11 (1-ilovaga qarang), Abdulla Oripovda 4, Matnazar Abdulkimda 11 (18-ilovaga qarang), Jamol Kamolda 8 (19-ilovaga qarang) tani tashkil qiladi. Ijodkorlar o‘z she’rlari uchun mos vazn tanlar ekanlar, she’rdagi mavzu, g‘oya va obrazlarning vazn bilan mutanosiblashishiga katta e’tibor berganlar. Shu

¹ Ҳоҷиаҳмедов А. Фурқат арузи / Фурқат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990. – 83-б.

² Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Наука, 1958. – С. 721.

³ Тўхлиев Б. Ғазал ва уни таҳлил қилиш методикаси / ALISHER NAVOIY VA XXI ASR (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Т.: MASHHUR-PRESS, 2019. – 239-б.

⁴ Юсупова Д. Алишер Навоий арузининг тараққиёт босқичлари // “Алишер Навоий ва XXI аср” мавзuidaги халқaro илмий-назарий анжуман материаллари. – Т.: Navoiy universiteti NMU, 2019. – 104-б.

⁵ Ҳоҷиаҳмедов А. Огаҳий даҳосининг олмос қирралари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999; Ҳоҷиаҳмедов А. Фурқат арузи / Фурқат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990. – 83-б.

jihatdan ma'lum bir ijodkor she'riyatining vazn xususiyatlari haqida so'z yuritishda mazmun vaznga bog'liq ekanligini hisobga olish lozim. "She'r vazni uning mazmuni bilan bevosita aloqadordir. Bu aloqa turli shakllarda namoyon bo'ladi va unga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar mavjud. Vaznning "og'ir", "yengil", "o'ynoqi", "sokin" bo'lishi bevosita mazmunga ham ta'sir qiladi"¹.

Bu jihatni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ijodkor she'riyatida qo'llanilgan barcha vaznlar soni va shu vaznlar asosida yaratilgan she'riy janrlar miqdorini aniqlash.

2. Ijodkor she'rlaridagi vaznlarning mumtoz adabiyotda qo'llanish doirasiga e'tibor berish (ya'ni mumtoz adabiyotda bu vaznlarning qaysilariga ko'proq murojaat qilingan, qaysisi kam yoki umuman qo'llanilmagan).

3. Mumtoz she'riyatda kam qo'llanilgan yoki umuman qo'llanilmagan vaznlarning mumtoz risolalarda keltirish o'rniga e'tibor qaratish.

4. Ma'lum bir asarning she'riy o'lchovini aniqlashda uni faqat bahrlar doirasida emas, balki bahr tarkibidagi vaznlar doirasida o'rganish. Masalan, Habibiyning "Keldi yor" g'azalining o'lchovini aniqlashda uni faqat rajaz bahrda ekanligini aytish bilan cheklanib qolmasdan, qaysi vaznda ekanligini ham aniq ko'rsatish lozim.

Aruz tizimida har bir bahr bir necha vaznlarni o'z ichiga oladi. Bu vaznlar bir bahrga mansubligidan qat'i nazar, o'ziga xos ohangga ega. Masalan, hazaj bahrining *hazaji musammani solim* vazni sokin va vazmin ohang kasb etsa, xuddi shu bahr tarkibidagi *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* yengil va o'ynoqi ohangda ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu vazn *hazaji musammani solimga* mos bo'lgan mahzun tuyg'ular ifodasini "ko'tara olmaydi". Xuddi shu fikrni rajaz bahrining *rajazi musammani solim* va *rajazi musammani matviyi maxbun* vaznlariga nisbatan ham aytish mumkin. Shu nuqtai nazardan g'azallarning bahrlar tarkibidagi vaznlar kesimida tadqiq qilinishi maqsadga muvofiq.

Aruzga doir turkiy risolalarda bahrlar ikki guruhga bo'linib, tasnif qilinadi. Xususan, Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi"da bahrlar *muttafiq ul-arkon* (bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan) va *muxtalif ul-arkon* (turli

¹Наджибуллохи А. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 9.

asliy ruknlarning takroridan hosil bo‘ladigan) bahrlarga ajratilgan¹. Bahrlarni bu tarzda tasnif qilish ularning o‘ziga xos xususiyatlari (qanday ruknlardan tarkib topganligi)ni o‘zlashtirishga ko‘maklashish bilan birga ushbu bahrlarning ohang imkoniyatlarini farqlashga ham yordam beradi.

Dastlab birinchi guruhga mansub bahrlarning XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida qo‘llanilish darajasi bilan tanishamiz. Turkiy she‘riyatda muttafiqlar ul-arkon guruhiga *ramal*, *hazaj*, *rajaz*, *mutaqorib*, *mutadorik*, *komil* bahrlari kiradi. Kuzatishlarimiz asnosida Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy devonlaridagi g‘azallarda ushbu guruhning barcha bahrlari, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov g‘azallarida, asosan, *ramal* va *hazaj* bahrlari istifoda etilganligi ma‘lum bo‘ldi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval

XX asr II yarmi she‘riyatida qo‘llanilgan muttafiqlar ul-arkon bahrlari

№	Bahr nomi	Erkin Vohidov	Habibiy	Sobir Abdulla	Chustiy	Abdulla Oripov	Jami
1.	Ramal	71	177	143	238	15	644
2.	Hazaj	30	102	81	214	7	434
3.	Rajaz	-	10	3	17	-	30
4.	Mutaqorib	-	3	-	16	-	19
5.	Mutadorik	-	1	-	-	-	1
6.	Komil	-	1	-	-	-	1
Jami:		101	294	241	485	22	1129

Jadvaldagi ma‘lumotlardan ko‘rinyaptiki, davr she‘riyatida ushbu bahrlar orasida *ramal* bahri qo‘llanilish jihatidan birinchi o‘rinda turar ekan. Binobarin, XX asrgacha bo‘lgan shoirlar ijodida ham ramal bahri keng qo‘llanilgan.

Alisher Navoiy “turkiy” deb atagan ushbu bahr undan keyingi barcha g‘azalnavislar ijodida ham yetakchi bo‘lib qoldi. Hozirgi zamon o‘zbek shoirlari g‘azallarida ham bu bahr vaznlari o‘z shuhratini yo‘qotgani yo‘q². Darhaqiqat, o‘zbek adabiyotida aruzning boshqa

¹Qarang: Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.. Хазина, 1996. – 147-б.; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – 24-б.

²Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 32-б.

bahrlarida ham gʻazallar yaratilgan boʻlsa-da, oʻzbek gʻazaliyotida eng koʻp murojaat qilingan bahr bu *ramal* bahridir.

“Tuyaning loʻkillashi”¹ degan maʼnoni anglatuvchi *ramal* bahri sheʼriyatimizda juda keng qoʻllanilgan oʻlchov turi boʻlib, asosini *foilotun* aslining aynan takrori (*foilotun foilotun foilotun foilotun*) tashkil qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarida *ramal* bahrining “ellik toʻqqiz vazn, oʻttiz bir mustaʼmal, yigirma sakkiz muxtaraʼ, oʻn ikki vazn mustaʼmali matbu” ekanligiga eʼtibor qaratib, uning 59 vazniga misollar keltiradi². Tojik adabiyotshunos olimi U.Toirovning fikricha, *ramal*ning shakllanishi, asosan, xalq ogʻzaki ijodi qoʻshiqlari bilan bogʻliq hodisadir va Hirot hukmdorlari davrida mazkur bahr alohida qoʻshiq janri hisoblangan³.

Adabiyotshunos olimlarimiz turkiy sheʼriyatda *ramal* bahrida yozilgan ilk sheʼrlar Nosiriddin Rabgʻoʻziyning “Qisasi Rabgʻoʻziy” asarida uchrashini aytadilar. Tadqiqotimiz natijasida Habibiyning 325ta gʻazalidan 177tasi, Sobir Abdullaning 272ta gʻazalidan 143tasi, Chustiyning 518ta gʻazalidan 238tasi, Erkin Vohidovning 108ta gʻazalidan 71tasi, Abdulla Oripovning 22ta gʻazalidan 15tasi mazkur bahr vaznlarida yaratilganligi maʼlum boʻldi.

A.Hojiahmedov *ramal* bahri qoʻshvaznli va koʻp vaznli oʻlchov guruhlari – shahobchalaridan tashkil topganligi, qoʻshvaznli oʻlchovlardan har biri ikki vaznni ichiga olsa, koʻp vaznli shahobchalardagi sheʼrlarning har qaysisi 8 tagacha vaznda yozilishi mumkinligini taʼkidlaydi.

Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov gʻazaliyotida ham *ramal* bahrining qoʻshvaznli va koʻp vaznli oʻlchov guruhlari uchraydi. Lekin shuni alohida taʼkidlash kerakki, XX asr ikkinchi yarmi gʻazaliyotida *ramal* bahrining qoʻshvaznli oʻlchov turlari koʻp vaznlarga nisbatan ustunlik qiladi. Tahlil jarayonida Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov oʻz gʻazaliyotida *ramal* bahrining 10 ta vaznidan keng foydalanganligi oydinlashdi. Ushbu vaznlarni quyidagi jadvalda koʻrish mumkin:

¹ Хожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 110-б.


² Бобур З.М. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – 145-б.

³ Тоиров У. Становление и развитие аруза и теории и практике персидско-таджикской поэзии // АДД. – Душанбе, 1997. – С. 112.

Ramal bahri vaznlari

№	Vazn nomi	Erkin Vohidov	Habibiy	Sobir Abdulla	Chustiy	Abdulla Oripov	Jami
1.	Ramali musammani mahzuf	54	127	99	201	13	494
2.	Ramali musammani maqsur	13	32	13	14	2	74
3.	Ramali musammani mashkul	-	2	-	1	-	3
4.	Ramali musammani maxbuni mahzuf	-	3	2	1	-	6
5.	Ramali musammani maxbuni maqsur	-	2	-	-	-	2
6.	Ramali musammani maxbuni maqtu'	-	2	-	-	-	2
7.	Ramali musaddasi mahzuf	4	6	27	18	-	55
8.	Ramali musaddasi maqsur	-	-	2	3	-	5
9.	Ramali musaddasi maxbuni mahzuf	-	2	-	-	-	2
10.	Ramali musaddasi maxbuni maqsur	-	1	-	-	-	1
Jami:		71	177	143	238	15	644

Ko‘rinadiki, qayd etilgan vaznlar orasida *ramali musammani mahzuf* o‘lchovi yetakchilik qiladi. *Ramali musammani mahzuf* (— V — —/— V — —/— V —) vazni dastlab uch rukn *foilotun* (— V — —) va oxirgi rukn *foilun* (—V—) dan tashkil topadi.



Bu vazn aruz tizimidagi eng xushohang vaznlardan biri bo‘lib, Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida xalq orasida mashhur bo‘lgan “qo‘shiq” nomli kuyning ushbu vazn bilan mos kelishini ta’kidlaydi: “...bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni

ramal musammani mahzuf vaznig‘a elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tab‘liq benazir yigitlar g‘arib nag‘amot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, Sultoni Sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig‘ va xushoyandalig‘i vasfqa sig‘mas va ta‘sir va raboyandalig‘i sifatqa rost kelmas...”¹.

Zahiriddin Bobur esa o‘zining “Aruz risolasi”da “Bu vazn forsiyda va turkiyda ko‘p shoyi’dur. Mavlono Abdurahmon Jomiy bu vaznda bisyor aytibtur. Mir Alisher Navoiyning xud jami’ o‘zga vaznda aytqon ash’ori bila bu vaznda aytqon ash’orining loshah borg‘ay. Sulton Husayn Mirzoning devonida ushbu vazndan o‘zga vazn yo‘qtur². Xoja Xusrav Dehlaviyning “Dar’yoyi abrori” bu vazndadur... Ulug‘ shoirlar lahu aksar tatabbu’ qilibturlar, Mir Alisher Navoiyning “Tuhfat ul-afkor”ining matla’icha kam voqi’ bo‘lubtur”, – deb ta’kidlaydi³. A.Hojiahmedov ushbu vaznda yaratilgan g‘azallar “Shashmaqom”ga mansub 52 kuyga mos tushishini kuzatishimiz mumkin” – deb ta’kidlaydi⁴. “Ramali musammani mahzuf vazni Alisher Navoiy ijodida eng ko‘p istifoda etilgan bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy”dagi 2600 g‘azaldan 1101 tasi ushbu o‘lchovda bitilgan”⁵.

Kuzatishimizcha, Habibiyning 127ta, Sobir Abdullaning 99ta, Chustiyning 201ta, Erkin Vohidovning 54ta, Abdulla Oripovning 13ta g‘azali *ramali musammani mahzuf* vaznida bo‘lib, ular an’anaviy g‘azal qoidalariga asoslangan.

Erkin Vohidovning *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan g‘azallarida mazmun va shakl birligini, g‘oya va obrazlar mutanosibligini va she’r talablaridan kelib chiqqan holda har bir baytning o‘ziga xosligini ko‘ramiz. Shoirning “Yoshlik devoni” uchun “Debocha” bo‘lgan g‘azalda ham ushbu vazn yuksak mahorat bilan qo‘llanilgan:

*Istadim sayr aylamoqni,
Men g‘azal bo‘stonida,
Kulmangiz ne bor senga deb,
Mir Alisher yonida*⁶...

¹Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – 71-б.

²Aslida bu fikr nisbiy. Husayn Boyqaro devonida ushbu vazndan tashqari, hazaj, muta’qorib bahrida yaratilgan g‘azallar ham uchraydi.

³Захириддин Мухаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасан. – Т.: Фан, 1971. – 146-б.

⁴Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 111-б.

⁵Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. –Т.: ТА’LIM – MEDIA, 2019. – 26-б.

⁶Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. Биринчи жилд. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2000. – 114-б.

Shoir mazkur vazndagi gʻazallarida mumtoz aruzni zamonaviy ohanglar bilan uygʻunlashtirdi, koʻp hollarda sof turkiy soʻzlarni, kishilik olmoshlarini radif vazifasida qoʻllab, “turkiy” deb atalgan vaznning mazmunga mutanosib boʻlishiga alohida eʼtibor qaratdi. Uning “Menga” radifli gʻazalida ridfi asliyli murdof qofiya *-lik* turkiy qoʻshimchasi bilan birgalikda vaznni belgilashga xizmat qilgan:

*Barcha shodlik senga boʻlsin,
Bor sitam zorlik menga.
Barcha dildorlik sengayu,
Barcha xushtorlik menga¹.*

Sheʼriyatda kam uchraydigan qoʻsh qofiya usuli tazod sanʼati bilan uygʻunlashib, matlaʼning shohbayt darajasiga koʻtarilishiga zamin hozirlagan. Har ikki rukndan soʻng ritmik pauzaning kelishi gʻazal ohangining yengil chiqishiga olib kelgan.

Erkin Vohidov oʻz gʻazallarida bir soʻzni alohida taʼkidlash orqali bir necha marta qaytarish usulidan, yaʼni takrir sanʼatidan unumli foydalanadi. Bunga iqror boʻlmoq uchun “Gulchehralar” radifli gʻazalida “gul” soʻzini takrorlash orqali qay darajada mazmundorlikka va taʼsirchanlikka erishilganini koʻrishimiz mumkin:

*Gul boʻlib, gul- gul yonib,
Gulshan aro Gulchehralar,
Gul uzib oʻynar qoʻyib,
Gulga bino Gulchehralar².*

Bu kabi oʻynoqi ohang, lutf va nafosat Erkin Vohidov uslubiga xos. Shoirning bu gʻazali lafziy sanʼatlar guruhining eng yaxshi namunalaridan biridir. Gʻazalda shoir *oʻxshatish, ishtiyoq, iyyom, tavziʼ, tajnis* kabi lafziy sanʼatlarni bir nuqtaga jamlay olgan. “Bilgilki, – deb taʼkidlaydi Atoullloh Husayniy, – lafziy goʻzalliklarning asosi uldurkim, alfozni maʼnoga tobiʼ qilgʻaylar”³. Shuningdek, “Xayol”dagi “Men xayolni sheʼrga soldim, oʻyparast boʻlma va lek, Besamar boʻlsa seni, bir kun xarob aylar xayol” kabi haqqoniy fikrlar, “Rost qalam timsoli

¹ Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. Биринчи жилд. – Т.: Шарқ НМАК, 2000. – 116-б.

² Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ НМАК, 2018. – 101-б.

³ Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 35-б.

she'r, timsoli tig', timsoli haq, Boshini ming kesdilar bosh egmadi aslo qalam" baytidagi qalam obrazining yangi ma'no kasb etishi, "Shirin" g'azalidagi "Sevgining dardi faqat beishq uchun begonadir. Ishq yor bo'lsa firoq chekkanda hatto g'am shirin" satrlaridagi chinakam oshiqlik bilan bog'liq tuyg'ularning turkona ohang asosidagi badiiy tarannumi shoir mahoratini ko'rsatib beruvchi omillardandir.

Abdulla Oripovning esa "Sochlaring yoymay turib" deb boshlanuvchi g'azali mumtoz she'riyatimizga xos husni matla'ning go'zal namunasidir. Bunda tashbeh ham, tazod ham fikrning san'atkorona ifodasiga xizmat qilgan.

*Sochlaring yoymay turib
Tushgan qorong'u tun emas,
Tishlaringni ko'rmayin
Tong ham oqargan kun emas¹.*

Ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan ushbu g'azalning biror o'rnida saktalik uchramaydi. Teran mazmun va go'zal badiiyat uyg'unligi, ohorli tashbeh va betakror mohiyat mutanosibligi shoir g'azallarining yutug'ini ta'minlagan bosh omildir². Shuningdek, mazkur vazndagi "Bilan" radifli g'azalda Abdulla Oripov "Igna bilan quduq qazimoq" maqolini qo'llab, birinchi misrada aytilayotgan fikrni "otalar so'zi" bilan dalillash vositasida o'ziga xos obraz yaratishga erishgan:

*She'r yozish tengdir quduqni
Ignada qazgan bilan,
Yo esa undan yumib ko'z
Ipni o'tkazgan bilan³.*

Habibiy va Sobir Abdullaning ham *ramali musammani mahzuf*da bitilgan she'rlari, asosan, ishqiy mavzuda bo'lib, ularning aksariyati yorga murojaatdan iborat. I.Steblevaning fikricha, "vazn konkret she'rning asosiy g'oyasi bilan aloqador bo'lgan va shuning uchun shoirlar tomonidan tanlab olingan"⁴. Quyidagi baytlarga e'tibor bersak:

¹ Орипов А. Танланган асарлар. VII жилд. – Т.:Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2013. – 114-б.

²Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. – 22-б.

³Орипов А. Танланган асарлар. – Т.: "SHARQ" НМАК, 2019. – 581-б.

⁴Стеблева И. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993. – С. 131.

*Ko 'nglim orom olmagay bir lahza, bir on, kelmasang,
Talpinur har dam tanimdan chiqqali jon, kelmasang¹.*

Yoki:

*Ko 'kka boqdim, sen kabi issiq sitora ko 'rmadim,
Yerda monand axtarib, qildim nazora, ko 'rmadim².*

Ushbu baytlarda lirik qahramonning alamli tuyg'ulari, umid va iltijolari ma'shuqaga murojaat tarzida ifodalangan. Habibiyning ushbu vaznda yozilgan yana "Ishq darsi", "O't", Sobir Abdullaning "Nola chekdi", "Orazi gul", Abdulla Oripovning "Tog' aro balqqanda sen...", "Ohkim tushganda ko'z..." kabi g'azallari ham mazmun jihatidan yuqoridagilarga yaqin.

Ma'lumki, munojot g'azallar Allohdan najot so'rash mazmunini bildiruvchi g'azallar turkumi hisoblanadi. *Ramali musammani mahzuf* vazni hamd yoki munojot mazmunidagi g'azallar istifodasi uchun ham nihoyatda qulaydir. Ushbu vaznda ko'plab shoirlarning munojot mazmunidagi she'rlari yozilgan. Xususan, Abdulla Oripovning "To seni" deb nomlanuvchi g'azali ham mazkur o'lchovda yaratilgan. Shoir g'azalda "seni" degan radifni tanlash orqali Allohga murojaat qilar ekan, to uni qalban his qilgunicha yagonalik xususiyatini insonlardan yoki boshqa bandalardan qidiradi. Aslida tanholik faqat o'zigagina xosligini ta'kidlar ekan, Allohni taniganidan keyin dunyoni taniganligini, uning tanholigini anglagandan keyin esa o'zligini anglaganligini e'tirof etadi:

*Kimnidir tanho dedim men
Topgunimcha to Seni,
Vo ajab, dunyoni topdim,
Anglagach tanho Seni³.*

G'azal uchun tanlangan "seni" radifi ayni paytda uning vaznini tanlashiga ham zamin hozirlagan. Zero, "to seni" so'zi ramal bahrining foilun tarmog'iga mos keladi.

Chustiyning mazkur vaznda yozilgan g'azallari esa, asosan, axloqiy-ta'limiy mavzuda bo'lib, unda pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi:

¹Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 184-б.

² Абдулла С. Девон. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Бадиий адабиёт, 1965. – 93-б.

³ Орипов А. Танланган асарлар. – Т.: "SHARQ" НМАК, 2019. – 581-б.

*Ziyrak o'lsin dushmaningu do'stu nodon o'lmasin,
Notavon aqlingga ayt, bu so'zga hayron o'lmasin¹.*

Odatda, aruz ilmi qoidalariga asosan, g'azal matla'si va juft misralar asosiy vaznda yozilgani holda, toq misralar qo'shimcha (shu vaznga yaqin) o'lchovda bitilishi mumkin. Ushbu g'azalda ham *ramali musammani mahzufda*, 5-baytning toq misrasi esa *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan.

***Foydali bo'lsa so'zing xalqingni ayla bahramand,
Vaqt kelganda gapir, og'zingda talqon o'lmasin.***

Chustiyning *ramali musammani mahzuf* o'lchovida yozilgan

*Ko'zlarim nuri Farog'at o'n sakiz yoshindadur,
O'n sakiz ming olam ilhomi uning boshindadur²*

matla'li g'azali Alisher Navoiyning

*O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur³*
(“Badoye’ ul-vasat”, 156-g'azal)

g'azaliga tatabbu' sifatida yozilganini aniqlashimiz oson kechadi. Bu orqali Chustiy Alisher Navoiy ijodidan saboq olgan va g'azal yozish mahoratini oshirgan. Har ikkala g'azal *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Navoiy g'azalining maqsad-mohiyati o'n sakkiz yoshdagi yor malohatini vasf etishga qaratilgan. Chustiy Alisher Navoiy g'azalining vazni va mavzusiga mos ijod qilgan. Qofiyalar esa quyidagicha:

№	Alisher Navoiyda:	№	Chustiyda:
1)	boshindadur	1)	yoshindadur
2)	yoshindadur	2)	boshindadur
3)	qoshindadur	3)	yo'ldoshidadur
4)	naqqoshindadur	4)	Naqqoshindadur

¹Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 175-б.

²Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 278-б.

³Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.3. – 85-б.

5)	toshindadur	5)	Qoshindadur
6)	xuffoshindadur	6)	bardoshindadur
		7)	Oshindadur
		8)	farroshindadur
		9)	Yonboshindadur
		10)	Toshindadur

Chustiy g‘azal baytlarini 9 taga yetkazgan. G‘azalda **yoshindadur, boshindadur, naqqoshindadur, qoshindadur** kabi qofiyalar takrorlangan. Chustiy Alisher Navoiy qo‘llagan murdaf qofiyaning ohangdorligini ham saqlagan.

Bu davr she‘riyatida qo‘llanilgan ramal bahriga doir navbatdagi vazn *ramali musammani maqsur* ham o‘zbek she‘riyatida juda keng tarqalgan o‘lchovlardan bo‘lib, ohang jihatidan yoqimli va mumtoz kuylarga mos tushadi.

*Ikki qoshing o‘sma birlan
Bo‘ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg¹.*

Yoki:

*To‘g‘ri bo‘l, do‘stim, agar bo‘lsin desang ta‘bingni chog‘,
To abad yayrab yasharsan xalq aro erkin farog‘².*

Yoki:

*Jahd qildim, o‘yladim ko‘p, topmadim tanho iloj,
Jon ko‘ngul, yo ber savolimga javob, top yo iloj³.*

Yoki:

*Boshi osmonga yetishdi eng baland koshona Chust,
Ishni keng maydonda qoyil ayladi mardona Chust⁴.*

Diqqat qilinsa, baytlardagi oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi (**barg, chog‘, farog‘, iloj, iloj, Chust, Chust**) ma’lum bo‘ladi. Chunki **chog‘, farog‘, iloj** so‘zlari tarkibidagi “o” cho‘ziq unlisi, ikkinchi baytdagi **barg, Chust** so‘zi esa qator undosh bilan ifodalangani uchun o‘ta cho‘ziq hijoni keltirib chiqargan. Talaffuzda hijolarning qisqa, cho‘ziq

¹Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “Sharq” НМАК, 2018. – 71-б.

²Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 144-б.

³Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадиий адабиёт, 1965. – 53-б.

⁴Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 303-б.

va o'ta cho'ziqligi vaznga muvofiq o'qilishida ko'rinadi. Chustiyning mazkur vazndagi "Ag'yor yor"¹ radifli she'ri tajnisli g'azal hisoblanib, *ramali musammani maqsur*da yaratilgan she'rlar orasida alohida ajralib turadi. Bu g'azalni shoirning o'zi "Hayotnoma" devonida *g'azali tuyuq* deb atagan². V.Qodirov esa qo'sh tajnisli qofiyada yozilgan deya e'tirof etadi³. Chunki g'azalda aksariyat hollarda radif tajnis, ya'ni omonim so'z bo'lib kelgan. Masalan:

*Qalbini qilsang musaxxar bo'lgusi **ag'yor yor**,
Ko'nglidan chiqsang bilib qo'y, senga bo'lmas **yor, yor***⁴.

Matla'ning birinchi misrasidagi "**yor**" do'st, yor ma'nosida, keyingi misralarda esa "ma'shuqa", "sevikli yor" tarzida kelishini kuzatishimiz mumkin. Shu tariqa g'azalda radif tajnis holida qo'llanadi. G'azal uchun tanlangan *ramali musammani maqsur* vazni uning xushohangligini ta'minlagan.

Bu davrda *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan g'azallar orasida mumtoz adabiyotimiz tarixida uchramaydigan *g'azali qo'sh muvashshah* janrida bitilgan she'r ham mavjudligi kuzatildi. Ushbu g'azal Chustiy qalamiga mansub bo'lib, shoirning do'sti Asg'arali Charxiyning 70 yoshga to'lishi munosabati bilan yaratilgan. Shoirning o'zi bu haqda "Sadoqat gullari" devonida "shoiri nozik xayol, fozilu barkamol aziz do'stim va birodarim domla Asg'arali, ya'ni Mavlono Charxiyning yoshlari 70 ga to'lish munosabati bilan tabrik tariqasida bu arzimas qo'sh muvashshah va sharaflil yil tarixini abjad hisobi bilan mashq qilib manzuri nazir etish umidida taqdim etmoq kaminaga ham muyassar bo'lganligidan faxrlanib cheksiz shodlik izhor etaman, – deb ta'kidlaydi⁵.

G'azalning muvashshah turi haqida nazariy adabiyotlarda ma'lumotlar bor. Xususan, O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyoviddinovlarning "O'zbek klassik she'riyati janrlari" kitobida *g'azali muvashshah* haqida shunday deyiladi: "Muvashshah adabiy termin sifatida maxsus bir usul – san'at bo'lib, she'rning bayt va

¹ Izoh: Sobir Abdullada ham "Yor-yor" radifli she'r uchraydi. Lekin uning vazni barmoqda bo'lganligi sababli tahlil obyektiga tortmadik.

² Qarang: Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 270-б.

³ Қодиров В. Ҳозирги замон ўзбек ғазаллари поэтикасининг айрим хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дис. – Т., 1993. – 27-б.

⁴ Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 303-б.

⁵ Чустий. Садокат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 121-б.

misralaridagi birinchi harflar olib tizilsa, ularning birikmasidan ma'lum bir ism – so'z hosil bo'ladi. Bu usul g'azal, murabba', muxammas yoki boshqa janrlardagi she'rlarda qo'llanishi mumkin. Muvashshah qo'llanilgan g'azal *g'azali muvashshah* deb nomlanadi¹. Shuningdek, U.To'ychiyev, R.Orzibekov, Yo.Is'hoqov, D.Yusupova kabi adabiyotshunos olimlar ham g'azalning *g'azali muvashshah* turi borligi haqida fikr aytadilar². Lekin *g'azali qo'sh muvashshah* mavjud ekanligi haqida nazariy ma'lumotlar keltirilmaydi. Chustiyning

*Assalom, ey nutqi komil shoiri nozik xayol,
Nazmu nasru hajviya bobida nodir barkamol*³

singari matla' bilan boshlanuvchi *g'azali muvashshah*idagi toq misralar boshidagi harflarni jamlasak, "*Asg'rali Chrxiyga*", juft misralar boshidagi harflarni jamlasak esa, "*Nbixon Chustiydn*" hosil bo'ladi. Arab yozuvi xususiyatlariga ko'ra, so'zlardagi qisqa "a" unlilari tushirib qoldirilgan. Ushbu qisqa "a" unlisini o'z o'rniga qo'ysak, "*Asg'arali Charxiyga*", "*Nabixon Chustiydan*" degan jumlar kelib chiqadi. Va bu holat har bir misralar o'zaro muvashshah san'atini paydo qilayotganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, yana bir e'tiborga molik jihat: g'azalning muvashshah tugagandan keyingi qismi davom etib, ta'rix san'atini o'zida aks ettirgan. Biz ta'rix janri haqida ishimizning keyingi faslida batafsil to'xtalishimizni hisobga olib, bu o'rinda faqat *ta'rix*ning muayyan bir tarixiy voqyea yoki hodisani abjad hisobi asosida keltirib chiqarishga asoslanishini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

*Boshqadan kutma deding, ey, Chustiy, bu ta'rix haqin,
Bir yuzu o'n ikkini yetmish yashar Charxiydan ol*⁴.

Keltirilgan baytda moddai ta'rix "*yetmish yashar Charxiy*" bo'lib, uni abjad asosida hisoblab chiqsak va undan 112 ni chiqarib yuborsak, 1972 qoladi. Ya'ni, Charxiyning yubileyi nishonlangan sana 1972-yil ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu ma'noda biz mazkur she'rni shartli

¹ Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 76-б.

² Qarang: Орзібеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O'zbekiston, 2014; Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019.

³ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 121-б.

⁴Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 122-б.

ravishda *gʻazali muvashshahi taʼrix* deb atash tarafdorimiz. Chunki bu sheʼrda ham *gʻazal*, ham *muvashshah*, ham *taʼrix* xususiyatlari birlashib ketgan. Mumtoz adabiyotimiz tarixida bunday hodisaning uchramasligi ushbu davr sheʼriyatining oʻziga xos jihatlarini koʻrsatib beruvchi yana bir muhim omildir.

Shuningdek, XX asr ikkinchi yarmi *gʻazaliyotida* Asgʻarali Charxiy *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan qaytarma bahr nomi bilan yana bir *gʻazal* turini isteʼmolga olib kirdi. Bunday *gʻazal* turida baytlarning oxirigacha tasdir va tasbiʼ sanʼatlari oʻrin almashinib qoʻllanilib, ajoyib bir ohangdorlik vujudga keladi. Xususan, *tasdir* yoki *radd us-sadr il-al ajuz* (sadrning ajuzda takrorlanishi) sanʼatida baytning boshida kelgan soʻz baytning oxirida ham takrorlanadi, boshqacha aytganda, bayt qaysi soʻz bilan boshlangan boʻlsa, shu soʻz bilan yakunlanadi¹. Masalan, matlaʼ bayt **baxtiyor** soʻzi bilan boshlanib, shu soʻz bilan tugagan. Tasbiʼ yoki raddul aruz ilal ibtido (aruzning ibtidoda takrorlanishi) – birinchi misra oxiridagi soʻzning keyingi misra boshida qaytarilishiga aytiladi². Matlaʼ baytning birinchi misrasi **barqaror** soʻzi bilan tugaydi va keyingi misra shu soʻzning takrori bilan boshlanadi.

***Baxtiyorman yashnagan yurtimda, mehnat barqaror,
Barqaror mendek shirin umri-la hamma baxtiyor***³.

Qaytarma bahrli *gʻazal*ning qolgan baytlarida ham mazkur ikki holatni kuzatish mumkin. *Gʻazal*ning toq misralari *ramali musammani maqsurda*, juft misralari esa *ramali musammani mahzuf* vaznida yaratilgan.

Navbatdagi vazn ramal bahrining qoʻshvaznli oʻlchov turi *ramali musammani mashkul* (V V — V/ — V — — /V V — V/ — V — —) boʻlib, oʻqilish jihatidan ogʻir vaznlardan hisoblanadi. Sakkizta qisqa va choʻziq hijolarning ketma-ket guruhlanib takrorlanishi oʻziga xos murakkablikni vujudga keltirganligi sababli mumtoz adabiyotimizda bu vazn u qadar koʻp istifoda etilmagan. Binobarin, “oʻzining ritmik xususiyatlari nuqtai nazaridan nomatbuʼ hisoblanuvchi bu vazndan klassik shoirlarimiz ijodida juda kam foydalanilgan”⁴. *Ramali musammani mashkul*ning tarkibini *foilotun* aslining mashkul (1- va 3-


¹ Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020. – 255-6.

² Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – T.: Oʻzbekiston, 2014 – 267-6..

³ Чархий А. Қиёлаб ўтди. – T.: Akademnashr, 2010. – 102-6.

⁴ Ҳожиаҳмедов А.Фуркат арузи /Фуркат ижодиёти. – T.: Фан, 1990. – 87-6.

rukni) tarmog‘i *failotu* (V V — V) hamda solim (2-va 4-ruknlari) ko‘rinishi *foilotun* (— V — —) tashkil qiladi.



Habibiyning “Baxtiyor”, “Qora ko‘z”, Chustiyning “Sadag‘ang bo‘lay, nigorim” g‘azallari mazkur vaznda yozilgan. Ushbu o‘lchov Sobir Abdulla, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov g‘azaliyotida uchramaydi.

Chustiyning “Sadag‘ang bo‘lay, nigorim” she‘ri g‘azalning *g‘azali qit‘a* turiga mansubdir. “G‘azali qit‘a shakl jihatidan qit‘aga o‘xshab ketadi. Unday g‘azalning matla’si qit‘adagidek o‘zaro qofiyalanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham qit‘a g‘azal yoki g‘azali qit‘a deb yuritilgan”¹. U g‘azal va qit‘aning xususiyatlarini o‘zida birlashtiradi. G‘azali qit‘a taxallusning mavjudligi, g‘azal singari ko‘p mavzularni o‘zida qamrab olishi va hajm imkoniyatlari jihatidan g‘azalni eslatsa, qit‘aga o‘xshab faqat juft misralarda qofiyaning mavjudligi uni qit‘aga yaqinlashtiradi. Shu ma’noda g‘azali qit‘a janrini g‘azal hamda qit‘a orasidagi hosila janr deyish mumkin.

G‘azali qit‘a o‘zbek adabiyotida kam bo‘lsa-da, ba’zi shoirlar ijodida uchrab turadi. Bu janrdagi asarlar o‘rta asrlar adabiyotida juda kam yaratilgan. Faqatgina sanoqli ijodkorlarga bu g‘azal turiga murojaat qilganlar. G‘azali qit‘a janri dastlab Mashrab ijodida kuzatilsa, keyinchalik Almaiy, Hamza, Sobir Abdulla ijodida ham qo‘llanilganligini uchratish mumkin. Chustiy ham bu an’anani davom ettirib, “Sadag‘ang bo‘lay, nigorim” g‘azali qit‘aning go‘zal namunasini ramal bahrining murakkab o‘lchovida yaratdi. Lekin shoir unda so‘zlarni shunday mahorat bilan qo‘lladiki, natijada, og‘ir ohangga mansub deb qaraladigan mazkur vazn Chustiy qalamida o‘ynoqilik kasb etdi. Misol sifatida g‘azali qit‘aning 2 baytini keltiramiz:

¹Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. — Т.: Ўкитувчи, 1979. — 72-б.

*Seni yayratar diyorim, sadag‘ang bo‘lay, nigorim,
Qarashing mening madorim, bu tomonga bir qarab qo‘y.*

*Menga yo‘q gunohni ilma, beri kel uzoqqa jilma
Go‘zalim bahona qilma, bu tomonga bir qarab qo‘y¹.*

Shu o‘rinda g‘azalning vaznini belgilovchi asosiy omil sifatida radifning ham ahamiyatini ta’kidlash zarur. G‘azali qit’a uchun tanlangan “*bu tomonga bir qarab qo‘y*” radifi bir vaqtning o‘zida uning vazni tanlanishiga ham sabab bo‘lgan, ya’ni ushbu radif *failotu* (V V — V) *foilotun* (— V — —) taqti’siga mos keladi, boshqacha aytganda, uning *ramali musammani mashkulda* yozilishini taqozo etadi. G‘azali qit’adagi sho‘x ohangni ta’minlagan omillardan yana biri vasl hodisasidir. Ma’lumki, vasl hodisasi bu vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qo‘shib yuborish bo‘lib, natijada, o‘ta cho‘ziq hijo cho‘ziq hijoga, cho‘ziq hijo qisqa hijoga aylanadi². G‘azalning 3-baytiga e’tibor qaratsak:

*Ochiq aytaman bu so‘zni, bilasanmi bu ramuzni,
Uyalib qochirma ko‘zni, bu tomonga bir qarab qo‘y.*

Keltirilgan baytda **ochiq** so‘zidagi “**q**” undoshi vazn talabi bilan o‘zidan keyin kelayotgan **aytaman** so‘zidagi “**ay**” hijosi bilan birikib vasl hosil qiladi va “**qay**” tarzida o‘qiladi. Alaloqibat, ohangda yengillik va o‘ynoqilik hosil bo‘ladi. Habibiyning:

*Hama baxtiyoru erkin ne ajab go‘zal zamona,
Hama dilda bir muhabbat, hama tilda sho‘x tarona³*

matla’si bilan boshlanuvchi g‘azali ham ramalning mashkul tarmog‘ida yaratilgan bo‘lib, Chustiy g‘azali singari yengil ohangda yozilgan. G‘azaldagi aksariyat baytlar *failotu foilotun failotu foilotun* ruknlarida bitilgan. Lekin 2-, 5-, 6-baytlarining birinchi misralari *ramali musammani mashkuli musabbag‘* (V V — V/ — V — — /V V — V/ — V — ~)da yozilganki, yuqorida bu holat haqida aytib o‘tildi.

¹Чустий. Хаётнома. — Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. — Б. 161.


² Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — Б. 44.

³Ҳабибий. Девон. — Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — Б. 283.

Ramal bahriga xos navbatdagi vazn *ramali musammani maxbuni mahzuf* hisoblanadi. Bu davr she'riyatida ushbu vaznga ko'p murojaat qilinmagan. Bu o'lchovda Habibiy uch, Sobir Abdulla ikki va Chustiy 1 ta g'azal bitgan. Habibiyning bu vaznda bitilgan "Ishlamasang" radifli g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*Tishlamoq bormu halol osh ila non, ishlamasang,
Elga keng, tor bo'ladur senga jahon, ishlamasang¹.*

Baytning vazn asosini foilotun aslining solimi (birinchi), maxbun tarmog'i *failotun* (ikkinchi, uchinchi ruknlarda) hamda maxbuni mahzuf tarmog'i *failun* (to'rtinchi ruknlarda) tashkil etadi.



Sobir Abdullaning g'azali qit'asi ham mazkur vaznda bitilganligini kuzatish mumkin. E'tiborli jihati, Sobir Abdulla ham ushbu vazn uchun **"ishlamoq"** fe'li bilan bog'liq radifni asos qilib oladi. Agar Habibiyda yuqorida ko'rganimizdek, radif sifatida **"ishlamasang"** fe'li tanlangan bo'lsa, Sobir Abdullaning she'rida **"ishlar edik"** radifi asos qilib olingan. Bu o'z-o'zidan she'rning *ramal* bahriga xos maxbun tarmog'ida yaratilishini talab qiladi, chunki taqti'dagi so'nggi uch hijo *foilotun* asliy ruknining maxbuni mahzuf (V V —) tarmog'iga xosdir. G'azali qit'a biografik xarakterga ega bo'lib, shoirning o'z zamondoshlari bo'lmish Ulfat, Anisiy, Boki, Mahjur va Habibiylar bilan birgalikdagi ijod onlari, mumtoz adabiyot mutolaasi bilan bog'liq jarayonlarni aks ettiradi. Muallif ilk satrlardanoq Hazrat Navoiyning "Chor devon"ini zo'r muhabbat bilan o'rganishga kirishganlarini ta'kidlar ekan, o'zi va atrofdagilarni go'yo bu ajoyib "gulshan ichra" sayr qilayotgan sayyohlarga o'xshatadi:

¹Хабибий. Девон. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 6143.

*“Chor devon” gulshani ichra kezibon bir necha oy,
Qilibon sayru tamosho, tunu kun ishlar edik.*

*Bilibon lahzada har satrini biz bir maktab,
She’riyat bobida zo’r kasbu funun ishlar edik¹.*

G‘azal matla’sidagi birinchi misra aruz tizimining *ramali musammani maxbuni maqsur* (ruklari va taqti’i: foilotun failotun failotun failon — V — —/VV — —/VV — —/VV ~), qolgan misralar *ramali musammani maxbuni mahzuf* (ruklari va taqti’i: foilotun failotun failotun failun —V — —/VV — —/VV — —/V V —) vaznidalgini belgilash mumkin. Aruzshunos D.Yusupova “*Ramali musammani maxbuni mahzuf (maqsur)* vaznining “birinchi rukni ba’zan, “*failotun*” tarzida ham kelishi mumkin, ya’ni birinchi misra *foilotun* bilan boshlansa, keyingi misra *failotun* bilan boshlanadi (yoki aksincha) va bu holat ramal bahrining *maxbun* tarmog‘idagi barcha vaznlarga tegishlidir”, – deb ta’kidlaydi². Darhaqiqat, yuqoridagi satrlarda birinchi va to‘rtinchi misralarning sadri, ya’ni ilk ruklari foilotun (— V — —) tarmog‘ida bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi misralar failotun (VV — —) bilan boshlanyapti va bu o‘ziga xos ohangni vujudga keltiryapti. Bu holatni Chustiyning shu vaznda yozilgan g‘azali orqali ham kuzatish mumkin:

*Vatanim jonu tanim, jonu tanimdir Vatanim,
Deganim jonu dilim, jonu dilidan deganim³.*

Matla’ baytga e’tibor bersak, vazn asosini *foilotun* aslining maxbun tarmog‘i *failotun* (birinchi, ikkinchi, uchinchi ruklarda) hamda maxbuni mahzuf tarmog‘i *failun* (to‘rtinchi ruklarda) tashkil etgan. G‘azaldagi 2-, 7-, 8-baytlar ham *failotun failotun failotun failun* ohangida o‘qiladi. Faqat g‘azalning 3-, 4-, 5-baytlarida esa birinchi rukn *failotun* emas, balki *foilotun* ya’ni *foilotun failotun failotun failun* tarzida ifodalanadi. Quyida 3-baytni keltiramiz:

Davrada raqs $\widehat{etibon\ mazmu-n+eli\ maftu-n+etar}$,
— V — —/VV — —/ V V — — /V V —

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – Б. 83.

² Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. –Т.: ТА’LIM – MEDIA.2019. – Б. 29.

³Чустий. Хаётнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 63.

Egnida ma'ni haririyu, ramuz gul badanim.

— V — — / V V — — / V V — — / V V —

Ko'rinib turganidek, baytning birinchi ruknida *foilotun* (— V — —) qo'llanilgan. 3-baytda esa vazn talabi bilan *vasl* hodisasi yuzaga kelgan. Baytdagi 1-misrada qo'llanilgan “**raqs**” so'zidagi “**s**” undoshi undan keyin turgan “**e**” hijosiga, “**mazmun**” so'zidagi “**n**” undoshi “**el**” hijosiga, “**maftun**” so'zidagi “**n**” undoshi esa “**e**” hijosiga ulanib, “**se**”, “**nel**”, “**ne**” holida o'qilishi lozim. Shuningdek, g'azalning 6-bayti birinchi misrasidagi dastlabki rukn *foilotun* (— V — —)da, ikkinchi misraning rukni esa *failotun* (V V — —) ko'rinishida kelgan. Quyida 6-baytni taqti' asosida tahlil qilamiz:

G'unchasin zav/qi fikr¹bul/bulini say/ratadi,

— V — — / V V — — / V V — — / V V —

↷

Vatanim sah/nida har bay/ti-m+erur bir/ chamanim.

V V — — / V V — — / V V — — / V V —

Ramali musammani maxbuni maqsur vazni ham XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida Habibiy ijodida (2 o'rinda) qo'llanilgan. Ushbu vazn *ramali musammani maxbuni mahzuf*dan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. Habibiyning “Ayajon” radifli g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Mehringiz tushdi dilu jonim aro, jon ayajon,

O'rgilay jonu dilim sizga fido, jon ayajon².

Baytga e'tibor berilsa, vazn asosi *foilotun* aslining solimi (birinchi), maxbun tarmog'i *failotun* (ikkinchi, uchinchi ruknlarda) hamda maxbuni mahzuf tarmog'i *failon* (to'rtinchi ruknlarda)dan iboratligi oydinlashadi. G'azaldagi toq misralar *foilotun failotun failotun failun* tarzida ifodalanadi. Yuqoridagi baytning 3-rukni qo'llanilgan “**jonim**” so'zidagi “**m**” undoshi undan keyin turgan “**a**” hijosiga ulanib, “**ma**” tarzida talaffuz qilinishi lozim. G'azaldagi *vasl* hodisasi boshqa baytlarda ham uchraydi.

¹ Izoh: aslida, mumtoz aruz qonuniyatlariga ko'ra, “**fikr**” so'zi o'ta cho'ziq, ya'ni bir cho'ziq va bir qisqa hijo tarzida belgilanishi kerak edi. Lekin bu o'rinda vazn talabi bilan qonuniyatdan chekinishga to'g'ri keladi: “**fikr**” so'zini “**fikir**” deb belgilaymiz.

²Хабибий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 249-б.

She'riyatimizdagi yoqimli ohanglardan biri bo'lgan *ramali musammani maqtu'* vazni XX asr ikkinchi yarmi, xususan, Habibiy she'riyatida (3 marta) uchraydi. Shoirning "Salomat keldi" g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*Mahvashim sayri chaman qildi salomat keldi,
Men uchun ayni sharaf ayni saodat keldi¹.*

G'azal *ramali musammani maxbuni maqtu'* (ruknlari va taqti'i: foilotun failotun failotun fa'lun VV— —/VV — —/VV — —/— —)da yozilgan. Mazkur vazn yuqorida keltirilgan *ramali musammani maxbuni mahzuf* hamda *ramali musammani maxbuni maqsurdan* oxirgi ruknning o'zgarishi bilan farqlanadi, ya'ni oxirgi rukn *fa'lun* (— —) tarzida keladi.

Bu davr she'riyatida *ramal* bahrining olti ruknli (musaddas) o'lchovlariga ham murojaat qilingan bo'lib, ular, asosan, ishqiy mavzularda. Oshiqning ichki tug'yonlari tasvirida ijodkorlarga *ramali musaddasi mahzuf* (Habibiy 6 ta, Sobir Abdulla 27 ta), *ramali musaddasi maqsur* (Sobir Abdulla 2 ta), *ramali musaddasi maxbuni mahzuf* (Habibiy 2 ta), *ramali musaddasi maxbuni maqsur* (Habibiy 1 ta) vaznlari qo'l kelgan (2-, 3-, 4-ilovalarga qarang).

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida *hazaj* bahri qo'llanilish jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Habibiyning yuqorida tilga olingan 291 ta g'azalidan 100 ta, Sobir Abdullada 287 tadan 79 ta, Chustiy 621 ta g'azalidan 221 ta, Erkin Vohidovning 108 g'azalidan 30 ta, Abdulla Oripovda 22 tadan 7 ta she'ri mazkur bahr vaznlarida bitilgan. "Hazaj" arabcha so'z bo'lib, "ovozni yoqimli qilish" degan ma'noni ifodalaydi. Zahiriddin Bobur o'zining "Aruz risolasi"da: "Hazaj bahri yuz besh vazn, oltmish bir musta'mal, qirq to'rt muxtara', o'n to'qqiz musta'mali matbu'", — deb ta'kidlaydi². She'riyatimizda *hazaj* bahrining olti, sakkiz, o'n ikki ruknli vaznlari ko'p qo'llanilgan. XX asr ikkinchi yarmi g'azaliyotida, jumladan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodida ham mana shu an'ana davom ettirilgan (1.3-jadvalga qarang).

¹Хабибий. Девон. — Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 306-б.


² Захириддин Мухаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасан. — Т.: Фан, 1971. — 123-б.

Hazaj bahri vaznlari

№	Vazn nomi	Erkin Vohidov	Habibiy	Sobir Abdulla	Chustiy	Abdulla Oripov	Jami
1.	Hazaji musammani solim	15	59	34	152	6	266
2.	Hazaji musammani musabbag‘	1	4	2	8	1	16
3.	Hazaji musammani ashtar	3	3	3	6	-	15
4.	Hazaji musammani axrab	3	3	2	8	-	16
5.	Hazaji musammani ashtari musabbag‘	-	-	1	-	-	1
6.	Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf	6	3	21	15	-	45
7.	Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur	-	1	2	-	-	3
8.	Hazaji musaddasi mahzuf	-	21	14	20	-	55
9.	Hazaji musaddasi maqsur	-	5	3	5	-	13
10.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	1	2	-	-	-	3
11.	Ruboiy vazni	-	1	-	-	-	1
Jami:		30	103	82	214	7	434

Bu vaznlar orasida qo‘llanilish doirasiga ko‘ra *hazaji musammani solim* o‘lchovi XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida yetakchidir. Ushbu o‘lchoy musulmon Sharqi she‘riyatida, asosan, mahzun tuyg‘ularni, falsafiy mushohadalarni bayon qilishga qulay vazn hisoblanadi. A.Hojiahmedov *hazaji musammani solimni* sokin vazn deb ataydi. Uning fikricha, ushbu vazn mumtoz shoirlar ijodida qo‘llanilish jihatidan *ramali musammani mahzuf* vaznidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi¹. Hazaji musammani solimning asosini qisqa hijodan so‘ng uch cho‘ziq hijo kelishiga asoslangan *mafoiylun* aslining *solim* tarmog‘i tashkil qiladi.

¹ Qarang: Xojiahmedov A. Furkat aruzi / Furkat ijodiёti. – T.: Fan, 1990. – B. 83.



Hazaji musammani solim “Alisher Navoiy “Xazoyin ulmaoniy”sida ancha keng qo‘llanib, hazaj bahri vaznlari ichida birinchi o‘rinni egallaydi”¹. Mazkur o‘lchovda Habibiy 59 ta, Sobir Abdulla 34 ta, Chustiy 152 ta, Erkin Vohidov 15 ta, Abdulla Oripov 6 ta g‘azal yaratgan.

Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning hazaj bahridagi g‘azallarida ham muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Erkin Vohidovning “Tong g‘azali”, “Ishq istilosi”, “Dutorim tori ikkidur”, “Muhabbat birla”, “Rashkim”, Abdulla Oripovning esa “Seni yod aylagan chog‘im...”, “Bu ishq sirrin...” kabi ko‘plab g‘azallari *hazaji musammani solim* vaznida yaratilgan.

*Seni yotlar tugul hatto – qilurman rashk o‘zidan ham,
Uzoqroq termulib qolsam bo‘lurman g‘ash ko‘zidan ham*²

deb boshlanuvchi Erkin Vohidovning “Rashkim” g‘azalining lirik qahramoni – oshiq. Bunda oshiq timsolidagi lirik qahramon yorini “yotlar tugul hatto o‘zidan ham rashk qiladi”. Uning rashki shunchalar kuchliki, bunday his uning loladek qizargan yuzlaridan ham “ayon bo‘lgay”.

*Ko‘zim yongay senga nargis – ko‘zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim ayon bo‘lgay yuzimdan ham.*

Shoirning “Ustoz Habibiyga” g‘azalida esa yuqoridagi kabi ishq va oshqlik savdosi bilan bog‘liq kechinmalar emas, balki shoirning 80 yoshli ustoziga samimiy istaklari o‘z aksini topgan.

¹Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 202-б.

² Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” HMAK, 2018. – 207-б.

*Muborak, domla, sakson yosh, umrga bitta bob o'lsin,
Ko'paysin boblaru saksonta boblik bir kitob o'lsin¹.*

Erkin Vohidovning ushbu vaznda munojot g'azali ham yozilgan. G'azal uchun tanlangan “Kechir, yo Rab, kechirdim men” radifining o'zi vaznni belgilashda asos bo'lib xizmat qilgan. Chunki bu yerda “Kechir, yo Rab, kechirdim men” so'zlari *mafoiylun, mafoiylun* asliy ruknlarida yozilishni taqozo qiladi.

*Menga tosh otdi bir johil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men,
U quldir, bandai g'ofil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men².*

G'azalning ohangdorligini ta'minlaydigan yana bir holat bu misralar o'rtasida ichki qofiyaning kelishidir. Xususan, *johil, g'ofil, odil, qotil, moyil, jo qil, doxil, nokomil* kabi so'zlar o'zaro qofiyadoshdir.

Habibiyning “Aylar” radifli g'azalida ham radifning vazn yaratishdagi ahamiyati ko'zga tashlanadi:

*Meni ko'rsa kulib yorim qo'l ushlab sarfarozi aylar,
Mabodo bo'lsa ag'yorim tag'ofil birla nozi aylar³.*

Bu g'azalda shoirning vazn ustida ishlash mahorati yaqqol ko'rinadi. Unda “**aylar**” radifining ridfi asliyli qofiya bilan yonma-yon kelishi she'r ohangining jozibador chiqishiga xizmat qilgan. G'azalning matla' bayti *hazaji musammani solim* vaznida yaratilgan bo'lib, 3-ruknda qo'llanilgan “**qo'l**” so'zidagi “**l**” undoshi undan keyin turgan “**ush**” hijosiga ulanib, “**lush**” tarzida talaffuz qilinishini taqozo etadi. Vasl hodisasiga g'azaldagi boshqa baytlarda ham duch kelish mumkin.

Sobir Abdullaning ushbu o'lchovda yaratilgan “Qildim” radifli g'azalida esa dilraboning gul yuzini ko'rish havasidagi oshiq o'zini “chamanga andalibdek sohib nafas” qilgani xalqona usulda bayon etiladi:

¹ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – 65-б.

² Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2018. – 416-б.


³ Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 95-б.

*Qachonkim gul yuzingni dilrabo, ko 'rmak havas qildim,
Chamanda andalibdek o 'zni men sohib nafas qildim¹.*

Chustiy mazkur o'lchovda yozilgan g'azalida quyosh yor husnini har kuni tomosha qilish uchun sayohat qilishini va uning husniga hyech kim teng kelolmasligini ta'kidlaydi:

*Quyosh husning tomosha qilgali har kun sayohatda,
Jahonda senga hyech kim teng emas husnu malohatda².*

Hazajning xushohang vaznlaridan biri *hazaji musammani ashtar* bo'lib, *mafoiylun* aslining birinchi va uchinchi ruknlarda ashtar tarmog'i: *foilun* (– V –)ga hamda ikkinchi va to'rtinchi ruknlar esa *solimiga* teng.



Hazaji musammani ashtar vazni she'riyatda ancha keng qo'llanilgan. Bu o'lchovdagi dastlabki she'rlar Bobur ijodida kuzatiladi. Shoir o'zining "Aruz risolasi" asarida bu vaznni "musta'mali matbu", ya'ni yoqimli o'lchovlar qatorida sanaydi hamda turkiy she'rga misol tariqasida yagona g'azalini keltiradi³. Zahiriddin Bobur ijodiy an'analari Habibiy (3 ta), Sobir Abdulla (3 ta), Chustiy (5 ta), Erkin Vohidov (3 ta)larning bu vazndagi bir qancha g'azallari yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilgan:

*Ey qaro ko 'zim, ul kun o 'zni oshkor etding,
Ko 'z uchida bir boqding, dil qushin shikor etding⁴.*

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 92-б.

²Чустий. Садокат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 142-б.

³Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 204-б.

⁴Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 169-б.

Yoki:

*Va'daga vafo qildi, cho'lga berdi davron suv,
Vasl ila etib mamnun tashna yerni jonon suv¹.*

Agar e'tibor qaratilsa, ushbu vazn yuqorida tilga olingan boshqa vaznlardan farq qilib, misra ichidagi kichik ritmik pauzaga egaligi ayonlashadi. Ya'ni har ikki rukn (maf'uvlu, mafoiylun)dan so'ng misra ichida kichik to'xtam (pauza) ro'y beradi, bu bevosita so'z bilan ruknning teng kelishi hisobiga amalga oshadi, boshqacha aytganda, barmoq vaznidagi turoq singari misra o'rtasida bo'linish yuz beradi. Erkin Vohidov g'azali asosida bu holatni tekshirsak:

*Yormi ko'zguga boqqan / yorga yo boqar ko'zgu,
Yor yuzini ko'rganda/ suv bo'lib oqar ko'zgu².*

Foilun mafoiylun / foilun mafoiylun.

Navbatdagi vazn *hazaji musammani ashtari musabbag'* bo'lib, XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida unga faqat Sobir Abdulla murojaat qilgan. Uning "Shayx" radifli g'azali ushbu vaznga misol bo'la oladi. Mazkur o'lchov o'zbek mumtoz adabiyotida deyarli qo'llanilmagan. Bu vazn nomi Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Zahiriddin Boburning "Aruz risolasi"da ham keltirilmagan. Fitrat, A.Hojiahmedov va D.Yusupovalar tadqiqotlarida ham mazkur vazn haqida ma'lumot berilmaydi. Faqat tojik olimi U.Toirov "Farhangi istilohoti aro'zi Acham" asarida *hazaj* bahriga to'xtalib, Payrav ijodidan *hazaji musammani ashtari musabbag'* vazniga quyidagi baytni misol sifatida keltiradi:

*Ey barodari choiy, karday maro xandon,
Lek duriyat karda muztarib maro chandon.*

foilun mafoiylun foilun mafoiylun

— V —/V — — —/ —V— /V — — ~³

Hazaji musammani ashtari musabbag' vaznini *hazaji musammani ashtardan* oxirgi hijoning o'ta cho'ziqlik xususiyati ajratib turadi.

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 36-б.

²Вохидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2019. – 107-б.

³Qarang: Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арӯзи Аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991. – 470-б.

Xalq ko ‘zin/ bo ‘yab, yutgay,/ komi naf/si ajdar shayx,
 — V —/ V — — —/ — V — /V — — ~
Xalqa-yu/ zikirsiz ham/ doimo/ “muzaffar” shayx¹.
 — V —/V — — —/ — V — / V — — ~

Hajviy mavzuga bag‘ishlangan ushbu g‘azalda birinchi misradagi “xalq” so‘zi cho‘ziq hijo tarzida qo‘llanilgan. Aslida, mazkur so‘z mumtoz aruz nazariyasiga binoan o‘ta cho‘ziq hijo hisoblanadi.

Mafoiylun aslining axrab va solim tarmog‘i ketma-ket takrorlanishidan hosil bo‘luvchi o‘lchovlardan yana biri *hazaji musammani axrab* (— — V/V — — —/ — — V/ V — — —)dir. “Shashmaqom”ning “Buzruk”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlari taronalari ushbu o‘lchovda yozilgan she’rlarga bastalangan”². Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida ushbu o‘lchov hazaj bahrining yoqimli vaznlari qatorida sanab o‘tilib, misol sifatida quyidagi bayt keltirilgan:

To ko ‘z bila ko ‘nglumni ul g‘amza maqom etmish,
Qonimni halol aylab, uyqumni harom etmish.
Maf’uvlu mafo’iylun maf’uvlu mafo’iylun³.

Habibiyning 3 ta, Sobir Abdullaning 2 ta, Chustiyning 7 ta, Erkin Vohidovning ham 3 ta g‘azali *hazaji musammani axrab* vazniga xos. Masalan, quyidagi matla’ baytlarning birinchi, ikkinchi rukni mafoiylun aslining axrab tarmog‘i – *maf’uvlu* (— — V) va shu aslning solim (V — — —) ko‘rinishidan paydo bo‘lgan:

Gul bo ‘ylarini bog ‘dan keltirgan ey shabboda,
Dildorga noma yozdim, yetkur uni havoda⁴.

Yoki:

Ey Nodirai davron, men lafzi halolingdan,
Sen fikru xayolimda, mahv etma xayolingdan⁵.

Keltirilgan baytlar tahlilida Erkin Vohidov g‘azalining 5-bayti birinchi misrasi va Chustiyning esa 3-bayti birinchi misrasi *hazaji*

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 147-б.

²Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 206-б.

³Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – 46-б.

⁴Вохидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “Sharq” НМАК, 2018. – 65-б.

⁵Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 142-б.

musammani axrabi musabbag' vaznida yozilganligi oydinlashdi. Oxirgi hijoning o'ta cho'ziq (V — — ~)ligi uni boshqa vaznlardan farqlashga asos bo'ladi.

Hazaji musammani axrabi musabbag' Chustiy, Erkin Vohidov qo'llagan *hazaji musammani axrab* o'lchovidagi boshqa she'rlar qofiyalanmaydigan misralarda ancha keng istifoda etilgan. Ta'kidlash joizki, turkiy adabiyotda Alisher Navoiyning *hazaji musammani axrabi musabbag'* vaznida yaratilgan quyidagi g'azali mavjud bo'lib, u "Badoyi' ul-vasat" devonidan o'rin egallagan:

*Bog' ichra sochdi gul oq-u qizil yafroq,
Shah boshig'a andoqkim el oq-u qizil yormoq¹.*
(“Badoyi' ul-vasat”, 317-g'azal)

O'zbek she'riyatida unumli qo'llanilgan *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (ruknlari va taqti'i: maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun — — V/V — — V/V — — V/V — —) “...turkiy aruzning eng xushohang va o'ynoqi ritmga ega bo'lgan musiqiy vaznlaridan biri hisoblanadi”². She'riyatda har bir misradagi 6 ta qisqa va 8 ta cho'ziq hijoning ketma-ket takrorlanib kelishi musiqiy ohangni vujudga keltiradi. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzufda Habibiy 6 ta, Sobir Abdulla 21 ta, Chustiy 15 ta, Erkin Vohidov 6 ta g'azal bitgan.

*Gullar bezanib, bog' ila bo'stonga yarashti,
Toqqanda uni sevgili jononga yarashti³.*

Yoki:

*Qay kunki yozilmish bu muhabbatni kitobi,
Nozi varag'i, ishva xati, g'amzasi bobi⁴.*

Yoki:

*Olamda ayol madhiga doston tugamaydir,
Chun ishq tugamas, ishqdagi armon tugamaydir⁵*

singari matla' baytlar *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida bo'lib, jo'shqin tuyg'ular ifodasi uchun nihoyatda qulaydir. Demak, keltirilgan matla' baytlarning birinchi rukni — *sadr* va *ibtido*

¹Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 томлик. — Т.: Фан, 1990. — 170-б.


²Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 45-б.

³Абдулла Собир. Девон. — Т.: Бадиий адабиёт, 1965. — 61-б.

⁴Чустий. Садокат гуллари. — Т.: Внешторгиздат, 1992. — 76-б.

⁵Воҳидов Э. Танланган асарлар. — Т.: “SHARQ” НМАК, 2018. — 421-б.

mafoiylunning axrab ko‘rinishi – *maf’uvlu* (— — V) rukniga, ikkinchi, uchinchi ruknlari – *hashv* mafoiylunning makfuf tarmog‘i *mafoiylu* (V — — V)ga, oxirgi ruknlar *aruz* hamda *zarb* esa mafoiylunning mahzuf ko‘rinishi – *fauvlun* (V — —)ga teng.



Habibiy (1 ta), Sobir Abdulla (2 ta), Chustiy (2 ta) g‘azaliyotida yuqoridagi vazndan misralardagi hijolarning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanuvchi *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* (ruknlari va taqti‘i: maf’uvlu mafoiylu mafoiylu fauylon — — V/V — — V/V — — V/V — ~) ham uchraydi (2-, 3-, 4-ilovalarga qarang). Ushbu o‘lchov *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vazniga nisbatan she’riyatimizda kam qo‘llanilgan.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri ruboiy vaznlarida g‘azal bitish tamoyilidir. Mumtoz adabiyotda ruboiy vaznlaridan foydalanib, boshqa she’riy janrlarga oid asarlarni yaratish tamoyili oz bo‘lsa ham kuzatiladi. Bu haqda fors-tojik mumtoz shoiri Shams Qays Roziyning (XIII asr) “Al-mo‘jam fi maoyiri ash’or il ajam” asarida ma’lumot berib o‘tilgan. Uning yozishicha, fors-tojik shoirlaridan Farruhiy (XI asr) ruboiy vaznlarida g‘azal, Abutohir Xotuniy (XII asr) esa qasida yaratgan¹. D.Yusupova turkiy (o‘zbek) she’riyatda Jahon Otin Uvaysiy ruboiy vaznlaridan foydalanib, o‘zining 2 dilbar g‘azalini yaratganligini qayd etadi².

Ma’lumki, ruboiy vaznlari aruz tizimidagi eng yoqimli o‘lchovlardan hisoblanadi. Shams Qays Roziyning ta’kidlashicha, “...Xalil (aruz ilmining asoschisi – Sh.R.)dan keyin ixtiro qilingan vaznlar va ijod qilingan she’rlardan hych biri bu kabi (ya’ni ruboiy

¹ Шамс Қайс Розӣ. Ал-мўҷам. – Душанбе: Адиб, 1991. – 104-б.

² Фармонова Д. Увайсий шеърятининг вазн хусусиятлари // Тил ва адабиёт таълими. – Т.: 1996. – №4. – Б. 38-39.

vaznlari kabi – Sh.R.) ko‘ngilga yaqin va tab’ga ma’qul emas¹. Habibiy qalamiga mansub “To‘quvchi qizlar” g‘azali taqti’iga e’tibor qilinsa, uning ruboiy vaznidaliigi ma’lum bo‘ladi:

Bu fabri/kaning ko‘ksi/da chevar qiz/lar,

— — V/ V — — V/V — — — / —

Atlas to‘qimoq fanla/ri yaksar qiz/lar².

— — V/V — — V/V — — — / —

G‘azal, asosan, hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* vaznida bo‘lib, uning ruknlari va taqti’si: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fa’* — — V/ V — — V/V — — — / — tarzidadir. 4-, 6-baytlarining birinchi misralari esa *hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall* (ruknlari va taqti’i: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fo’* — — V/ V — — V / V — — — / ~) o‘lchovida yozilgan. Mazkur vazn yuqoridagi o‘lchovdan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan ajralib turadi. Quyida 4-bayt matnini keltiramiz:

Atlas ka/bi gulchehra,/ muloyim ax/loq,

— — V/ V — — V / V — — — / ~

Bir-birla/ridan dilka/shu dilbar qiz/lar.

— — V/V — — V/ V — — — / —

Shuningdek, 3-baytning birinchi misrasi *hazaji musammani axrabi makfufi ajabb* (ruknlari va taqti’i: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal* — — V/V — — V/V — — V/V—) vaznida bitilgan:

O‘ltursa/ to‘lin oy ka/bi o‘z joyla/rida,

— — V/ V — — V /V — — V/V —

Har birla/ri bir mohi/ munavvar qiz/lar.

— — V/ V — — V /V — — — /—

Qofiyadosh *chevar, yaksar, hulkar, munavvar, dilbar, barobar, daftar, muqarrar* so‘zlari oxiridagi “r” undoshi raviy bo‘lib, mujarrad qofiyani hosil qilgan. Aynan shunday qofiya so‘nggida keluvchi “fa” rukni g‘azalning so‘nggi rukni abtar, g‘azal vaznining esa ajabb tarmog‘ida yaratilishini taqozo qilganki, bu hol tabiiyki, unda istifoda etilgan she’riy o‘lchovning ruboiy vaznlarida bitilishini ta’minlagan.

¹ Шамс Қайс Розӣ. Ал-мўҷам. – Душанбе: Адиб, 1991. – 105-б.

² Ҳабибӣ. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 76-б.

Ko‘rinadiki, o‘z davridayoq mumtoz ijodkorlarning sevimli vaznlaridan hisoblangan ruboiy vaznlari Habibiy she‘riyatida ham mahorat bilan qo‘llanilgan.

Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov g‘azaliyotida hazaj bahrining olti ruknli (musaddas) vaznlari ham salmoqli o‘rin egallaydi. Bayt misralarining uch rukndangina tarkib topishi bu xildagi vaznlarning yengil ohang kasb etishiga zamin yaratgan. Ular mohiyatan va ruknlar tarkibiga ko‘ra hazajning musamman ruknli vaznlariga o‘xshash bo‘lib, faqat hazajning maqbuz tarmog‘i musamman ruknli vaznlarda kuzatilmagan edi. *Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari va taqti‘i: *maf’uvlu mafoilun faulun* — — V /V — V —/V — —) deb ataluvchi ushbu vazn Habibiyga hayot manbai bo‘lgan aziz ne‘mat xususiyatlarini ta’rifu tavsiflashga imkon berdi:

*Har joyda hayot uchun asar suv,
Jondan berur o‘ylasang xabar suv¹.*

Erkin Vohidov esa mazkur vaznda ishq mavzusini tarannum etdi.

*Oshqlik ishi yomon ekan-ku,
Oshiqqa baloyi jon ekan-ku².*

Muttafiq ul-arkon guruhiga mansub *mutaqorib* bahri Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy g‘azaliyotida muhim o‘rin egallaydi. Zero, turkiy she‘riyatdagi ilk badiiy doston Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”i ham aynan shu bahrda yozilgan edi. “Mutaqorib” so‘zi arabcha bo‘lib, “bir-biriga yaqinlashtiruvchi” degan ma‘noni bildiradi³. Bu bahr *fauvlun* (V — —) aslining aynan takroridan hosil bo‘ladi. Lekin mazkur ruknni *hazaj* bahrining tarmog‘i *fauvlun* bilan adashtirmaslik kerak. XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida *mutaqorib* bahrining quyidagi vaznlaridan keng foydalanilgan (1.4-jadvalga qarang).

¹Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 259-б.

² Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2018. – 423-б.

³ Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM – MEDIA, 2019. – 76-б.

Mutaqorib bahri vaznlari


№	Vazn nomi	Habibiy	Sobir Adulla	Chustiy	Jami
1.	Mutaqoribi musammani solim	1	-	-	1
2.	Mutaqoribi musammani mahzuf	-	-	5	5
3.	Mutaqoribi musammani maqsur	-	-	1	1
4.	Mutaqoribi musammani aslam	1	-	10	11
5.	Mutaqoribi musammani aslami musabbagʻ	1	-	-	1
Jami:		3	-	16	19

Oʻzbek sheʼriyatida uncha koʻp qoʻllanilmagan *mutaqoribi musammani solim* vazni asosini fauvlun (V — —) aslining aynan takroridan yuzaga keladi. A.Hojiahmedovning taʼkidlashicha, mazkur vazn dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostoni (soʻnggi boblar)da uchraydi. Keyinchalik Alisher Navoiyning bu vaznda 29 ta gʻazal yaratganligi maʼlum. Navoiydan soʻng ushbu vaznga deyarli murojaat qilinmadi. Keksa aruzshunos shoir Habibiy oʻzining:

*Janobinggʻa ahdi vafo qilmadimmu?
Vafo rasmini jon-bajo qilmadimmu?*

matlaʼli gʻazalida ushbu oʻlchov imkoniyatlarini sinab koʻrgan edi.

Mutaqoribi musammani mahzuf vazni oʻzbek sheʼriyatida keng istifoda etilgan oʻlchovlardandir. Mazkur oʻlchovda yozilgan gʻazalning bir misrasida birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlar *fauvlun* (V — —) aslining solimiga va oxirgi, yaʼni toʻrtinchi rukn fauvlunning mahzuf tarmogʻi *faal* (V —)ga teng.



Chustiyning

*Nido etdi jonim nido ustiga,
Havolanma deydi, havo ustiga¹*

deb boshlanuvchi g‘azal aruz tizimining *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznidaligini ta’kidlash joiz. G‘azalning qolgan baytlarini ham tahlil qilganimizda, ikkinchi va maqta’ baytning birinchi misrasi *mutaqoribi musammani maqsur* (ruknlari va taqti’i: fauvlun fauvlun fauvlun fauvl V — —/V — —/V — —/V ~) vaznidaligi ayon bo‘ldi. Mazkur vazn yuqoridagi o‘lchovdan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanadi:

Rizo ay/la Chustiy,/ elingni/ mudom,

V — —/V — —/ V — —/ V ~

Duo ol,/ duo ol,/ duo us/tiga

V — —/V — —/V — —/V —

Oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilangina yuqoridagidan farqlanuvchi *mutaqoribi musammani maqsur* vaznida Chustiyning ona mehri quyosh haroratiga mengzaluvchi satrlar bilan boshlangan birgina “Oynoma” g‘azali yaratilgan:

*Ona bir quyosh, hurmati osmon,
Quyoshsiz yorishmaydi hargiz jahon².*

Navbatdagi vazn *mutaqoribi musammani aslam* (ruknlari va chizmasi: *fa’lun fauvlun fa’lun fauvlun — — /V — — / — — /V — —*)da Habibiyning 1 ta, Chustiyning 10 ta g‘azali yaratilgan. Ushbu o‘lchov dastlab o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy ijodida uchraydi. *Mutaqoribi musammani aslam* vaznidagi she’rlar “Buzruk” taronalari, “Soqiynomai mo‘g‘ulchai Buzruk”, “Rost”, “Dugoh”, “Segoh” maqomlari taronalari bilan kuylab kelingan³.

*O’lkamda yetishdi xil yigitlar,
G’ayratli, yetuk dadil yigitlar⁴.*

¹Чустий. Садокат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 21-б.

²Чустий. Садокат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 11-б.

³Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 99-б.

⁴Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 67-б.

Yoki:

*Himmatli polvon kimlarga o‘xshar,
Osmon chirog‘i hulkarga o‘xshar¹.*

Baytlarga e’tibor berilsa, 2 ta qisqa va 8 ta cho‘ziq hijoning ketma-ket takrorlanishi o‘ziga xos musiqiy ohangni hosil qilganligi seziladi. Matla’lardagi birinchi va uchinchi rukn fauvlun aslining aslam tarmog‘i *fa’lun* (— —)ga, ikkinchi hamda to‘rtinchi rukni esa solimi (V — —)ga teng.

Habibiy o‘z she’rlarida mavjud vaznlarni qo‘llash bilan cheklanib qolmadi, balki o‘zi ham o‘zbek aruzini yangi vaznlar bilan boyitdi. Shunday o‘lchovlardan biri *mutaqoribi musammani aslami musabbag*‘dir. Mazkur o‘lchov yuqoridagi vazndan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanadi. *Mutaqoribi musammani aslami musabbag*‘ vazni o‘zbek she’riyatida Habibiygacha qo‘llanilmagan. Faqat Zahiriddin Boburgina “Aruz risolasi”da unga xos xususiyatlarni nazariy jihatidan asoslab, bitta forsiy va turkiy baytni misol qilib keltiradi:

*Zulfu sochingning hajrida ey jon,
Ko‘nglum mushavvash holim parishon.
Fa’lun fa’uvlun fa’lun fa’uvlon².*

Ona Vatan go‘zalliklari va qalbi she’riyatga oshno yurtdoshlari sifatlarini Habibiy shu vaznda satrlarga tizadi³:

*Gul-gul ochilgan bo‘stonlarim bor,
Shirin, g‘azalxon xushxonlarim bor⁴.*

Bu davr she’riyatida *rajaz* bahri ham o‘ziga xos o‘ringa ega. “Rajaz” arabcha so‘z bo‘lib, “tezlik”, “shitob”, “iztirob” ma’nolarini bildiradi⁵. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ushbu bahrning 13 vazni haqida fikr yuritib, ularning har biriga misollar keltiradi. Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida *rajaz* bahrining 63 vaznini o‘z ichiga olishi

¹Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 206-б.

²Бобур З.М. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасан. – Т.: Фан, 1971. – Б. 36.

³Изох: Ҳабибийнинг “Бор” радибли ғазалини А.Ҳожиаҳмедов мутақориб мусаммани аслам вазида ёзилган деб кўрсатади. Qarang: Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 99.

⁴Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б.64.


⁵Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019. – Б.72.

haqida soʻzlab, ulardan 32 tasi mustaʼmal, 31 tasi muxtaraʼ, oʻn vazn mustaʼmali matbuʼ ekanini taʼkidlaydi¹. XX asr ikkinchi yarmi gʻazaliyotida rajaz bahrining quyidagi oʻlchovlari uchraydi (1.5-jadvalga qarang).

1.5-jadval

Rajaz bahri vaznlari					
№	Vazn nomi	Habibiy	Sobir Adulla	Chustiy	Jami
1.	Rajazi musammani solim	7	3	5	15
2.	Rajazi musammani muzol	1	-	-	1
3.	Rajazi musammani matviyi maxbun	1	-	1	2
4.	Rajazi musaddasi solim	1	-	-	1
Jami:		10	3	6	19

Mazkur bahrning *rajazi musammani solim* (— — V —/ — — V —/ — — V —/ — — V —) vazni sheʼriyatimizda keng qoʻllanilgan boʻlib, qator mumtoz kuylarga mos tushadi. Rajazi musammani solim vazni *mustafʼilun* (— — V —) aslining aynan takroridan hosil boʻladi.



Habibiyning 7 ta, Sobir Abdullaning 3, Chustiyning 5 ta gʻazali mazkur oʻlchovda yozilgan. Habibiyning

*Keldi nasimi navbahor, oʻlkamni pardozi ayladi,
Sahroni qildi lolazor, yer koʻksini soz ayladi²*

¹Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 105.

²Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 298-б.

singari bayt bilan boshlanuvchi bahor mavzusidagi bir gʻazali shu vaznda bitilgan. Shu oʻrinda gʻazal tajziya sanʼatining goʻzal namunasi hamdir. Chunki baytda misralar teng ikki ritmik boʻlakka ajratilgan, birinchi boʻlak uchinchi boʻlak bilan, ikkinchi boʻlak toʻrtinchi boʻlak bilan qofiyalangan. Bu esa mumtoz adabiyotda tajziya sanʼati deyiladi. “Tajziya arabcha boʻlak-boʻlak qilmoq degan maʼnoni anglatadi. Bu sanʼat asosan gʻazal yoki qasidaning birinchi bayti, yaʼni matlaʼsida qoʻllaniladi”¹. Habibiy tajziya sanʼatini qoʻllashda baytdagi ichki qofiyaga suyan: “navbahor-lolazor”, “pardo-z-soz” kabi.

XX asr ikkinchi yarmi, xususan, Habibiy ijodida sheʼriyatimizda kam qoʻllanilgan *rajazi musammani muzol* vazni mavjud. Mumtoz adabiyotshunoslikda mazkur vazn Ogahiy ijodida uchraydi. Habibiyning

*Toʻlgan, yetilgan oy kabi bazmimga oʻynab keldi yor,
Boʻldi tilaklar jo-bajo bazm ahli erdi intizor*²

bayti bilan boshlanuvchi gʻazali yorga bagʻishlangan boʻlib, *rajazi musammani muzol* (ruknlari va taqtiʼi: mustafʼilun mustafʼilun mustafʼilun mustafʼilon — — V —/ — — V —/ — — V —/ — — V ~)da yozilgan. Demak, mazkur vazn *rajazi musammani solim* oʻlchovidan oxirgi hijoning oʻta choʻziq, yaʼni *mustafʼilon* (— — V ~) ekanligi bilan farqlanadi.

Alisher Navoiy, Ogahiy kabi shoirlar ijodida ancha keng oʻrin egallagan *razaji musammani matviyi maxbun* (— VV — /V — V —/ — VV — /V — V —) vazniga Habibiyning “Qizlarim”, Chustiyning “Tilagim” radifli gʻazallarini misol qilish mumkin.

*Ilmu hunarga intilur bir necha ona qizlarim,
Chin onayu singil kabi balki dugona qizlarim*³.

Yoki:

*Jonga jafolar izlama, izla umr baqosini,
Elga yomonlik aylama, aylagil el rizosini*⁴

kabi matlaʼ baytlar bilan boshlanuvchi gʻazallarda birinchi va uchinchi ruknlar mustafʼilun aslining matviy tarmogʻi *muftailun* (— V V —)ga,

¹ Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. — T.: Akademnashr, 2020. — 245-6.

²Хабибий. Ўша манба. — 54-б.

³Хабибий. Ўша манба. — 203-б.

⁴Чустий. Хаётнома. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. — 156-б.

ikkinchi va to‘rtinchi ruknlari esa shu aslning maxbun tarmog‘i *mafoilun* (V – V–)ga tengligi ayon bo‘ladi. Baytda 8 ta qisqa va cho‘ziq hijolar ketma-ketligi takrorlanadi.

Habibiy she‘riyatimizga 12 ruknli *rajazi musaddasi solim* vaznini olib kirib, vazn kashfiyotchisi darajasiga ko‘tarildi. Turkiy she‘riyatda ushbu vazn qo‘llanilmagan. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da mazkur vaznning nazariy asoslari haqida fikr yuritib, misol tarzida bir bayt keltiradi. Bu bayt quyidagichadir:

*Hajringda, ey gulchehra, behad zorman,
Qon ichra g‘arqa gul kibi afgorman.
Mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun* ¹.

Alisher Navoiy va boshqa turkiy shoirlar devonida ushbu vaznda bitilgan she‘r mavjud emas. Rajazi musaddasi solim vazni ko‘proq fors-tojik she‘riyatida istifoda etilib, Abdurauf Fitrat “Aruz haqida” kitobida “bu vaznning arab-eron aruzida ismi “*rajazi-musaddasi-solim*” bo‘lib, uch daf‘a “Mustaf’ilun” bilan o‘lchaydilar” ², – deb aytib o‘tadi. Habibiyning

*Bir ko‘rsatib g‘amza bilan diydor o‘zing,
Lutfu karam qilding kulib izhor o‘zing* ³

matla‘li g‘azali aynan rajazi musaddasi solim (ruknlari va taqti‘i: *mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun* — — V —/ — — V —/ — — V —) vaznida bitilib, unda dilbar yor madh etiladi. Unda yorning diydoriga yetish, uning gulshan ichra eng go‘zal gul, sayr uchun bo‘ston, mehrbon ekanligi ta‘riflanadi. Agar “kulbam sari qo‘ysang qadam, boshim ko‘kka yetadi” deb, “dilrabolik ko‘p yarashgan dildor o‘zing”, deya g‘azalni yakunlaydi.

Deyarli qo‘llanilmagan navbatdagi vazn *mutadoriki musammani muzol* sanalib, u haqda Shayx Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy asarlarida ma‘lumot keltirilmaydi. Ularning she‘riyatida ham ushbu vazn qo‘llanilmaganligi tadqiqotlardan ma‘lum. Lekin Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi”da ushbu vaznga to‘xtalib, bir bayt misol keltiradi:

¹Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – 53-б.

²Фитрат А. Аруз ҳақида. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Болтабоев Ҳ. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 50-б.

³Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 185-б.

*Rashki xurshidi anvar bo'lubtur yuzung,
Fitnai shahru kishvar bo'lubtur ko'zung.
Fo'ilun fo'ilun fo'ilun fo'ilon¹.*

Zahiriddin Boburning “Devon”idagi she’rlarni o’rganganimizda, ushbu matla’li g’azalni uchramatdik. Demak, Zahiriddin Bobur namuna sifatida keltirgan ushbu baytni shunchaki mazkur vazn uchun tajriba sifatida yozilgan degan taxminga kelish mumkin. Fors-tojik she’riyatida esa bu vaznning qo’llanilganligi haqida U.Toirovning “Farhangi istilohoti aro’zi Acham” asarida ma’lumot beriladi². Olim *mutadoriki musammani muzol*ni mutadorik bahrining bir o’lchovi sifatida sanar ekan, unga Sadriddin Ayniyning bir baytini misol sifatida keltiradi. Bu holat ushbu vazn fors-tojik she’riyatida iste’molda bo’lganligini ko’rsatadi. Tahlillar Habibiy ijodida ushbu vazn mavjudligini ko’rsatdi. Shoir *mutadoriki musammani muzol* vaznini turkiy she’riyatga olib kirgan ijodkor sifatida e’tirofqa loyiq:

*Yashnadi hur diyor, bag’ri keng paxtazor,
Sof havo, beg’ubor xalqimiz baxtiyor³.*

Komili musammani solim vazni aruz tizimidagi murakkab vaznlardan bo’lib, ijodkordan katta iste’dod, qunt va mahorat talab qiladi. Ruknlardagi qisqa hijolar soni cho’ziq hijolardan ortiq bo’lishi, har bir rukn tarkibida 5 tadan hijoning uchrashi ma’lum bir murakkablikni vujudga keltiradi. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida komil bahrining *komili musammani solim* (VV — V —/VV — V —/VV — V —/VV — V —) vazni ruknlari berilgan. “Aruz risolasi”da esa ushbu bahr 22 vaznni o’z ichiga olishi ta’kidlanib, barcha vaznlarga misollar keltirilgan⁴.

Olimlarning ta’kidlashlaricha, ushbu o’lchovni birinchi marta o’zbek she’riyatida Alisher Navoiy qo’llagan⁵. “Aruzi Sayfiy” muallifining yozishicha, *komil* bahri (tavi, madid, basit, vofir bahlari singari) arablarga xos she’riy o’lchov bo’lib, ajam va turkiy shoirlar ushbu bahlarda kam she’r ayturlar, shu sababdanki bu bahrda aytilgan

¹Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. — Т.: Фан, 1971. — 40-б.

² Qarang: Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арӯзи Аҷам. — Душанбе: Маориф, 1991. — С. 560.

³Ҳабибий. Девон. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 103-б.

⁴Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. — Т.: Фан, 1971. — 40-б.

⁵Qarang: Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 105-б. Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. — Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019. — 184-б.

she'r nomatbu' (ta'bga ma'qul emas)dir¹. Habibiyning "Nazar aylasang" g'azali ana shu murakkablikni his etish va bu yo'lda ijod etish mahoratini namoyon etadi:

*Naxush o'rgilay karaming bila qarasang kulib nazar aylasang,
Yuragimdagi g'arazingni ham bilayin nadur, xabar aylasang*².

Ushbu g'azal mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan an'anaviy ishq mavzusida. Habibiy yorning "karaming bila qarasang, kulib nazar aylasang, yuragingdagi g'arazingni ham bilayin" deb, yorning undan xabar olmasligidan noliydi. Matla'dagi **nazar**, **xabar** so'zlarining oxiridagi "r" undoshi raviy bo'lib, matla'ning zarbi esa (*aylasang*) radif vazifasida qo'llanilgan. Qofiya uchun tanlangan mumtoz qofiyaning mujarrad turi tasodifiy bo'lmasdan, g'azalning komil bahrida yaratilishini ta'minlagan. Darhaqiqat, qofiya uchun "*nazar aylasang, xabar aylasang...*" birikmalari boshqa vaznga tushmaydi.

Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Abdulla Oripov g'azallarining vazn xususiyatlari tahlilida ayrim g'azallar aruz vazni emas, balki barmoq vazni qoidalariga mos tushishi kuzatildi. Shuning uchun biz barmoq vaznida yaratilgan she'rlarni bu tarkibga qo'shmadik.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lyaptiki, XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida muttafiqlik ul-arkon bahrlaridan oltitasi muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan bo'lib, ulardan *mutaqoribi musammani aslami musabbag'*, *mutadoriki musammani muzol*, *komili musammani solim* vaznlari mumtoz adabiyotimizda keng istifoda etilmagan.

1.2-§. Davr g'azaliyotida muxtalif ul-arkon bahrlarining istifoda etilish darajasi

Turkiy (o'zbek) she'riyatda shunday bahrlar uchraydiki, ular avvalgi faslda o'rganilgan bahrlardan tarkiban farqlanadi. Aruzshunoslik ilmida bunday bahrlarni *muxtalif ul-arkon* bahrlar deb atash qabul qilingan³. Chunki ularning tarkibida ikki xil asliy rukn ishtirok etadi. Masalan, *mafoiylun* va *foilotun* asliy ruknlari birgalikda bir misrada

¹Юсупова Д. Бедил ғазалларининг вазн хусусиятлари / Илмий анжуман материаллари. – Т.: 2007. – Б. 177.

²Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 176-б.

³Qarang: Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хазина. 1996. – Б. 147; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – Б. 24.

kelsa, *muzori*’ bahri hosil bo’ladi. Demak, “turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar o‘zining asl ustuniga, ya’ni rukniga ega bo‘lmaganligi uchun ular ikki xil asliy ruknlarning birikuvidan hosil bo‘ladi”¹. O‘rganishlarimiz asosida XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida *muxtalif ul-arkon* bahrlarining 5 tasi qo‘llanilganligi ma’lum bo‘ldi (5-ilovaga qarang).

Muxtalif ul-arkon bahrlarining dastlabkisi *muzori*’ bo‘lib, arabcha “o‘xshash”, “monand” degan ma’noni bildiradi. Bu bahr birinchi va uchinchi ruknlardagi zihoflari jihatidan hazaj bahriga o‘xshaganligi uchun shunday atalgan. Mazkur bahrning 12 vazni haqida dastlab Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida ma’lumot beriladi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi”da esa bu haqda shunday fikrlar keltiriladi: “Muzori’ bahri yigirma to‘rt vazn: o‘n to‘qqiz musta’mal, besh muxtara’, yeti vazn musta’mali matbu”². Aruzshunos A. Hojiahmedov o‘zbek she’riyatida ushbu bahrning faqat musamman, ya’ni sakkiz ruknli o‘lchovlaridan keng foydalanilganligini ta’kidlaydi. Olimlarimizning kuzatishlarida, muzori’ bahrining solim shakli mumtoz she’riyatimizda istifoda etilmagan³. Biz ham Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov g‘azallarini tahlil qilganimizda mazkur ko‘rinishga duch kelmadik. Ular g‘azaliyotida *muzori*’ bahrining sakkiz ruknli quyidagi 4 ta vazni keng qo‘llanilgan (2.1-jadvalga qarang):

2.1-jadval

Muzori’ bahri vaznlari

№	Vazn nomi	Erkin Vohidov	Habibiy	Sobir Adulla	Chustiy	Jami
1.	Muzoriyi musammani axrab	7	7	14	18	46
2.	Muzoriyi musammani axrabi musabbag‘	-	2	1	1	4
3.	Muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf	-	6	-	1	7
4.	Muzoriyi musammani axrabi makfufi maqsur	-	1	-	-	1
Jami:		7	16	15	18	65

“Muzori’ bahri vaznlari Alisher Navoiyga maqbul bo‘lgan o‘lchovlardan sanaladi. Uning “Xazoyinul-maoniy”sidan jami 105 she’r, jumladan, 81 g‘azal, 11 qit’a, 6 muammo va 7 fard ushbu o‘lchov

¹Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA’LIM-MEDIA, 2019. – B. 21.

²Захириддин Мухаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасан. – Т.: Фан, 1971. – Б. 146.

³Qarang: Хожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998; Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA’LIM-MEDIA, 2019.

turlarida bitilgan”¹. XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida *muzori’* bahrining dastlabki o’lchovi *muzoriyi musammani axrab* (ruknlari va taqti’i: *maf’uvlu foilotun maf’uvlu foilotun — — V/ — V — —/ — — V/ — V — —*) hisoblanib, Habibiy ushbu o’lchovda 7 ta, Sobir Abdulla 14 ta, Chustiy 18 ta, Erkin Vohidov 7 ta g’azal yaratgan. Mazkur o’lchov turi dastlab “Qisasi Rabg’uziy”da uchraydi. Ushbu vaznda yaratilgan g’azallar vositasida muhabbat, yor vasfi g’oyatda jozibador ifodalanadi.

Erkin Vohidovning *muzoriyi musammani axrab* vaznida bitilgan “G’uncha” nomli g’azali chiroyli tashbehlarga boyligi va mubolag’alarning turfaligi bilan ajralib turadi. G’azal kompozitsiyasi oshiq ko’ngil va endigina yuz ochish, ochilish arafasida turgan “g’uncha” bilan o’zaro muloqot asosiga qurilgan. Chunki chin oshiq-largina, ko’ngli ilohiy muhabbat nuri ila yo’g’irilgan mahbub va mahbubalargina ko’zlari tushgan har narsadan mo’jiza topa oladilar. G’azalning birinchi bayti o’ziga yaqin do’sti habib izlab yurgan oshiq ko’ngilning ishq gulzorida “barg ostidan muloyim boqib turgan g’uncha”ga darddosh, sirdosh bo’lish istagini bayon qilish bilan boshlanadi:

*Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g’uncha,
Ne sirni saqlagaysan
Bag’ring nechun tuguncha*².

Ushbu vazn ham misra ichidagi kichik ritmik pauzaga ega va shu jihatidan u *hazaj* bahrining shu yo’nalishdagi vaznlarini eslatadi.

*Ustozim ey Navoiy,/ baxti baqo muborak,
Besh yuz yil oxirida/ ko’rding vafo muborak*³.

Yoki:

*Ming she’ru ramzu mazmun/ Farg’ona dilbariga,
Kamdur yozilsa har kun/ Farg’ona dilbariga*⁴.

¹Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 77-б.

²Вохидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. Биринчи жилд. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2000. – 118-б.

³Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 180-б.

⁴Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 28-б.

Navbatdagi vazn *muzoriyi musammani axrabi musabbag* (ruknlari va taqti'i: *maf'uvlu foilotun maf'uvlu foiliyyon* — — V/ — V — —/ — — V/ — V — ~) bo'lib, aruzshunos olimlarning ta'kidlashicha, ushbu o'lchovni turkiy she'riyatda ilk bor Alisher Navoiy qo'llagan¹. Ungacha bu o'lchov o'zbek shoirlari, xususan, Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiy va Lutfiylar ijodida istifoda etilmagan.

*Ruxsori jonibida ul xoli anbar olud,
O't go'shasida go'yo anbar tushub qilur dud.*
(“Navodir ush-shabob”, 126-g'azal).

O'rganishlarimiz natijasida Habibiy (2 ta), Sobir Abdulla (1 ta), Chustiy (1 ta) ijodida ham *muzoriyi musammani axrabi musabbag* vaznida yozilgan g'azal mavjudligiga guvoh bo'ldik (2-, 3-, 4-ilovalarga qarang). Chustiyning “Shirin-shakar yoz” g'azali “Sadoqat gullari” devonidan o'rin olgan. Quyida g'azal baytidan namuna keltiramiz.

*Yoz ayladi yozilgach daftarni har safar yoz,
Yoz mo'jizotlaridan shoir shirin asar yoz*².

Chustiyning mazkur vazndagi g'azalini takrir san'atining go'zal namunasi deb baholash mumkin. G'azalda bir baytning o'zida ham *muzoriyi musammani axrab*, ham *muzoriyi musammani axrabi musabbag* vazni qo'llanilgan. Masalan, 2-baytning birinchi misrasi *muzoriyi musammani axrab* vaznidadir.

Hushbo'y/ handalaklar/ chog' ayla/di dimog'ni,
— — V/ — V — — / — — V/ — V — —
Gurs ketdi/ ta'rifindan/ elga sha/kar, xabar yoz.
— — V/ — V — — / — — V/ — V — ~

Aruz tizimi qoidalariga binoan, qator kelgan undoshlar, odatda, o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. Lekin baytning ikkinchi misrasidagi “*gurs*” so'zi oddiy cho'ziq hijo tarzida qo'llanilgan. Bunday holat ushbu davr she'riyati uchun xos ekanligini muttafiq ul-arkon bahrlari misolida ham kuzatdik.

¹Qarang: Ходжахмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. — Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019.

²Чустий. Садокат гуллари. — Т.: Внешторгиздат, 1992. — 63-б.

Navbatdagi *muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf* (ruknlari va taqti'i: maf'uvlu foilotu mafoiylu foilun — — V/ — V — V/V — — V/ — V —) vaznining tarkibi birinchi ruknda mafoiylun aslining axrab tarmog'i — *maf'uvlu* (— — V)ga va uchinchi ruknda makfuf tarmog'i — *mafoiylu* (— V — V)ga, ikkinchi ruknda foilotun aslining makfuf tarmog'i — *foilotu* (V — — V)ga, to'rtinchi ruknda esa shu aslning mahzuf tarmog'i — *foilun* (— V —)ga teng¹. Hijolarning shu xilda takrorlanishi mumtoz musiqa ohanglariga mos tushadi. Mazkur o'lchovda Habibiyning 6 ta, Chustiyning esa 1 ta g'azali yozilgan. Habibiyning "Shirin so'z" g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*Topgay shirin so'zing bila har benavo navo,
Bo'lgay yana el oldida ko'p noraso raso*².

Bayt *muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida bo'lib, so'zning ta'siri va qudratini ifodalaydi. Hajman 7 baytni tashkil etadi. G'azaldagi 2-, 3-baytlarning birinchi misrasi *muzoriyi musammani axrabi makfufi maqsur* vazniga tegishlidir.

Bu qoma/tu jamolu/ tarovatki/senda bor,
— — V/—V — V/V— —V/ — V ~
Ko'rdim qo/shingda bir ne/cha nozik a/do ado.
— — V/ — V — V/ V— —V/ — V —

Demak, Habibiyning "Shirin so'z" g'azalida ham *muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf*, ham *muzoriyi musammani axrabi makfufi maqsur* vaznidagi misralarni ko'rish mumkin.

Chustiyning mazkur vaznda yaratilgan g'azali "Sadoqat gullari" devonidan o'rin olgan. Lekin Habibiynikidan farqli o'laroq, bu g'azal faqat bitta o'lchovda bitilgan. G'azal quyidagicha boshlanadi:

Har kimni/ siylasa e/li u kam bo'larmidi,
— — V/— V — V/V — — V/ — V —
*El sevma/gan azizu/ mukarram bo'larmidi*³.
— — V/— V — V/V — — V/ — V —

¹Хожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — Б. 79.

²Ҳабибий. Девон. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — Б. 19.

³Чустий. Садокат гуллари. — Т.: Внешторгиздат, 1992. — Б. 86.

Gʻazal baytlarida oʻta choʻziq hijo deyarli uchramasligi uning ohangi yengil boʻlishiga, baytlarini oʻqish qiyinchilik tugʻdirmasligiga olib kelgan.

Navbatdagi vazn *muzoriyi musammani axrabi makfufi maqsur* (ruknlari va taqtiʻi: mafʻuvlu foilotu mafoiylu foilon — — V/ — V — V/V — — V/ — V ~) boʻlib, yuqoridagi vazndan oxirgi hijoning oʻta choʻziqligi jihatidan farqlanadi. Habibiyning birgina “Latif” radifli gʻazali mazkur oʻlchovda bitilgan. Gʻazal hajman 7 baytdan iborat boʻlib, mumtoz adabiyotda anʻanaviy bahor fasli tavsifiga bagʻishlangan. Gʻazal quyidagi matlaʼ bilan boshlanadi:

*Keldi bahoru boʻldi yoqimli havo latif,
Boʻlmas havo buning kabi rohat fizo latif¹.*

Bayt matlaʼsi aruz tizimining *muzoriyi musammani axrabi makfufi maqsur* vaznidan iborat. Gʻazalning qofiyalanmaydigan toq misralari *muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzufdadir*. Ikkinchi baytga eʼtibor bersak:

Mayli, ta/bassu-m+ayla/di gulshanda/gʻ**unchalar**,
— — V/ — V — V/V — — V/ — V —
Esgay bo/shida har ke/cha bodi sa/**bo latif**.
— — V/ — V — V/ V — — V/ — V ~

Muxtalif ul-arkon guruhidagi navbatdagi bahr *mujtass* boʻlib, Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzining “Muxtasar” asarida “mujtass bahri yigirma vazn, oʻn bir mustaʼmal, toʻqqiz muxtaraʼ, olti mustaʼmali matbuʼ”, – deb taʼkidlaydi va har bir vaznga misollar keltiradi². Habibiy, Sobir Abdulla va Chustiylar oʻz ijodlarida ushbu bahr imkoniyatlarini atroflicha oʻrganib, oʻz gʻazallarida uning 4 oʻlchovini unumli qoʻlladilar (2.2-jadvalga qarang).

¹Хабибий. Девон. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 147-б.

² Захириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – 181-б.

Mujtass bahri vaznlari

№	Vazn nomi	Habibiy	Sobir Abdulla	Chustiy	Jami
1.	Mujtassi musammani maxbuni mahzuf	8	4	6	18
2.	Mujtassi musammani maxbuni maqsur	1	1	-	2
3.	Mujtassi musammani maxbuni maqtu'	3	8	6	17
4.	Mujtassi musammani maxbuni maqtu'yi musabbag'	-	3	1	4
Jami:		12	16	13	41

Mujtass bahrining dastlabki o'lchovi *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* vazni *mustaf'ilun* (— — V —) aslining maxbun tarmog'i *mafoilun* (V — V —), foilotun (— V — —) aslining maxbun tarmog'i *failotun* (VV — —) va maxbuni mahzuf tarmog'i *failun* (VV —)ning ketma-ket takroridan hosil bo'ladi. Ushbu vazn she'riyatimizda keng qo'llangan o'lchovlardan biri hisoblanadi. Habibiyning 6 ta, Sobir Abdullaning 4 ta, Chustiyning 8 ta g'azali mazkur vaznda yaratilgan.

*O'zim bu yerdayu ko'ngrim borib ko'rib keladir,
Qoshingda vasling ila termulib turib keladir*¹.

Yoki:

*Ko'zim qarosi to'kilsin bo'lakka boqsa agar,
Ko'zing qarosiga boqmoqdan u uloqsa agar*².

Yoki:

*Dilingni bossa g'ubor, senga dilrabo qaramas,
Kishilar, oyina gar bo'lsa bejilo, qaramas*³.

Ushbu vaznning ritmik imkoniyati yor vasfi, uning go'zalligi ta'rifiga mos kelishini yuqoridagi misollar ham ko'rsatadi. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy g'azallarini tahlil qilish jarayonida Chustiy g'azalining 3-bayti birinchi misrasi *mujtassi musammani maxbuni maqsur* (V — V —/VV — —/V — V —/VV ~), 7-bayti birinchi misrasi esa *mujtassi musammani maxbuni maqtu'* vaznida yozilganligi ma'lum

¹Хабибий. Девон. — Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 93-б.

²Абдулла Собир. Девон. — Т.: Бадиий адабиёт, 1965. — 127-б.

³Чустий. Садоқат гуллари. — Т.: Внешторгиздат, 1992. — 226-б.

bo‘ldi. *Mujtassi musammani maqsur* yuqorida keltirilgan vazndan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlansa, *mujtassi musammani maqtu*‘da esa oxirgi rukn *foilotun* aslining maqtu‘ tarmog‘i *fa’lunga* o‘zgaradi. Quyida g‘azalning 3-bayti matnini keltiramiz:

Yo ‘lingda sen/ adashib, jo ‘y/rilib bo ‘lib/ sar(i)son,
 V — V —/ V V — —/ V — V —/ V V ~
Balo yo ‘li/ga chiqib qol/masang, balo/ qaramas.
 V — V —/ V V — —/ V — V —/ V V ~

Ko‘rinadiki, oxirgi yopiq bo‘g‘inning tarkibida “o” cho‘ziq unlisi ishtirok etib, o‘ta cho‘ziq hijoni hosil qilgan, shuning uchun misraning vazni o‘zgargan. Quyida g‘azalning 7-bayti matnini ham keltiramiz:

Buzishni is/tama tinchlik/ binosi-n, + ey/ nodon,
 V — V —/ V V — —/ V — V —/ — —
G‘azab bilan/ qara-r + el se/nga, muddao/ qaramas.
 V — V —/ V V — —/ V — V —/ V V —

Ushbu baytning birinchi misrasi *mujtassi musammani maxbuni maqtu*‘ (ruklari va taqti‘i: mafoilun failotun mafoilun fa’lun V — V —/ V V — —/ V — V —/ — —)da, ikkinchi misrasi *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* (ruklari va taqti‘i: mafoilun failotun mafoilun failun V — V —/ V V — —/ V — V —/ V V —) vaznidaliği ma’lum bo‘ldi. Ko‘rilayotgan baytning birinchi misrasida “**binosin**” so‘zidagi “**n**” undoshini undan keyin keladigan “**ey**” hijosiga ulab “**ney**”, ikkinchi misrada “**qarar**” so‘zidagi “**r**” undoshini undan keyin keladigan “**el**” hijosiga bog‘lab “**rel**” tarzida talaffuz qilish zarur bo‘ladi. Chustiy devonidagi g‘azalda esa har ikki vazn xususiyatlarini ko‘rish mumkin.

Navbatdagi *munsarih* bahrining “...asosan ikki vaznidangina foydalanilgan bo‘lib, ular *mustaf’ilun* aslining matviy tarmog‘i — *muftailun*, *maf’ulotu* aslining matviyi makshuf tarmog‘i — *foilon* hamda matviyi mavquf tarmog‘i — *foilonlarga* asoslanadi¹. Munsarih vazni XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida faqat Habibiy, Charxiy ijodida uchraydi.

¹Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 83-б.

Mazkur bahrda Habibiyning 2 ta g‘azali ma’lum. Ular *munsarihi musammani matviyi makshuf* (ruknlari va taqti’i: *muftailun foilun muftailun foilun* —VV —/ —V —/ —VV —/ —V —) vaznida yozilgan.

*Jonu jahonim o‘zing, **nomu** nishonim o‘zing,*

***Nomu** nishonim o‘zing, **jonu** jahonim o‘zing¹.*

Baytdagi ikki so‘z birikmasining o‘rni almashib takrorlanishi natijasida ma’noga ahamiyat kuchaytirilgan. Adabiyot tarixida tardu aks san’atining birikmalarda aks etishi mumtoz ijodkorlarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur ijodida uchraydi.

Habibiyning mazkur vaznga mansub “Inson” g‘azali ham mavjud. Unda pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. G‘azal matla’sida inson yo yaxshi hunar egasi yo tolibi ilm bo‘lishi ta’kidlanadi:

*Bo‘lmagay inson aziz yaxshi hunar qilmasa,
Yoki o‘qib ilm ila o‘zni guhar qilmasa².*

Matla’ baytning 1-(sadr, ibtido) va 3-(hashv) misrasi mustaf’ilun aslining matviy tarmog‘i – *muftailun* (— VV—)ga, 2-(hashv) va 3-(aruz, zarb) misralari esa maf’ulotu aslining matviyi makshuf tarmog‘i – *foilun* (— V—) ga barobardir. Faqat ikkinchi misradagi ilm so‘zi oddiy cho‘ziq hijo (—)ni aks ettirgan. Aslida, mumtoz aruz qoidalariga ko‘ra, “ilm” so‘zi o‘ta cho‘ziq hijo (V—)ni ifodalashi lozim edi. Bunday holatlar XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida ko‘p uchrashini yuqorida ta’kidladik.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida Habibiy, Charxiy, Erkin Vohidov she’riyatida g‘azali musajja’ning go‘zal namunalari ham uchraydi. G‘azali musajja’ ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo‘llaniladigan g‘azal turi hisoblanadi. G‘azalning mazkur turi Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Boborahim Mashrab ijodida keng qo‘llanilgan. Zahiriddin Bobur g‘azali musajja’ning rivojida Alisher Navoiyning alohida o‘rni borligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Alisher Navoiyning g‘azali masajja’lari, asosan, hazaj bahrida yozilganligini Zahiriddin Bobur alohida aytib o‘tadi³. Mumtoz adabiyotda g‘azali musajja’lar, asosan, ramal, hazaj, rajaz bahrlarida yozilgan. Charxiy esa g‘azali musajja’ni munsarih bahrining *munsarihi musammani matviyi*

¹Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 188-б.

²Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 274-б.

³ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014. – 114-б.

mavquf (ruknlari va taqti'i: *muftailun foilun muftailun foilon –VV–/–V–/–VV–/–V~*) vaznida yaratdi. Bu adabiyot tarixida kuzatilmagan holatlardan biridir. Uning “Gulbahor” radifli gʻazali musajja'si

*Bogʻu chaman yashnatib, keldi bahor, gulbahor,
Mehnat elin shod etib, keldi bahor, gulbahor,*

*Mavsumi gʻoyat **goʻzal**, suvlari qandu **asal**,
Shavqi-la aylab **jadal**, keldi bahor, gulbahor¹*

singari bayt bilan boshlanadi. Shoir fasllar kelinchagi bahorning kelishini goʻzal tashbehlar bilan tasvirlaydi. Bahor bogʻlarni, chamanlarni yashnatib, mehnatkash elni shod etib kirib keldi. Bunda bahor gʻoyat goʻzal mavsumi bilan, suvlarining qandu asalligi bilan, oʻzining shavqi bilan jadal kirib kelganligi taʼkidlanadi.

Charxiy gʻazalning birinchi baytida tajziya sanʼatidan ham mahorat bilan foydalanadi. Shoir bayt misralarining har birini teng ikki boʻlakka ajratib, boʻlaklarni bir-biri bilan qofiyalagan.

*Bogʻu chaman **yashnatib**, keldi **bahor, gulbahor**,
Mehnat elin **shod etib**, keldi **bahor, gulbahor** .*

Ushbu davr sheʼriyatida *sariʼ* bahri ham istifoda etilgan boʻlib, u arabcha “shitob bilan yuruvchi, tez” maʼnolarni anglatadi². Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida sariʼ bahrining beshta vazni haqida maʼlumot beradi va misol keltiradi³. Zahiriddin Bobur “Aruz risolasi”da “sariʼ bahri oʻn yetti vazn: oʻn bir mustaʼmal, olti muxtaraʼ, bir vazn mustaʼmali matbuʼ” ekanligiga urgʻu bergan holda ularga bittadan namuna keltiradi⁴. Aruzshunos A.Hojiahmedov “sariʼning vaznlari koʻp boʻlsa ham, ulardan ikkitasigina sheʼriyatimizdan oʻrin olgan boʻlib, bular sariʼi musaddasi matviyi makshuf hamda sariʼi musaddasi matviyi mavquf oʻlchovlaridir”⁵, – deb taʼkidlaydi. Olimlarimiz tadqiqotlarida mazkur bahrning solim koʻrinishi turkiy sheʼriyatda uchramasligi haqida

¹ Чархий А. Қиёлаб ўтди. – Т.: Akademnashr, 2010. – 107-б.

² Yusupova D. Aruz vazni qoidalar va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. – 87-б.

³ Qarang: Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – 62-б.

⁴ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – 193-б.

⁵ Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 151-б.

fikr yuritiladi¹. Ushbu bahr XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida ham Habibiy, Charxiy ijodida uchraydi.

Sari' bahrining dastlabki vazni *sari'i musaddasi matviyi makshuf*dir. Habibiyning bu vazndagi 2 ta g'azali aniqlangan. Uning "Topar" radifli g'azali quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Har nimakim istasa inson topar,
Topgali qasd aylasa imkon topar*².

Matla' baytdan *sari'i musaddasi matviyi makshuf* (ruknlari va taqti'i: muftailun muftailun foilun — V V — / — V V — /— V —) vazni xususiyatlari ayon bo'ladi. Baytning sadr, ibtido, hashvi mustaf'ilun aslining matviy tarmog'i — *muftailun* (— V V —)ga, aruz, zarbi esa maf'ulotu aslining matviyi makshuf tarmog'i — *foilun* (— V —)ga teng. Ushbu vazndan oxirgi hijosi o'ta cho'ziqligi bilan farqlanuvchi *sari'i musaddasi matviyi mavquf* vazni she'riyatimizda ancha keng ommalashgan o'lchovlar sirasiga kiradi. Habibiyning qo'sh qofiyali g'azali bunga misol bo'la oladi.

*Elga qilib lutfini in'om om,
Ayladi ko'p dilni dilorom rom*³.

Misralardagi har ikki juft qofiya ridfi asliy ("o")dan yasalgan murdaf qofiya bo'lganligi uchun ohangning ta'sirchanligi oshgan.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatidagi navbatdagi bahr *xafif* bo'lib, u Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiylar ijodida qo'llanilgan. Xafif so'zi arabcha bo'lib, "yengil" degan ma'noni bildiradi⁴. O'zbek she'riyatida dastlab Alisher Navoiy xafif bahrining 5 ta o'lchovi haqida aytib o'tadi. Keyinchalik Zahiriddin Bobur "Aruz risolasi"da mazkur bahrning 22 vazni borligiga to'xtaladi: "to'qqiztasi musta'mal, o'n uchtasi muxtara', uch vazn musta'mali matbu'"⁵.

A.Hojiahmedov, D.Yusupovalarning ta'kidlashlaricha, turkiy she'riyatda xafif bahrining, asosan, musaddas ruknli vaznlari uchraydi. Xafif bahrining dastlabki vazni *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* bo'lib,

¹Qarang: Xojiaxmedov A. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 151-б.; Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. — Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. — 87-б.

²Хабибий. Девон. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 69-б.

³Хабибий. Кўрсатилган манба. — 216-б.

⁴Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. — Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. — 91-б.

⁵Захириддин Мухаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. — Т.: Фан, 1971. — 196-б.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida Sobir Abdulla g'azaliyotida uchraydi.

*Boshla ko 'nglim murodga, birga olib,
Birga elt, maqsadim yo 'lingga solib¹.*

Bayt aruz tizimining *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* (ruknlari va taqti'i: *foilotun mafoilun failun* — V — — /V — V — /VV —) vaznidalagi ko'rinadi. Mazkur vaznda sadr va ibtidoda foilotun aslining solim (— V — —) ko'rinishi, hashv ruknlarida mustaf'ilun aslining maxbun tarmog'i *mafoilun* (V — V —) hamda aruz va zarb ruknlarida foilotun aslining maxbuni mahzuf tarmog'i *failun* (VV —) ishtirok etgan. *Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf o'lchovida* ayrim o'rinlardasadr va ibtidoda *foilotunaslining* solim (— V — —) ko'rinishi o'rniga uning maxbun tarmog'i *failotun* (VV — —) qo'llanilishi mumkin.

Navbatdagi *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'* vazni adabiyotshunoslikda faol vaznlaridan bo'lib, ruknlari va taqti'si bir misrada

Foilotun mafoilun fa'lun

— V — — / V — V — / — —

singaridir. Adabiyotshunos olimlar A.Hojiahmedov, D.Yusupovalar mazkur vaznni Lutfiy, H.Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Munis, Uvaysiy ijodida uchrashini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu vazn "Sab'ai sayyor" dostonida qo'llanilgan she'riy o'lchovlardan biridir. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida esa Charxiy ijodida yozilgan "Davrimiz", "Vafo sendan" kabi g'azallari *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'* vaznidadir. Shoirning "Vafo sendan" g'azali quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Arzihol menda-n+u, vafo sendan,
— V — — /V — V — / — —

Kutmadim jab-r+ila jafo sendan².
— V — — /V — V — / — —

Keltirilgan bayt xafif bahrining *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'* (ruknlari va taqti'i: *foilotun mafoilun fa'lun* — V — — /V — V — / — —) o'lchovida, an'anaviy ishq mavzusida bitilgan. Charxiy yordan jabr

¹Абдулла Собир. Девон. — Т.: Бадий адабиёт, 1965. — 29-б.

²Чархий А. Қиёлаб ўтди. — Т.: Akademyashr, 2010. — 81-б.

ham, jafo ham kutmasligini, faqat undan vafo kutayotganligini aytadi. Baytda qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra turi mujarrad qofiya qo'llanilgan. Bunda **“vafo”** va **“jafo”** so'zlaridagi **“o”** raviysi cho'ziq unli bo'lib, qofiyadosh so'zlar shu harf bilan yakunlangan.

Keltirilgan baytda *mendan* so'zidagi *“n”* undoshi vazn talabi bilan o'zidan keyin kelayotgan *“u”* hijosi bilan, *jabr* so'zidagi *“r”* undoshi esa o'zidan keyin kelayotgan *ila* so'zidagi *“i”* hijosi bilan birikib, vasl hosil qiladi. Birinchi misradagi hijo *“nu”*, ikkinchi misradagi hijo esa *“ri”* tarzida o'qiladi.

Aruzshunoslar e'tiborini tortgan *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'* o'lchovida *“she”*rlar juda kam yozilgan. Yirik shoirlar ijodida matla'si shu o'lchovda bo'lgan bir-ikki g'azal yoki qit'a uchraydi ¹. *“Shuningdek, ushbu vazn “Sab'ai sayyor” dostonida qo'llanilgan she'riy o'lchovlardan biridir”*². Habibiyning *“Asror”* g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*O'ralib bunda yurmog'im nochor,
Uzilib anda bormog'im dushvor*³.

Bayt *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'* (ruklari va taqti'i: *failotun mafoilun fa'lon* V V — —/V—V—/— ~) vaznini o'zida aks ettirib, *muvozana* san'atining yuksak namunasi hisoblanadi. Baytda bir qarashda barcha so'zlar o'zaro qofiyadosh bo'lib ko'rinsa-da, aslida so'zlar tengligi va o'zaro vazndoshligi hisobiga ritm hosil qilingan. Baytdagi *o'ralib-uzilib* so'zlari mumtoz poetika talablariga ko'ra, qofiyadosh so'z hisoblanmaydi, chunki ularning o'zagida raviy harfi ishtirok etmayapti.

She'r 7 baytdan iborat. G'azalning toq misralarida *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'* (ruklari va taqti'i: *failotun mafoilun fa'lun* V V — —/V—V— /— —) o'lchovi namoyon bo'ladi. Anglashiladiki, baytning birinchi misrasi *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'*da bo'lsa, ikkinchi misrasi *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'*da ifodalangan. Vaznlar tarkibi jihatidan bir-biriga yaqin. Faqat oxirgi hijo *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'*da foilotun aslining *maqtu'* tarmog'i *fa'lun* (— —)ga, *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'*da esa foilotun aslining *maqtu'* tarmog'i *fa'lon*(— ~)ga tengdir. Shu xususiyati bilan har ikki o'lchov bitta g'azal tarkibida birgalikda istifoda qilinishi mumkin.

¹Ходжахмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарк, 1998. — 181-б.

²Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. — Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. — 94-б.

³Хабибий. Девон. — Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 71-б.

XX asr ikkinchi yarmi gʻazaliyotida qoʻllanilgan vaznlarni Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodi misolida oʻrganish asnosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Lirik janr sheʼriy asar vaznini belgilovchi asosiy omildir. Shoir muayyan vazndan foydalanishda uning qaysi janr uchun moʻljallanayotganini nazarda tutishi zarur, chunki mumtoz janrlarning oʻz vazn doirasi mavjud.

2. Gʻazal Sharq adabiyotining eng koʻp tarqalgan janri boʻlib, XX asr ikkinchi yarmi sheʼriyatida ham muvaffaqiyat bilan qoʻllanildi. Bu davr shoirlari gʻazalning janr imkoniyatlarini yanada kengaytirdilar. Chustiy, Sobir Abdulla ijodida gʻazali qitʼaning betakror namunalari vujudga keldi.

3. Bu davr sheʼriyatida mumtoz adabiyotimiz tarixida mavjud boʻlmagan gʻazali muvashshahi taʼrix janri ham istifoda etilgan. Chustiy qalamiga mansub ushbu sheʼr Asgʻarali Charxiyning 70 yoshga toʻlishi munosabati bilan yozilgan. Unda gʻazal shakli asos boʻlib xizmat qilgani holda har bir misraning muvashshah xususiyatlarini oʻzida jamlaganligini va soʻnggi baytlarda abjad hisobi asosida taʼrix mavjudligini koʻramiz. Shuningdek, Asgʻarali Charxiy qaytarma bahr nomi bilan yana bir gʻazal turini isteʼmolga olib kirdi. Bunday gʻazal turida baytlarning oxirigacha tasdir va tasbiʼ sanʼatlari oʻrin almashinib qoʻllaniladi. Ushbu hodisa XX asrning ikkinchi yarmiga kelib gʻazal janrining imkoniyatlari yanada kengayganligini va takomiliga yetganligini koʻrsatadi.

4. Ushbu davr gʻazallari aruz tizimining 11 bahrida yaratilgan boʻlib, muttafiqlar ul-arkonning bahrlari ular orasida salmoqli oʻrinni tashkil etadi.

5. Bu davr sheʼriyatida muttafiqlar ul-arkon bahrlariga *ramal*, *hazaj*, *rajaz*, *mutaqorib*, *mutadorik*, *komil* singari bahrlar kiradi. Ular orasida qoʻllanilish xususiyatiga koʻra yetakchisi *ramal* bahridir.

6. Ramal bahri vaznlarida Habibiyning 293 ta gʻazalidan 176 tasi, Sobir Abdullaning 287 ta gʻazalidan 143 ta, Chustiyning 621 ta gʻazalidan 238 tasi, Erkin Vohidovning 108 ta gʻazalidan 71 tasi, Abdulla Oripovning 23 ta gʻazalidan 15 tasi yozilgan. Mazkur oʻlchovlar orasida barcha ijodkor gʻazaliyotida *ramali musammani mahzuf* yetakchilik qiladi. Habibiy, Sobir Abdulla, Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning ushbu vaznda bitilgan gʻazallari, asosan, ishqiy mavzuda boʻlsa, Chustiy bu oʻlchovda axloqiy-taʼlimiy mavzudagi gʻazallarini bitdi.

7. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida *hazaj* bahrining 11 vazni qo'llanilgan bo'lib, ular orasida *hazaji musammani solim* vazni qo'llanilish jihatidan asosiy o'rinda turadi. Unda Habibiy 59 ta, Sobir Abdulla 34 ta, Chustiy 152 ta, Erkin Vohidov 30 ta, Abdulla Oripov 7 ta g'azal bitgan. Shuningdek, Sobir Abdulla ijodida ilk bor *hazaji musammani ashtari musabbag'* vazni qo'llanildi.

8. Bu davr shoirlari aruz tizimidan foydalanishda mumtoz ijodkorlardan ta'sirlanish bilan birga turkiy aruzni yangi vaznlar bilan boyitdilar. Habibiy turkiy (o'zbek) she'riyatida o'zidan oldingi ijodkorlar ijodida uchramaydigan *rajazi musaddasi solim, mutadoriki musammani muzol, mutaqoribi musammani aslami musabbag'* vaznini turkiy she'riyatga olib kirdi va ularda betakror g'azallar bitdi.

9. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov o'z g'azallari bilan turkiy aruz imkoniyatlarini kengaytirdilar. Barmoq she'r tizimiga xos turoq va so'z mutanosibligi tamoyilining aruz tizimiga olib kirilishi aruzning zamonaviy she'riyatda mustahkam o'rinishiga zamin hozirladi.

10. Bu davr shoirlari, xususan, Habibiy ruboiy vaznlaridan foydalanish tamoyilini Uvaysiydan so'ng turkiy g'azalchilikda muvaffaqiyat bilan davom ettirdi. Uning "To'quvchi qizlar" g'azalida *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* vazni qo'llanildi.

11. Arab adabiyotiga xos bo'lgan komil bahrida g'azal bitilishi Habibiy badiiy mahoratini ko'rsatuvchi omillardandir.

12. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida *muxtalif ul-arkon* bahrlaridan *muzori', mujtass, munsarihi, sari', xafif* singari bahrlar ham qo'llanilgan bo'lib, ular orasida *muzori'* qo'llanilish darajasiga ko'ra yetakchi o'rinda turadi.

13. *Munsarihi* va *sari'* bahrlari ham Habibiy, Charxiy g'azaliyotida istifoda etilgan bo'lib, shoir *munsarihi matviyi makshufda* 2 ta, *sari'i musaddasi matviyi makshufda* 1 ta, *sari'i musaddasi matviyi mavqufda* 1 ta g'azal bitgan.

14. Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy ijodida xafif bahrining musaddas vaznlari uchraydi. Ular *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* (Sobir Abdullada 1 ta), *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'* (Charxiy 2 ta), *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'* (Habibiyda 1 ta) vaznlari bo'lib, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Chustiy ushbu vaznlarda g'azal bitmagan.

II BOB. BAYTLI SHE’R SHAKLLARINING VAZN XUSUSIYATLARI

2.1-§. Mustazod, qasidada vazn va mazmun mutanosibligi

Mumtoz adabiyotimizda yaratilgan she'rlarni shartli ravishda baytli va bandli she'rlarga ajratish mumkin. Baytli she'r shakllarining asosini bayt (arabcha "uy") tashkil qiladi, bunday she'rlarga g'azal, mustazod, qasida, qit'a, ruboiy, tuyuq, fard, muammo, lug'z (chiston), ta'rix kabi janrlar kiradi¹. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida ham ushbu janrlarning aksariyati muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan (6-ilovaga qarang). Biz ishimizning avvalgi bobida g'azal janri xususiyatlariga to'xtalib o'tganimiz uchun ushbu faslda mustazod va qasida janrlari haqida fikr yuritamiz.

Mustazod janri turkiy (o‘zbek) adabiyotda keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida unga shunday ta’rif beriladi: “Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bog‘lab bitib, aning misraidin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani “mustazod” derlar ermish”². Fikrning asosi sifatida quyidagi misol keltiriladi:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli.
Maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun
mazhar sanga ashyo.
maf'uvlu fauvlun
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
olam sanga mavlo.

Demak, mustazod “Navoiy ta’rifidan ma’lum bo‘ladiki, *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (maf’uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun) vaznida yozilib, oxirgi ikki rukniga mos to‘la bo‘lmagan misra orttirilar ekan. Mana shuning uchun bu janr bir-biri bilan aloqada bo‘lgan orttirma ma’nosini beruvchi mustazod (ziyodalilik) deb

¹ Qarang: Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019.

²Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи жилд. – Т.: Фан, 2000. – 71-б.

ataladi”¹. Shuningdek, nazariy adabiyotlarda mustazodning kelib chiqishi, xususiyatlari, gʻazalga aloqasi toʻgʻrisida bir qancha nazariy fikrlar mavjud². Xususan, Ye.E.Bertels “Mustazod nisbatan kamroq uchraydigan formalardandir. Bunday sheʼrlar quyidagicha tuziladi: oʻz shakliga ega boʻlgan odatdagi gʻazalga har misra oxirida qofiyadan soʻng qoʻsh vaznning bir yoki ikki stopasi qoʻshiladi. U yangi qofiyaga ega boʻlib, gʻazalning umumiy qonuniyatiga boʻysunadi. Bu oʻziga xos naqoratdir”, – deb taʼkidlaydi³. Umuman, mustazod uchun asos – zamin boʻlgan janr gʻazaldir. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matlaʼ va maqtaʼ, taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin gʻazal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda mustazod faqat hazaj bahrida yoziladi⁴.

Turkiy adabiyotda mustazodning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodida uchraydi⁵. Aruzshunos A.Hojiahmedov oʻzining “Oʻzbek aruzi lugʻati” kitobida turkiy (oʻzbek) sheʼriyatida yaratilgan mustazodlarning toʻrtta vaznda:

- 1) *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod*;
- 2) *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi maqsuri mustazod*;
- 3) *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mahzufi mustazod*;
- 4) *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazodda* yaratilganini taʼkidlaydi va misollar keltiradi. D.Yusupova mustazod janri haqida toʻxtalib, uning *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* vaznida yozilishi, lekin ayrim paytda vazn talabi bilan *fauvlun rukni mafoiylga* oʻzgarishi mumkinligini qayd etadi.

XIX asrga kelib, mustazod janrining vaznida va shaklida oʻzgarishlar sodir boʻla boshlanganligi oydinlashadi. Mustazodlar anʼanaviy *hazaj* bahri vaznlarida emas, balki *ramal*, *mujtass* bahri vaznlarida yozildi, qoʻshimcha misralar orttirildi. Mumtoz adabiyotda ramal bahri vaznlaridagi mustazodlar dastlab Xiva adabiy muhiti vakili Munis ijodida uchraydi. Munisning ushbu bahr vaznlarida yozilgan

¹ Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 110-б.

²Qarang: Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Oʻzbekiston, 2014; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TAʼLIM-MEDIA, 2019.

³Бертельс Е. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965. – С. 88.

⁴Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TAʼLIM-MEDIA, 2019. – 131-б.

⁵Qarang: Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Oʻzbekiston, 2014. – 124-б.; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TAʼLIM-MEDIA, 2019. – 131-б.

mustazodi haqida Anvar Hojiahmedov “O‘zbek aruzi lug‘ati” kitobida ma’lumot beradi. Shoirning kashfiyoti bo‘lgan mazkur mustazod

*Oy yuzung hajrida har tun qilib ohim sharari
avji gardung ‘a suud,
Yoqadur anjuma oy sham ‘ini oning asari
charxni bil anga dud*

matla’si bilan boshlanadi¹. U ramal bahrining *ramali musammani maxbuni mahzufi maqsuri mustazod* (ruknlari va chizmasi: failotun failotun failun failotun failon — V — —/ V V — —/ V V — —/ V V —/ — V — —/ V V ~) vaznida yozilgan. Mazkur vaznning birinchi rukni ba’zan, “failotun” tarzida ham kelishi mumkin. Mustazodning asosiy misralari **sharari**, **asari**... tarzida, qo‘shimcha misralari esa **suud**, **dud**... singari mumtoz mustazodlarga xos qofiyangan. She’r an’anaviy ishq mavzusidadir. Matla’ning mazmuni: Oy yuzingning hajrida men tortgan ohimning uchquni har tun osmonga ko‘tariladi. O‘sha uchqunning asari yulduzlarga oyning sham’ini yoqib beradi, tungi osmondagi xiralik esa o‘sha sham’dan paydo bo‘lgan tutundir.

Mustazodni, ayniqsa, shakl jihatidan takomillashtirishda Ogahiyning xizmati katta. Ogahiy o‘z mustazodida asosiy misraga qo‘shilib keladigan yarim misrani juftlashtirdi:

*Ey yor, sango ushbu jahon bog ‘i aro gul
bir oshiqi hayron,
diydoringa shaydo.
Bir sheftadur kokuli mushkiniga sunbul,
ham holi parishon,
ham boshida savdo”².*

Ogahiy devonida noan’anaviy vaznda yozilgan mustazod ham uchraydi. Mustazod quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Vah menga qahr etib ul qotili bebok sanam
beradur zahri jafo.
Iltifot aylabon ag ‘yorg ‘a tinmay bir dam
tutadir jomi vafo¹.*

¹ Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Тошкент: Шарқ, 1998. — 118 -б.

² Жумахўжа Н. Бир суруд бор эканким... Огаҳийда // Ёшлик, 1997. — №1. — Б. 46.

Bir qarashda ushbu mustazod ham an'anaviy mustazodlar sirasiga kiradiganday tuyuladi. Chunki undagi har misradan keyin qo'shimcha misralarning orttirilishi mustazod degan shaklga muvofiqlik paydo qiladi. Jadval asosida shoirning mustazodini tahlil qilamiz.

2.1. Jadval.

Vah	me	nga	qah	r+e	ti	b+ul	qo	ti	li	be	bo	k(i)	sa	nam
—	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—
								be	ra	dur	zah	ri	ja	fo
								—	V	—	—	V	V	—
Il	ti	fo	t+ay	la	bo	n+ag'	yo	r(i)	g'a	tin	may	bi	r(i)	dam
—	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—
								tu	ta	dur	jo	mu	ja	fo
								—	V	—	—	V	V	—

Baytning taqti'sidan ayon bo'ladiki, mustazod ramal bahrining *ramali musammani maxbuni mahzufi mustazod* (ruknlari va chizmasi: *foilotun failotun failotun failun foilotun failun* — V — —/ V V — —/ V V — —/ V V — —/ — V — —/ V V —) vaznidadir. Ogahiy mustazodining vazni Munis mustazodidan so'nggi hijoning cho'ziqligi (—) bilan farq qiladi.

Ogahiyning ushbu mustazodi noan'anaviy vaznda bo'lishidan qat'iy nazar, u ham boshqa mustazodlar singari oshiqona mavzudadir. Unda yorning bevafoqligi, oshiqqa jabr qilishi, ag'yorga iltifot ko'rsatishi an'anaviy motiv asosida keltiriladi. Shuningdek, oshiqning unga vafodor ekanligi go'zal tashbehlar hamda badiiy san'atlar vositasida bayon qilinadi. Mustazodning asosiy misralari *sanam, dam, olam, kam...* tarzida, qo'shimcha misralari esa *jafo, vafo, samo, ado...* singari qofiyalanishini ko'ramiz. E'tibor berilsa, mustazodning bu shaklda qofiyalanishi qofiyaning mujarrad turiga kiradi. Lekin shoir g'oyat mahorat bilan mujarrad qofiyaning ikki turidan ustalik bilan foydalanadi. Ya'ni asosiy misralarda mujarrad qofiyaning qisqa unli tavjihatli turi qo'llanilgan bo'lsa, qo'shimcha misralarda mujarrad qofiyaning cho'ziq unli ya'ni alif (ʼ) raviy hisoblangan turi qo'llanilgan. Shu tariqa mujarrad qofiyaning har ikki turi birin-ketin o'rin almashgan holda ya'ni *sanam, jafo, dam, vafo...* tarzida qo'llanilishi ohangning jozibali chiqishiga olib kelgan. Mazkur mustazod garchi boshqa vaznda

¹ Мухаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. II жилд. Девон. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 83 - б.

yoʻzilgan boʻlsa ham, badiiy mahoratning yuksak namunasi sifatida eʼtirof etishga loyiq mustazod hisoblanadi.

XX asr ikkinchi yarmi sheʼriyatida ham mumtoz anʼanalar asosida mustazodlar yaratilgan. Xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidov ijodida *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* (Sobir Abdulla 2 ta, Chustiy 1 ta, Charxiy 3 ta, Erkin Vohidov 2 ta), *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod* (Habibiy 2 ta, Sobir Abdulla 1 ta, Chustiy 2 ta, Charxiy 1 ta) hamda noanʼnaviy *mujtassi musammani maxbuni mahzufi mustazod* (Charxiy 1 ta) vaznlarida bitilgan mustazodlar mavjud.

Mustazod yaratishdagi dastlabki vazn *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* boʻlib, bu oʻlchovda Sobir Abdullaning “Bu muncha goʻzal bitmish ekan, yaxshi qiyofat”, “Bang” hamda Chustiyning “Yoqutmi? Anor donasimu?”, Erkin Vohidovning “Oʻzimga savol”, “Koʻklam mustazodi” kabi mustazodlari bitilgan. Ular orasida Erkin Vohidovning mustazodlari mumtoz janr imkoniyatlarini saqlab qolgani bilan diqqatga sazovordir. Shoir oʻz ijodida bu janrga u qadar koʻp murojaat qilmagan boʻlsa-da, ammo uning mustazodlari mazmunan boyligi, xalqona uslubda bitilganligi bilan bu janr taraqqiyotini boyitishga oʻz hissasini qoʻshdi.

Gul fasli/da soz oldi/ yana ahli/ navolar,

— — V/ V — — V/V — — V/ V — —

kuy boshla/di yona.

— — V/V — —

Ne tongki, goʻzal boʻldi jahon, yeru samolar,

har tilda tarona¹.

Yoki:

Umring oʻtadir, sen na xayollar suradirsan,

begʻam yuradirsan?

Maqsad ne, farogʻat koʻyiga yoʻl buradirsan,

kimga joʻradirsan?²

Mustazod aruz tizimining *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* (ruknlari va taqtiʼi: mafʼuvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun mafʼuvlu fauvlun — — V/V — — V/V — — V/V — — / — —

¹ Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” HMAK, 2018. – 299-б.

² Воҳидов Э. Кўрсатилган манба. – Б. 405.

V/V — —) vaznida yozilgan. Diqqat qilinsa, uning asosini *hazaji musamani axrabi makfufi mahzuf* vazni tashkil qilganligi kuzatiladi. Farqi shundaki, misradan so‘ng birinchi va to‘rtinchi ruknlar – *maf’uvlu* va *fauvlun* ruknlari orttirilgan.

Sobir Abdullaning “Bu muncha go‘zal bitmish ekan, yaxshi qiyofat” deb boshlanuvchi mustazodi “Devon”ga kiritilgan bo‘lib, Asakadagi bog‘lar, diqqatga sazovor joylar, uning so‘lim tabiatiga bag‘ishlangan. Mustazod quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Bu muncha go ‘zal bitmi-sh+ekan, yaxshi qiyofat,
— — V/ V — — V/ V — — V/V — —
dil dog ‘iga ofat,
— — V/V — —
To ‘ymas unga ko ‘z, telmura yuz, bir necha soat,
eng yaxshi sayohat¹.

Aslida mustazod “misralari birinchi baytda misra bilan misra va orttirma qismlar o‘zaro qofiyalanadi. Keyingi baytlarning ikkinchi misralari matla’dagi misralar bilan, orttirilgan qismlar esa orttirmalar bilan qofiyalanib boradi ². Lekin yuqorida keltirilgan mustazod qofiyalariga bu qoidani qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki uning qofiyalanish tizimi mumtoz mustazod qofiyalanishidan tubdan farq qiladi. Mustazod matla’sidagi bayt misralari a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Bunday qofiyalanish adabiyot tarixida kuzatilmaganligi sababli uni XX asr ikkinchi yarmi she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri deyish mumkin. Shuningdek, “Bang” mustazodi ham ushbu vaznda yaratilgan bo‘lib, hajviy xarakterga ega:

Har kimki, bo ‘lur go ‘shanishin, takyachi, bangi,
vasvasligi yangi.
Uldir shu jahon odamining latta, lavangi,
jonsiz garangi³.

Mustazod dastlab Sobir Abdullaning “Gulshan” to‘plamiga, keyinchalik esa Ya.Qurbon, M.Abdurahmonova, R.Abdullayevalar

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – Б. 138.

²Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014. – Б. 124.

³Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б 79.

tomonidan saralangan to‘rt jildlik “Asarlar”ning ikkinchi jildiga kiritilgan.

Chustiyning yor jamoli vasfiga bag‘ishlangan “Yoqutmi? Anor donasimu?” mustazodi ham *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustahzod* vazniga xos. U mumtoz mustazodlardan *a-a-a-a, b-b-b-b, v-v-v-v...* tarzida qofiyalanishi bilan o‘zgachadir. Shoirning mahorati shundaki, mustazod misralarida mujarrad qofiyaning birinchi ko‘rinishidan mohirona foydalangan. Bunda “**musaffo**”, “**tasanno**”, “**dunyo**” va “**barno**” so‘zlaridagi “**o**” raviysi cho‘ziq unli bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar shu harf bilan yakunlangan.

Inson ko‘zining ko‘zgusi ey qalbi musaffo,

— — V / V — — V / V — — V / V — —

husningga tasanno!

— — V / V — —

Oshiqlar o‘tib ko‘rmadi hattoki bu dunyo,

bir sen kabi barno!¹

Charxiyning mazkur vaznda yozilgan “Navoiyga” mustazodi Hazrat Alisher Navoiyga bag‘ishlangan. Shoir mustazodda Alisher Navoiyni “Maqbuli zamonsiz” deb ta’rifini keltiradi.

↪
Ey muhtara-m+ustoz Navoiy, dilu jonsiz,

— — V / V — — V / V — — V / V — —

maqbuli zamonsiz,

— — V / V — —

Siz ko‘zi ko‘ngillarga ziyobaxsh chu xurshid,

olamga ayonsiz².

Mustazod davomida Charxiy domla Hazrat Navoiyni “Ijodi aruz silsilai ma’nida yakto” deya ta’riflaydi:

Tahsinlar o‘qir nazm ila nasringizga olam,

qoyil hamma dunyo,

Ijodi aruz silsilai ma’nida yakto

xush ta’bi ravonsiz.

¹ Чустий. Хаётнома. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. — Б. 332.

² Чархий. Қиёлаб ўтди: шеърлар. — Т.: Akademnashr, 2010. — 127-б.

Navbatdagi vazn *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod* bo‘lib, unda Habibiy 2 ta, Sobir Abdulla 1 ta, Chustiy 3 ta mustazod yaratgan. Jumladan, “Habibiyning “Mustazod”, “Yana mustazod...” she‘rlari poetikasi murakkab davr lirik qahramonining o‘ylarini ochib berishga loyiqdir¹. Shoir

$\frown$
Ozod Vatanim bo‘ldi o-q+oltin bila dongdor,
 — — V/ V — — V/ V — — V/ V — ~

hurmatga sazovor,
 — — V/ V — ~

Har ishda mahoratli, dadil, sergaku tayyor,
janglarda zafardor².

Yoki:

Jono, karaming birla sharaflil nazaring bor,
 — — V/ V — — V/ V — — V/ V — ~

mendan xabaring bor,
 — — V/ V — ~

Ko‘yingda necha volau shaydo basharing bor,
ko‘p g‘amzalarining bor³

matla‘li mustazodlarini yaratishda aruz tizimining *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod* (ruknlari va taqti‘i: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylu mafoiyl maf’uvlu mafoiyl* — — V/V — — V/V — — V/V — ~ / — — V/V — ~) vazniga murojaat qilgan. Mazkur vazn yuqoridagi o‘lchovdan asosiy va orttirma misra oxiridagi hijolarning o‘ta cho‘ziqligi bilangina farqlanadi. Habibiy g‘azaliyotidan keltirilgan ikkala namunaning asosi g‘azal bo‘lib, har bir misrasidan keyin asosiy qofiyaga qofiyalanuvchi yarim misra orttirilgan. Yuqoridagi baytdagi *hurmatga sazovor, janglarda zafardor, mendan xabaring bor, ko‘p g‘amzalarining bor* orttirmalarining birinchi to‘liq misralaridagi rukni — *maf’uvlu* (— — V)ga, ikkinchisi esa to‘liq misralarning oxirgi rukni — *mafoiyl* (V — ~)ga teng.

Sobir Abdulla devonida mustazodning boshqacha xillari ham mavjud. Uning “Sen bor — bu hayot faxrlanur sen ila el shod” deb boshlanuvchi she‘ri mumtoz mustazod qoidalari asosiga qurilmagan. Mazkur mustazodda to‘liq misra birinchi va to‘rtinchi qatorlarda kelsa,

¹Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. — Т.: Фан, 1992. — Б. 188.

²Хабибий. Девон. — Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — Б. 99.

³Хабибий. Юкоридаги асар. — Б. 97.

yarim misralar esa ikkinchi va uchinchi qatorlarda uchraydi. Mustazodning bu ko‘rinishda yaratilishi o‘zbek mumtoz adabiyoti uchun yangilik hisoblanadi. She’r quyidagicha boshlanadi:

*Sen bor – bu hayot faxrlanur sen ila el shod,
el baxtligu ozod,
yurt tinch ham obod.
O‘rgatding o‘zing bizga yashashni, ulug‘ ustod¹.*

Keltirilgan mustazod tartibining an’anaviy mustazoddan farqlanishi kuzatiladi. Qofiyalanishi XX asr ikkinchi yarmida yozilgan mustazodlarga xos (a-a-a-a tarzida) bo‘lib, *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod* (ruklari va taqti’i: maf’uvlu mafoiylu mafoiylu mafoiyl maf’uvlu mafoiyl — — V/ V — — V/ V — — V/ V — ~ / — — V/ V — ~) vaznida yozilgan. Bu kabi qofiyalanishni biz Charxiy mustazodlarida ham kuzatamiz².

E’tibor qilinsa, yuqoridagi barcha mustazodlarda mualliflar aks ettirmoqchi bo‘lgan g‘oya va mazmun yengil va o‘ynoqi ohanglarda tarannumini ko‘ramiz. Natijada, ko‘klam shukhi, yor go‘zalligi, Vatan tarannumi bilan bog‘liq tasvirlar kitobxonda mustazod ohangiga mos ravishda sho‘xchan tuyg‘ularini uyg‘otadi.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatidagi o‘ziga xosliklardan yana biri muxammas-mustazodlarning yaratilganligidir. R.Orzibekov tojik olimlari muxammasning bu turini “*Muxammasi mustazod*” nomi bilan atashini va uning ilk namunalari mashhur shoir va adib Sayido Nasafiy (XVII asrning oxiri va XVIII asr boshi) she’riyatida uchrashini ta’kidlaydi³. Quyida Sayido Nasafiyning *muxammasi mustazodidan* parcha keltiramiz:

*Imro‘z ba olam nabuvad ahli vaforo
g‘ayr az tu panohye,
Girand baroi tu shabu ro‘z duaro
az har sari rohye.
To chand ba zulfi tu bigo‘yoyem nigoro
bo nolavu ohye,
Ey rexta savdoi tu xuni dilimoro
be hyech gunohye.*

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – Б. 49.

²Qarang: Чархий. Қиёлаб ўтди: шеърлар. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 27.

³ Орзобеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – Б. 89.

*Binvoz dame kushtai shamsheri chaforo,
bore ba nigohye¹.*

Y.Is'hoqov Tabibiy Navoiy mustazodiga taxmis bog'laganligi haqida ma'lumot beradi va birinchi bandini misol sifatida keltiradi. Bunda Tabibiy misralari quyidagicha:

*Toki – may ishq ichra manga javru jafodur,
ma'dumdur idrok,
Ko'nglimda base, mehnat ila ranju anodur,
jismim bo'lubon xok.
Ishqida bori ahli jahon zoru gadodur,
ham ko'zlari namnok.*

Navoiy:

***Din ofati bir mug'bachai mohliqodur,
mayxoravu bebok
Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur,
sarmastu yoqam chok.***

Bu borada “Tabibiy (XIX–XX) mustazodni muxammas janriga tatbiq etib, o'ziga xos yangilik yaratgan”². XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida esa Chustiy ilk bor “Husningdan o'par yoz” mustazodini muxammasga joriy qilib, buni an'anaga aylantirdi. Chustiy mustazodining Nasafiy va Tabibiy mustazodlaridan farqi shundaki, u g'azal singari qofiyalanmay, balki har satri o'zaro qofiyalangan misralardan iborat. Natijada, har bir bandning o'zida o'nta qofiyadosh so'z vujudga kelgan:

*Yur, keldi qalam gulshani do'stingga zafar yoz,
dushmanga xatar yoz!
Dunyo gulining yafrog'iga nuri sahar yoz,
xoinga sharar yoz!
Bog'larda daraxt shoxlariga durri-guhar yoz,
lazzatli samar yoz!
Olam qulog'in sahfasiga totli xabar yoz,
osmonga qadar yoz!
Ijod qutisin och elinga shahdushakar yoz,
zolimga zahar yoz!³*

¹ Орзибеков Р. Юкоридаги асар. – Б. 89.

² Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O'zbekiston, 2014. – 125-б.

³ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 322-б.

She’rda “yoz” so‘zining radif bo‘lib kelishi va qofiya singari har bir misrada takrorlanishi mustazodning musiqiylikini oshirgan. Lirik qahramon “Yur, keldi qalam gulshani do‘stingga zafar yoz” deyish orqali do‘stlarni g‘alabaga chorlab, “dushmanga xatar yoz”ishga da’vat etadi. Keyingi misralarda “Bog‘larda daraxt shoxlariga durri-guhar yoz” deya yoz fasliga “lazzatli samar yoz” shaklida murojaat qiladi. Navbatdagi qatorlarda “olam qulog‘iga” totli xabar, “elinga shahdu shakar yoz”, zolimlarga “zahar yoz” der ekan, she’rdagi tantanavor ohang yuksak pafos bilan birlashib, uning badiiy jozibasi ortishiga sabab bo‘lgan.

Bu kabi muxammas-mustazodni biz Charxiyning “Qiyolab o‘tdi” kitobida ham kuzatamiz. Uning muxammas-mustazodi qalamga bag‘ishlanib, quyidagi band bilan boshlanadi:

*Hayotim ichra o‘zing olihimmatim, qalamim
Ki, sohibi karamim.
Ko‘ngilni dardiga hamdard, ulfatim, qalamim,
Hamon faraxli damim.
Umrning lazzati. Fayzu sharofatim, qalamim,
Yo‘q endi qayg‘u g‘amim.
Javohirotu funun koni, hikmatim, qalamim,
Xazinasan deganim,
Dilimda otashi ishqu, haroratim qalamim,
Hamisha istaganim¹.*

E’tiborlisi shundaki, mazkur mustazod noan’anaviy vaznda, ya’ni mujtass bahrining *mujtassi musammani maxbuni mahzufi mustazod* (ruknlari va chizmasi: *mafoilun failotun mafoilun failun mafoilun failun* V — V —/ V V — —/ V — V —/V V —/ V — V — /V V —) o‘lchovida yozilgan. Ushbu mustazodda mujtass bahrining tanlanishiga asosiy sabablardan biri sifatida she’r uchun tanlangan qofiyani keltirish mumkin. Qofiyadosh so‘zlar sifatida *qalamim, olihimmatim, karamim, ulfatim, damim, sharofatim, g‘amim, hikmatim, deganim, haroratim, istaganim* kabilarning tanlanishi o‘z-o‘zidan so‘nggi ruknning *maxbuni mahzuf* bo‘lishini talab qiladi.

Aruz nazariyasidan ma’lumki, maxbuni mahzuf rukni, asosan, maxbun tarmoqli bahrlarda, ya’ni ramal yoki mujtassda yozilishi

¹Чархий. Қиёлаб ўтди. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 157.

mumkin. Yuqorida keltirilgan qofiyalarning tanlanishi o‘z-o‘zidan shoir Charxiyning mana shu mustazodi uchun mujtass bahrini tanlashiga olib kelgan. E’tiborli jihati, mustazod qoidalariga rioya qilinar yekan, shoir qo‘shimcha misralarni ham birinchi va to‘rtinchi rukndan oladi. Tabiiyki, birinchi va to‘rtinchi ruknlar *mafoilun* hamda *failun* ruknlaridir. Bu holat ham vaznning mujtassda bo‘lishini talab yetadi. Davr she’riyatida uchrovchi bu kabi holatlar janr bilan bog‘liq yangiliklar va an’anaviylikka yangicha yondashuvlarni namoyon qiladi. Bu esa shu davr shoirlarining mahoratini ko‘rsatuvchi navbatdagi dalillardandir.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida istifoda etilgan baytli she’rlardan yana biri qasidadir. Qasida arabcha “qasd” so‘zidan olingan bo‘lib, *maqсад, niyat, intilish* ma’nolarini bildiradi. Bu she’riy janrga mansub asarlar ko‘pincha muhim tarixiy voqyealar, tarixiy shaxslar, shohlar madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, xuddi oda kabi tantanovar uslubda yuzaga kelgan¹. Qasidaning ko‘pincha taxallussiz, g‘azalga xos qofiya tartibida ekanligi ko‘rinadi. Ushbu janr hajm jihatidan chegaralanmagan. “Unda baytlar soni 12 tadan kam bo‘lmasligi kerak. Oxirgi chegarasi necha bayt bo‘lishi haqida klassik adabiyotimizda ham, hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham barqaror fikr aytilgan emas”². Qasidalar mavzusiga ko‘ra vassf, madh, hajv, marsiya, munajat va falsafiy qasidalarga bo‘linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida “Devonu lug‘otit-turk”da “qo‘nug” shaklida uchraydi³.

Turkiy aruz imkoniyatlarini g‘azal janri orqali boyitgan Erkin Vohidov qasidalar yaratishda ham mumtoz an’analarga ijodiy yondashdi. Uning Alloh yaratgan butun maxluqot orasida eng sharif yaratiq bo‘lgan insonga bag‘ishlangan “Inson”, o‘z davrining milliy madhiyasi darajasiga ko‘tarilgan “O‘zbekim” qasidalari ushbu janrning betakror namunalaridir. Mazkur qasidalar aruz tizimining turkona vazni bo‘lmish *ramali musammani mahzuf* o‘lchovida yaratilishi bilan yanada milliylik kasb etgan (7-ildovaga qarang).

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon, o‘zbekim,

¹ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: 2004. – Б. 88.

² Носиров О. Ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 129.

³ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: TAMADDUN, 2016. – Б. 62.

Senga tengdosh Pomiru

Oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim¹...

Qasida uchun tanlangan radif (o‘zbekim) bevosita uning vaznini ham belgilab bergan deb aytish mumkin. Cho‘ziq, qisqa va cho‘ziq hijolardan iborat bo‘lgan ushbu so‘z misraning oxirida kelib, uning “*foilun*” tarmoq rukni, binobarin, mahzuf bilan yakunlanishini taqozo qilgan, natijada, qasidaning *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilishini ta’minlagan.

Erkin Vohidov ushbu qasidada o‘zbekning “ming asrlar ichra pinhon” tarixini ko‘hna Samarqandda saqlanib qolgan Afrosiyob yodgorligidan, Mo‘g‘uliston va Sibirdagi O‘rxun hamda Enasoy daryolari qirg‘oqlaridan topilgan qadimgi turkiy toshbitiklardan izlash lozimligini aytadi. Qasida davomida o‘tmishimizning yana boshqa ibratli sahifalari varaqlanar ekan, shoir ona xalq tarixini mukammal talqin etmoqqa ojiz ekaniga kamtarlik ila ishora qiladi:

*Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o‘zbekim.*

Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasini xalqimiz sha’ni va shavkatiga badiiy so‘zdan tiklangan muhtasham obida deb baholasak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shoirning deyarli har bir she’rida falsafa, “tesha tegmagan” fikrlar bor. Bu jihatidan “Inson” qasidasi alohida ajralib turadi. Qasidada farishtadek pok va iblisdek yovuz, tog‘ kabi buyuk va qum zarrasi kabi mayda, choh kabi tuban, donishmanddek oqil va telbadek nodon mavjudot – inson olami shu qadar dard bilan ifodalangan.

*Sobitu sayyorada
Inson o‘zing, inson o‘zing,
Mulki olam ichra bir
Xoqon o‘zing, sulton o‘zing².*

Shoirning “Qo‘llar” qasidasi ham mavjud. She’r *hazaji musammani solim* vaznida yaratilib, mavzusiga ko‘ra qasidanavislik tarixida yangi

¹ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – Б. 151.

² Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” HMAK, 2018. – Б. 392.

hodisa hisoblanadi. Ushbu qasida uchun tanlangan “bu qo‘llardir, bu qo‘llardir” radifi ham uning hazajdan boshqa o‘lchovda yozila olmasligini ko‘rsatadi.

*Taningda kamtarin a’zo
Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir,
Mudom mehnat uchun paydo
Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir¹.*

Kuzatishlarimiz asnosida Habibiy ijodida ham 2 ta qasida mavjudligi aniqlandi (7-ilogaga qarang). Ularning birinchisi

Qo‘shilgay/ bukun zav/q+ila ik/ki yor,
 $\text{V} \text{ — — / V } \text{ — — / V } \text{ — — / V } \sim$
Ikovdan/ muhabbat/ bo‘lib o/sh(i)kor²
 $\text{V} \text{ — — / V } \text{ — — / V } \text{ — — / V } \sim$

bayti bilan boshlanib, *mutaqoribi musammani maqsur* vaznida yozilgan. Matla’ning ikkinchi misrasidagi “ikkovdan” so‘zini vazn talabibilan taslimga³ uchragan va natijada bu so‘zni “ikovdan” tarzida qo‘lladik. Asl matnda esa “ikkovdan” singari ifodalangan. Mazkur o‘lchovda aruzshunos olimlarimizning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek adabiyotida dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni, keyinchalik esa Alisher Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonidagi 61, 112 g‘azallari yaratilgan. Habibiyning ikkinchi qasidasi esa

Ey shonli,/ sharafli qah/ramonlar,
 $\text{ — — V / V } \text{ — V } \text{ — / V } \text{ — — }$
Hurmatli/ Vatanga meh/ribonlar⁴
 $\text{ — — V / V } \text{ — V } \text{ — / V } \text{ — — }$

bayti bilan boshlanib, *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* o‘lchovida bitilgan. Shoirning har ikkala qasidasi o‘z davri uchun dolzarb mavzularga bag‘ishlangan.

¹Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2018. – Б. 397.

²Ҳабибий. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 44.

³Изoh: taslim “yemirmak” ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, so‘zlarni vaznga moslash uchun ularning o‘zak-negizlaridagi biron harfni tushirish usulini ifodalaydi.

⁴Ҳабибий. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 47.

Ustozlaridan ijodning talay sirlarini o‘rgangan Sobir Abdulla qasidalar yaratishda ham ularga bevosita ergashdi. Uning “Devon”iga kirgan “Toshkent qasidasi” hajman 34 baytdan iborat. Tuzilishiga ko‘ra qasidai mujarrada (chala qasida), mavzusiga ko‘ra esa madh qasidadir. She’r quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Qadimiy no/mi Shosh – Toshkent,
V — — —/ V — — ~
Bo ‘libsen qay/ta yosh Toshkent¹.
V — — — /V — — ~

Go‘zal va maftunkor ma’vo beqiyosliklari ulug‘langan satrlarga shoirning poytaxt shaharga cheksiz muhabbati jo bo‘lgani seziladi: “*Sharqda mayog‘imsen: Haqiqat! Sen quyosh – Toshkent*”. Keltirilgan bayt hazaj bahrining *hazaji murabba’i musabbag’* (ruknlari va taqti’i: mafoiylun mafoiylon V – – –/V – – ~)da bo‘lib, juft misralari a-a, toq misralari a-b tarzida qofiyalangan.

Sobir Abdullaning ikkinchi “Quyosh” qasidasi to‘rt jildlik Asarlar to‘plamidan o‘rin olgan bo‘lib, aruz tizimining *muzoriyi musammani axrab* vaznida yozilgan. Ushbu qasida quyoshning madhiga bag‘ishlanadi (7-ilovaga qarang). Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, qasidaning hajmi mumtoz qasidalarga mos emas. Chunki she’r hajman 10 bayt, 20 misrani tashkil qiladi.

Chustiy ijodida ham “Navro‘z”, “Norin”, “Yurak” qasidalari mavjud. Shoirning “Yurak” qasidasi muxammas shaklida yaratilgan (7-ilovaga qarang). Qasida hajman 10 band, 50 misrani tashkil qiladi:

Bir yurak bordirki, mustahkam po ‘lat qo ‘rg ‘oni bor,
Unda saqlangan xazina bebaho vijdoni bor,
Aqlu hush otliq salobatliq necha posboni bor,
Nayzalar teshmas, o ‘q o ‘tmas, ishqdan qalqoni bor,
Unga vaslin va ‘da qilgan mehribon jononi bor²

singari band *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan bo‘lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a... tarzida qofiyalangan. Qasidaning qofiyalanmaydigan misralari esa *ramali musammani mahzuf* o‘lchovidadir. She’rda Chustiy

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – Б. 272.

² Чустий. Садокат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 290.

yurakda “mustahkam po‘lat qo‘rg‘oni, bebaho vijdoni, salobatliq necha posboni, ishqdan qalqoni, mehribon joni bor”ligini ta’kidlaydi.

Adabiyotshunoslikda bunday qasidalarining vujudga kelishi XIX asrning boshlariga borib taqaladi. “XIX asrning boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitida amalga oshirilgan tajribalar natijasida muxammas janrining yangicha ko‘rinishi – muxammas shaklida qasidalar yaratilgan”¹. Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida Nusrat hamda Maknunning forsiy tildagi muxammas-qasidolari keltirilgan. Nusrat qalamiga mansub muxammas-qasida 16 banddan, Maknunga tegishli muxammas-qasida esa 27 banddan iborat. Olimlarimizning qayd etishlaricha, mumtoz adabiyotimizda turkiy tilda yozilgan qasidaning bu shakli kuzatilmagan².

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lyaptiki, XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov mustazod va qasida janrining betakror namunalarini yaratdilar. Sobir Abdulla o‘zbek adabiyotiga mustazodning noan’anaviy turlarini olib kirdi. Uning mustazodida to‘liq misra birinchi va to‘rtinchi, yarim misralar esa ikkinchi va uchinchi qatorlarda keladi. Chustiy turkiy adabiyotda Ahmad Tabibiy an’analarini davom ettirib, o‘zbek adabiyotida mustazodni muxammasga joriy qilib, muxammasi mustazod yaratdi. Shakldagi bu o‘zgarishlarga qaramay, bu davr mustazodida mumtoz mustazodga xos an’anaviy she’riy o‘lchov saqlanib qoldi. Bu davr qasidolari asosan muraddaf bo‘lib, ularda istifoda etilgan vaznlar aksariyat hollarda tanlangan radiflar bilan uyg‘unlik kasb etgan.

2.2-§. Kichik lirik janrlarning vazn xususiyatlari

Baytli she’rlar orasida g‘azal, mustazod va qasidalar bilan bir qatorda kichik lirik janrlarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. O‘zbek adabiyotida kichik lirik janrlarga ruboiy, tuyuq, qit’a, fard, muammo, lug‘z (chiston), ta’rixlarni kiritish mumkin. Ushbu janrlarning barchasi XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida u yoki bu shaklda davom etdi.

Ruboiy mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, baytli she’rlar sirasiga kiradi. Ruboiy haqidagi dastlabki ma’lumotni mumtoz manbalardan, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014. – 128-б.

²Qarang: Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; D.Yusupova. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019.

“Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarlaridan olish mumkin. E’tiborlisi, bu asarlarda ruboiyga berilgan ta’riflar bir-biridan farqlanadi. Jumladan, “Funun ul-balog‘a” asarida Shayx Ahmad Taroziy ruboiy haqida gapirib, uning to‘rt misra bo‘lishini, avvalgi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘zaro qofiyalanishini, uchinchi misrasi ixtiyoriy bo‘lishini ta’kidlar ekan, uchinchi misrada “qofiya keltursalar”, uni “ruboiyi musarra”¹, – deb nomlanishini aytadi². Namuna sifatida olim turkiy tilda yozilgan ikki ruboiyni keltiradi. Mazkur ruboiylar an’anaviy hazaj bahri vaznlarida bo‘lmasdan, *ramali musaddasi mahzuf* vaznidadir. Bu esa o‘sha davrlarda, ya’ni ruboiy shakllanayotgan paytda uning vazni erkin bo‘lganligini yoki ba’zan turkiy shoirlar ruboiyni *ramalda* ham yozganligini anglatadi. “Bu holat Navoiygacha turkiy she’riyatda ruboiyning qat’iy vaznda bo‘lishi talab qilinmaganligini ko‘rsatadi”³.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida “Ruboiy vaznikim, ani “du baytiy” va “taroni” ham derlar, hazaj bahriniig “axram” va “axrab”idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va nazmedur bag‘oyat raboyanda”⁴, – deb yozadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarida Alisher Navoiy fikrlarini davom ettirib, ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini ta’kidlaydi. Keyingi davr nazariy kitoblarida ham ruboiyning Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ta’kidlaganlaridek, hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini aytish an’anaga aylangan⁵.

XX asr ikkinchi yarmida Yevropadan kirib kelgan lirik janrlarda ijod qilish bilan bir qatorda mumtoz adabiyot janrlari, xususan, ruboiy, tuyuq va boshqa janrlarda ijod qilish ham davom etdi. Biz aynan shu tamoyilni Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov ijodida ham uchratamiz. Ularning ruboiylari ham mumtoz adabiyot an’alarini, ham zamonaviy to‘rtliklarni o‘zida mujassam qilganligi bilan alohida ajralib

¹Izoh: sara yoki taronai ruboiy.

²Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина, 1996. – Б. 124.

³Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019. – Б. 133.


⁴Навоий А. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 49.

⁵Qarang: Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т.: Фан, 1981. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019.

turadi. Shundan kelib chiqib, biz bu davrda yaratilgan ruboiylarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

- 1) an'anaviy (mumtoz) ruboiylar;
- 2) dubaytiylar;
- 3) to'rtliklar.

Dastavval birinchi guruhga mansub ruboiylarni ko'rib chiqamiz. An'anaviy (mumtoz) ruboiylarga biz mumtoz ruboiy an'analarga xos bo'lgan vaznlar, ya'ni hazaj bahrining axram va axrab shajarasi o'lchovlarida yozilgan she'rlarni kiritdik. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, bunday ruboiylar faqat Sobir Abdulla ijodida uchrar ekan. Shoir she'riyatida axrab shajarasi o'lchovlarida 5 ta ruboiy bo'lib, ular shoirning to'rt jildlik "Asarlar"iga kiritilgan¹. Axrab shajarasi vaznlari quyidagi ruknlardan hosil bo'ladi:



Sobir Abdullaning to'rt jildlik "Asarlar"iga kiritilgan ruboiylari, asosan, do'stlik, vafo, ijod mashaqqati bilan bog'liq mavzulardadir. Jumladan, "Ul do'stki meni sog'inaru yod aylar" ruboiysida do'stlarning bir-birini sog'inganda yo'qlashi, "gohi kelib shod aylashi", ba'zan esa faqat manfaat yuzasidan hamroh bo'lishi aytiladi:

¹Sobir Abdullaning "Devon"ida 1-guruhga mansub ruboiylar uchramagani uchun biz quyidagi nashrga murojaat qildik. Qarang: Собир Абдулла. Асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 175-б.

Ul do 'stki,/ meni sog 'i/naru yo-d+ay/lar,
 — — V /V — — V/V — — —/ —

Sog 'inti/raru gohi/ kelib sho-d+ay/lar.
 — — V/V — — V/V — — —/ —

Ul ba 'zi/sining do 'stli/gidan vahmim/ ko 'p,
 — — V/ V — — V/V — — —/ ~

Gar tegma/sa naf menda/n + anga, do-d+ay/lar¹.
 — — V /V — — V/ V — — —/ —

Keltirilgan ushbu she'r ruboiyi xasiy (erkin ruboiy) bo'lib, uning 1-, 2-, 4-misralari hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* (ruknlari va taqti'i: *maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fa'* — — V /V — — V/V — — —/ —), 3-misrasi esa *hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall* (ruknlari va taqti'i: *maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fo'* — — V /V — — V/V — — —/ ~) vaznida yaratilgan. An'anaviy mumtoz ruboiyga xos a-a-b-a tarzida qofiyalangan. 4-misrasida vazn talabi bilan vasl hodisasi yuzaga kelgan. Misradagi 3-ruknda qo'llanilgan "mendan" so'zidagi "n" undoshi undan keyin turgan "a" hijosiga ulanib, "na" tarzida o'qilishi lozim. Shuningdek, ruboiyning 1- va 3-misralarida "do'st" so'zi cho'ziq hijo (—) tarzida kelganligining guvohi bo'ldik. Aslida, avvalgi fasllarda ham ta'kidlaganimizdek, mumtoz aruz qonuniyatlariga ko'ra, "do'st" so'zi o'ta cho'ziq (— V) hijoli so'z hisoblanadi. Lekin XX asr ikkinchi yarmidan boshlab shoirlarimiz aruzdan foydalangan paytlarida o'ta cho'ziq hijolarni ba'zan o'z o'rnida, ya'ni mumtoz aruz talabi asosida, ba'zan esa oddiy cho'ziq hijo tarzida qo'llaganlar. Bu kabi holatlar XX asr ikkinchi yarmi she'riyati uchun xos bo'lib, boshqa shoirlarda ham kuzatiladi. Sobir Abdullaning do'st mavzusidagi yana bir ruboiysi: "*Ul do 'st dema to 'g'ri so 'zing yoqmasa gar*" deb boshlanuvchi ruboiysida esa "do'st" so'zi o'ta cho'ziq hijo tarzida qo'llanilgan. Mazkur ruboiy quyidagi misralardan iborat:

Ul do 'st/ dema to 'g'ri/ so 'zing yoqma/sa gar,
 — — V/ V — — V /V — — V/ V —

¹Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. — Т.: Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. — Б. 175.

Tekkanda/“amal” so‘ngra/kulib boqma/sa gar,
 — — V/ V — — V /V — — V/ V —
O‘t bahri/danu ista/ma-yu qoqma/ eshik,
 — — V/V — — V /V — — V/ V —
*Yo‘qlab se/ni goh-gohi/ eshik qoqma/sa gar*¹.
 — — V/ V — — V /V — — V/ V —

Ushbu she‘r ham ruboiyi xasiy (erkin ruboiy) bo‘lib, *hazaji musammani axrabi makfufi ajabb* (ruklari va taqti‘i: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal* — — V/ V — — V / V — — V/ V —) vaznida yaratilgan. An‘anaviy a-a-b-a tarzda qofiyalangan. Ruboiyning ilk misrasidagi “do‘st” so‘zi endi o‘ta cho‘ziq hijo tarzida qo‘llanilganligi uchun vaznda ham o‘zgarish kuzatiladi. Birinchi ruboiyda “do‘st” so‘zi qo‘llangan misra *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtarda* bo‘lsa, ushbu ruboiyning barcha misralari *hazaji musammani axrabi makfufi ajabbdadir*. Shoir “Ul do‘st dema to‘g‘ri so‘zing yoqmasa gar” ruboiysida ham haqiqiy do‘st to‘g‘ri so‘zni qabul qilishi, amal tekkanda o‘zgarmasligi kerakligi, bir-birini yo‘qlab turish do‘stlikning eng asosiy qoidalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Tasnifimizdagi 2-guruh, ya’ni dubaytiylarga *hazaj* bahrining *hazaji musaddasi mahzuf* va *hazaji musaddasi maqsur* o‘lchovlarida yozilgan she‘rlarni kiritdik. Shu o‘rinda dubaytiy haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Ma’lumki, “ruboiyga o‘xshab dubaytiyning ham o‘z poetik qonuniyatlari, hayot va faoliyat yo‘li, til va uslub xususiyatlari bor”². Adabiyotshunos I.Haqqul o‘zining “O‘zbek adabiyotida ruboiy” kitobida dubaytiyning asosiy vazni *hazaji musaddasi maqsur* yoki *mahzufga* mos tushishini aytadi. Demak, “Dubaytiy – ikki bayt (to‘rt misra)dan iborat, lekin ruboiy vazniga (hazajning axrab va axramiga) tushmaydigan to‘rtlik”³. Kuzatishlarimizdan aniq bo‘ldiki, Sobir Abdulla ijodida 15 ta, Chustiyda 2 ta dubaytiy mavjud ekan. Sobir Abdullaning “Do‘stni arzon sotuvchi ba’zi hofiz haqida” dubaytiysi quyidagicha:

¹Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 175.

² Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т.: Фан, 1981. – Б. 9.

³ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: О‘zbekiston, 2014. – Б. 37.

Dedi: - Do ‘stim,/ qilay to ‘ying/da xizmat!

V — — — / V — — — / V — —

Qachon to ‘y qil/di-m+u bo ‘ldi/ shu kun “**band**”.

V — — — / V — — — / V — ~

Uni arziy/di qilsam qan/cha hurmat,

V — — — / V — — — / V — —

Biroq, pul ber/masang, bo ‘lmay/di xursand¹.

V — — — / V — — — / V — ~

Dubaytiyning 1–3-misralari *hazaji musaddasi mahzuf* (ruknlari va taqti’i: *mafoiylun mafoiylun fauvlun* V — — —/V — — —/V — —), 2-, 4-misralari esa *hazaji musaddasi maqsur* (ruknlari va taqti’i: *mafoiylun mafoiylun mafoiyl* V — — —/V — — —/V — ~) vaznida yozilgan, *a-b-a-b* tarzida qofiyalangan. Shuningdek, Chustiy ijodida ham dubaytiylar uchraydi. Uning “Ko‘ngil tilagi” devoniga 2 ta dubaytiy kiritilgan. Quyida ularning birini keltiramiz:

So ‘zimning shohididur aqli vijdon,

Tiriklar bor, ular go ‘yoki bejon.

O ‘liklar bor, tiriklardan tirikroq,

Bu xil odamni tarix der chin inson².

Mazkur dubaytiy hazaj bahrining *hazaji musaddasi maqsur* vaznida yozilib, Shayx Ahmad Taroziy e’tirof etganidek, *a-a-a-a* tarzida qofiyalangan. Keltirilgan har ikkala she’r ham mumtoz dubaytiy qoidalariga mos yozilgan. Demak, XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida ham dubaytiy yozish an’anasini muayyan tarzda davom etgan ekanligi ko‘rinadi.

To‘rtliklar deb nomlangan 3-guruh *ramal*, *hazaj* bahrlarida yaratilgan she’rlarni o‘z ichiga oladi. Bunday she’rlar Erkin Vohidov (2 ta), Sobir Abdulla (2 ta), Chustiy (11 ta) ijodida mavjud. To‘rtlik yaratishdagi XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida dastlabki vazn *ramali musammani mahzuf* bo‘lib, unda Erkin Vohidovning 1 ta, Chustiyning 4 ta she’ri yaratilgan.

¹Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 151.

² Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994. – Б. 225.

Erkin Vohidovning toʻrtligi “Yoshlik devoni”ga kiritilgan boʻlib, *ramali musammani mahzuf*da yozilgan. Shoir toʻrtlikda takrir, tazod sanʼatlaridan mohirona foydalanib, vazn imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Sheʼr uchun tanlangan *ter, der, sheʼr* qofiyadosh soʻzlari esa toʻrtlikdagi musiqiylikni oshirgan.

*Qatra – shabnam, qatra – koʻz yosh, Qatra – qonu qatra – ter,
Qatra shabnamdek bu sheʼrim – koʻrgan el ham qatra der,
Manglayimdan qatra teru, koʻzlarimdan qatra yosh,
Ham yurakdan qatra qon – toʻkdim-da, yozdim qatra sheʼr¹.*

Chustiy toʻrtliklarining uchtasi “Sadoqat gullari”ga, bittasi esa “Koʻngil tilagi” devoniga kiritilgan.

*Ikki nafsingdan biri gʻolib, biri magʻlubroq,
Ikkisin tiysang agar boʻlgʻaysan oqil rahnamo.
Ikkisin magʻlubi boʻlsang umr mulkida biroq,
Dunyoda turli balolarga boʻlursan muhtalo²*

toʻrtligining birinchi va uchinchi misralari *ramali musammani maqsur* vaznida boʻlsa, ikkinchi va toʻrtinchi misralari *ramali musammani mahzuf*da yozilgan, *a-b-a-b* tarzida qofiyalangan. Ushbu toʻrtlik inson oʻzidagi ikki nafsni tiyib oqil rahnamo, yo aksincha ularga magʻlub boʻlib, turli balolarga muhtalo boʻlishi mumkinligi haqidadir.

Toʻrtlik uchun asos boʻlgan navbatdagi vazn *ramali musaddasi mahzuf* (*maqsur*) boʻlib, mazkur oʻlchovda Sobir Abdulla 2 ta, Chustiy 4 ta sheʼr yaratgan. Shu oʻrinda Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogʻa” asaridagi turkiy tilda yaratilgan bir sheʼrni misol sifatida keltiramiz:

*Ey malohat mulkida sohibqiron,
Koʻzlaringdur fitnai oxir zamon.
Gar pari emassen, ey gul, yuzi hur,
Ne uchun koʻzdin ucharsen har zamon³.*

¹Вохидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – Б.140.

²Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994. – Б. 332.

³Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. – Б. 124.

Shayx Ahmad Taroziy mazkur she'ni keltirib, qofiyasi haqida “agar uchinchi misrada qofiya kelturmasalar ruboiyi xasiy” bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda shoir “ruboiyi xasiy”ning vazni haqida to‘xtalmaydi. “Funun ul-balog‘a” asarida keltirilgan turkiy tildagi she’r *ramali musaddasi maqsur* vaznida yozilganligi aniqlashtirildi. Ta’kidlaganimizdek, XX asr ikkinchi yarmi, xususan, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida ham mazkur vaznda yozilgan she’rlar bor. Jumladan, Sobir Abdullaning “Mag‘rurlik ta’rifida” to‘rtligi quyidagicha:

*Ba’zi mag‘rurlar ko‘zu qosh o‘ynatur,
O‘zni donishmand olib, bosh o‘ynatur.
Telbaga “sen telbasan” deb ko‘rmakim,
Ori kelmoqdan senga tosh o‘ynatur¹*

singari to‘rtlik ramal bahrining *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan bo‘lib, qofiya tizimi xuddi Shayx Ahmad Taroziy ko‘rsatganidek, *a-a-b-a* tarzidadir. Shu o‘rinda mazkur vaznda yaratilgan Chustiy ijodidan ham pand-nasihat mavzusidagi bir she’ni keltiramiz:

*Ey o‘g‘il-qiz, kel eshit, bu senga pand,
Nafs zanjiriga qilma o‘zni band.
El aro bo‘l kamtarin, bo‘l kamtarin,
Kamtaringa der malak ham ofarin².*

Keltirilgan to‘rtlikning 1-, 2- misrasi *ramali musaddasi maqsur*, 3-, 4-misrasi esa *ramali musaddasi mahzuf* vaznida ekanligining guvohi bo‘lamiz. Go‘yo “Funun ul-balog‘a” asarida keltirilgan she’r vazni bilan bir xil. Lekin Chustiyning to‘rtligida qofiya tizimi *a-a-b-b* tarzidadir. Zero, Shayx Ahmad Taroziy “ruboiyi xasiy”ning qofiyasi haqida qat’iy qoida aytadi. Sobir Abdullaning mazkur vaznda yaratilgan to‘rtligi esa bu qoidaga mos, Chustiyniki esa mos kelmaydi. Shuning uchun Sobir Abdulla she’rini shartli “ruboiyi xasiy”, Chustiynikini esa to‘rtlik deb atash mumkin. Sobir Abdullaning shu vaznda yaratilgan “Ba’zi “to‘yma-to‘y yuruvchi raqqosalar” ta’rifida she’ri “ruboiyi xasiy”, Chustiyniki esa yuqorida keltirilgan she’ri bilan bir xil.

¹Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 1-том. – Т.: Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 333.

²Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 333.

Shuningdek, Chustiy, Erkin Vohidov ijodida *hazaji musammani solim* vaznida yaratilgan to‘rtliklar ham uchraydi¹. Erkin Vohidovning to‘rtligi o‘zbek adabiyotidagi tavzi’ (alliterasiya) san’atining go‘zal namunasi.

*Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz,
Qilur qatlimga qasd, qayrab – qilich qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb qushin qiynab qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan,
Qarab qo‘ygil qiyokim, qalbni qizdirsin quyoshing qiz*².

Baytlardagi so‘zlarda “q” tovushi bir necha bor (jami 34 marta) ishlatilishi bilan matnda tavzi’ san’atini hosil qilgan. Go‘yo mazkur undosh (ohangdosh) tovushlar baytdagi so‘zlarga ulashib chiqilgandek tasavvur paydo qiladi. To‘rtlikka asos bo‘lgan vazn esa uning ritmik ohangdorligini oshirgan. To‘rtlik a-a-b-a shaklida mumtoz ruboiylarga xos qofiyalangan.

Kuzatishlarimiz asnosida Habibiy ijodida ham barmoq vaznida yaratilgan ruboiylar mavjudligi ma’lum bo‘ldi³. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotida “ruboiylar ham g‘oyaviy-tematik, ham formal-poetik jihatlardan taraqqiy etdi. Ularning ko‘pchiligi barmoq vaznida yoziladigan bo‘ldi. Endi ruboiy va sof turkiy to‘rtliklar umumiy xususiyatlarga ega bo‘la boshladi. M.Shayxzoda, Habibiy...va boshqa shoirlar eng yaxshi ruboiy va to‘rtliklarda katta hayotiy haqiqat, zukko kuzatuvchanlik mavjud”⁴. Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiyning barmoq vaznida yaratilgan ruboiylari tahliliga to‘xtalmaymiz. Yuqoridagilarning barchasi XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida ruboiy janri turli shakllarda bo‘lsada, muvaffaqiyat bilan qo‘llanganligini ko‘rsatadi.

Bu davr she’riyatida keng qo‘llanilgan kichik lirik janrlardan yana biri tuyuqdir. Ma’lumki, tuyuq, asosan, turkiy xalqlar she’riyatida mavjud janr bo‘lib, u haqda dastlab Shayx Ahmad Taroziy o‘zining “Funun ul-balog‘a” asarida ma’lumot beradi. Muallif uni alohida lirik janr emas, balki ruboiyning bir turi sifatida e’tirof etadi: “Oni mujannas”⁵

¹ Qarang: Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 332–333.

² Вохидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – Б.139.

³ Qarang: Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 459–460; Наврӯзи олам. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б. 84–85.

⁴ Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 164.

⁵ Изох: жинсдош сўзлар.

derlar. Aningtek bo'lurkim, ruboiyning qofiyasida tajnis rioyat qilurlar... Va bu turk shoirlarining ixtirosidur. Muni turklar tuyuq derlar¹. Biroq Shayx Ahmad Taroziy tuyuqning vazni haqida nazariy fikr aytmaydi. Bu haqda dastlab Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida o'qiymiz: "Birisi "tuyug" durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur"². Zahiriddin Bobur ham Alisher Navoiy kabi tuyuq vaznining *ramali musaddasi maqsur*da bo'lishini aytadi va mazkur janrning turlarini ko'rsatadi. Nazariy manbalarda olimlarimiz turkiy tildagi dastlabki tuyuqni XIV asrda Burhoniddin Sivasiiy yozganligini ta'kidlaydilar³.

R.Orzibekovning ta'kidiga ko'ra, tuyuq janri XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida ham barhayot an'ana sifatida yashab keldi. Zokirjon Habibiy, Sobir Abdulla va boshqalarning aruz vazniga mos mumtoz lirik janr va poetik turlarda yozilgan she'rlardan alohida to'plamlar, devonlar tuzganliklari ham bu shoirlar ijodida an'anaviy she'riy janrlar asosiy o'rin tutganligini ko'rsatadi. "Ularning tuyuqlariga xos mushtarak shakliy poetik xususiyat shundan iboratki, barcha mumtoz shakliy qoidalarining saqlanganligi bilan eski tuyuqlardan farq qilmaydi"⁴. Tadqiqot davomida XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan tuyuqlarning vazn va shakl xususiyatlari o'rganilib, ular ham shartli ravishda uch guruhga ajratildi:

- 1) ramal bahri vaznida yaratilgan tuyuqlar;
- 2) tajnisga asoslangan tuyuqlar;
- 3) barmoq vaznida yaratilgan tuyuqlar⁵.

Dastlab birinchi guruhni ko'rib chiqamiz. Aruz tizimining *Ramali musaddasi mahzuf (maqsur)* vaznida yaratilgan tuyuqlar Habibiy ijodida 40 ta, Sobir Abdullada 9 ta, Chustiyda 4 tani tashkil qiladi. Xususan, R.Orzibekov Habibiyning o'zbek adabiyoti tarixida eng ko'p tuyuq yaratgan shoir sifatida e'tirof etib, uning tuyuqlarida mehnat ahlining

¹Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина, 1996. – Б. 125.

²Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 70.

³Qarang: Орзобеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърлари жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019.

⁴Орзобеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 114.

⁵Изоҳ: бармоқ вазида битилган туюқлар ишимиз мақсади ва моҳиятига мос бўлмаганлиги учун биз уларни тадқиқ объектига тортмаймиз.

fidokorligi, o‘z turmushi va davridan minnatdorligi ulug‘lanadi, – deydi¹. Shoirning

*Osh berur kim ish bilan to‘ydirsa yer,
Ishlamas kim, qayga borsa dakki yer.
Ishlagan yayrab farovonlik bilan,
Yaxshi kiygay, yaxshi yurgay, yaxshi yer²*

she‘ri mumtoz tuyuq an‘analariga xos *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan bo‘lib, a-a-b-a tarzida tajnisli qofiyalangan. Mazkur tuyuqda shoir “o‘tmish shoirlarning ko‘zi tushmagan so‘z o‘yinlarini qo‘llaydi, omonim vapolisemikso‘zlar topadi”³. Keltirilgan tuyuqda “yer” so‘zi 3 ma‘noni: *zamin, gap eshitish, yemoq* ma‘nolarini ifodalaydi. Sobir Abdullaning

*Bo‘l baland parvoz, qanoting yoz, qalam,
She‘rga pardo bog‘la, tinmay yoz, qalam,
To‘rt faslda yoz: ya‘ni kuz va qish,
Sen uchun ayniqsa ko‘klam, yoz, qalam⁴*

tuyug‘i *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan bo‘lib, a-a-b-a mumtoz tuyuqlarga xos qofiyalangan. Tuyuqdagi “qalam” radif hisoblanib, she‘rda qofiyadan keyin ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta‘kidlab kelgan. Sobir Abdullaning mazkur tuyug‘i Zahiriddin Bobur e‘tirof etganidek, radifli *tuyuq* hisoblanadi⁵. Tuyuqning mazkur turi Chustiy ijodida ham uchraydi:

*Men demasmanki, oyoq xolxoli bo‘l,
Hartubanlik qaydidan sen xoli bo‘l.
El ko‘ziga jilva bermog istasang,
Yaxshi axloqlar jamolin xoli bo‘l⁶*

¹ Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 115.

² Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 461.

³ Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 115.

⁴ Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадиий адабиёт, 1965. – Б. 313.

⁵ Qarang: Бобур З.М. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971.

⁶ Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 406.

kabi tuyuq ham *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Bu tuyuqda shoir “xoli” soʻzini *xol, yiroq, koʻrk* maʼnolarida ishlatgan.

Ikkinchi guruhga, yaʼni tajnisga asoslangan tuyuqlarga biz XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan *hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)* vaznidagi sheʼrlarni kiritdik. Bunday sheʼrlar Habibiy ijodida 24 ta, Chustiyda 12 ta boʻlib, Sobir Abdulla ijodida biz tadqiq qilgan manbalar doirasida tajnisga asoslangan tuyuqlar uchramaydi. Habibiyning

*Gunohim boʻlsa jono afv qil, kech,
Koʻzimning yoshlarin daryo qilay, kech.
Masal bor qolgan ishga qor yogʻar deb,
Na ish qilsang qil, erta, qoʻymagil kech¹*

sheʼri *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan, a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Vaznni saqlash uchun birinchi misradagi “afv” soʻzini oʻta choʻziq (–V) hijo bilan, uchinchi, toʻrtinchi misralardagi “qolgan ish”, “qil erta” soʻzlarini esa qoʻshib talaffuz qilish lozim. Shunda *hazaji musaddasi mahzuf* oʻlchovi qonuniyatiga mos tushadi. Tuyuqda xalq maqollaridan mohirona foydalanilganlik sheʼrning taʼsirchanligini ham oshirgan.

Chustiyning “*Solib boʻlmas palovni dam yemasdan*” deb boshlanuvchi tajnisga asoslangan tuyugʻi *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitilgan boʻlib, ruknlari va taqtiʼi:

mafoiylun mafoiylun fauvlun

V – – –/ V – – –/ V – –

tarzidadir. Quyida ushbu toʻrtlikning matnini keltiramiz:

*Solib boʻlmas palovni dam yemasdan,
Dedim rostin kishidan dam yemasdan:
Zeriktirgay riyokor boʻlsa mehmon,
Qoʻyilgan oshni dam yeb, dam yemasdan²*

singari sheʼrdagi qofiyadosh “*dam*” soʻzlari shaklan bir xil boʻlsa-da, uch xil maʼnoni ifodalaydi: birinchi misrada palovning maromiga yetishini, ikkinchi misrada hordiq maʼnosini bildirsa, toʻrtinchi misrada ayiruv bogʻlovchisi vazifasidagi (*dam, dam*) maʼnoni ifodalaydi.

¹ Хабибий. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 216.

² Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 404.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida qit'a janri ham alohida o'rin tutadi. Qit'a arabcha so'z bo'lib, "parcha", "bo'lak", "qism" degan ma'nolarni anglatadi. Qit'a haqida ilk nazariy qarash Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Asarda "Qit'a uldurkim, avvalgi misra'inda qofiya bo'lmas. Va aqalli ikki bayt bo'lur. Va muning ham aksari muqarrar ermas. Har necha kim qofiya tobsalar ayturlar¹, – deb ta'rif beriladi. Aruzshunoslikda turkiy adabiyotda qit'aning ilk namunalari Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchrashi haqida ma'lumotlar bor². Ma'lumki, qit'a Sharq adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, bu janrda, odatda, ixcham ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon etiladi. Qit'alar turli vaznlarda bitilishi mumkin.

Erkin Vohidov qalamiga mansub qit'a aruz tizimining *ramali musammani mahzuf*, ya'ni foilotun foilotun foilotun foilun vaznida yozilgan.

*Istasang toza ko'ngilga qo'nmasin zarra g'ubor
Pok so'zi pok ish va pok dil,
Pok xayol bo'lmoq kerak³.*

Bu janrda qalam tebratish benihoya murakkab, binobarin, zeriktirarli nasihatga o'tib qolishi ham mumkin. Shoir esa bu murakkab janrda tajnis san'atidan o'rinli foydalanadi. Ma'lum bir gapdan, aforizmdan yoki predmetdan kutilmagan, o'quvchiga zavq bera oladigan va uni birdan ogohlantiradigan xulosalar chiqaradi:

*Qalbg'a istarsan gar bo'l yomon so'zdan yiroq,
Karvalol ichmoq kerakmas, kar va lol bo'lmoq kerak.*

XX asr she'riyati, xususan, Chustiy ijodida ham 30ga yaqin qit'a mavjud. Shundan aruz vaznida yozilgani jami 8tani tashkil etadi. Jumladan, uning

Hazar qilgil/ zamondan, ham/ Xudodan qo'rq/qi-l+ ey odam,
V — — — /V — — — / V — — — / V — — —
Agar sen yer/ yuzining ham/masiga sho/hu ham sulton⁴
V — — — /V — — — /V — — — /V — — ~

¹ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хази́на, 1996. – Б. 124

² Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. – Б. 135.

³ Вохидов Э. Танланган асарлар. – Т.: "SHARQ" НМАК, 2018. – Б. 471.

⁴ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 334.

bayti bilan boshlanuvchi qit'asi aruzning hazaj bahridadir. Qit'aning birinchi misrasi *hazaji musammani solim* vaznida bo'lsa, ikkinchi misrasi *hazaji musammani musabbag* da yozilgan bo'lib, an'anaviy a-b, v-b tarzida qofiyalangan. Vazn talabi bilan har ikki misralarning oxirgi hijosi bir-biridan farq qilgan. Qit'aning birinchi misrasidagi "qo'rq" so'zi aruz tizimi qonuniyatiga ko'ra, o'ta cho'ziq hijo bo'lishi kerak edi, lekin ushbu she'rda oddiy cho'ziq hijo tarzida keladi. Shuningdek, 1-misraning to'rtinchi ruknida qo'llanilgan "qil" so'zidagi "l" undoshi undan keyin turgan "ey" hijosi bilan birikib, ya'ni vasl hosil qilib "ley" tarzida talaffuz qilinadi.

Mazkur qit'a Chustiyning boshqa janrda yaratilgan she'rlari kabi an'anaviy pand-nasihat mavzusida yozilgan. Umuman, qit'a janri falsafiy, ijtimoiy mavzular bilan birga axloqiy-ta'limiy mavzularda ham bitiladi. Shu ma'noda Chustiyning ushbu qit'asida nopok boylikdan saqlanish kerakligi, agar butun yer yuzini egallab, unda hukmron bo'lsang ham Yaratganning g'azabi bir lahzada taxt-u baxtingni yer bilan yakson qilishi mumkinligi bilan bog'liq fikrlar keltirilgan. Shoirning

*Gul tikanlik etmamish hargiz, tikan gul bo'lmamish,
Bul ajabkim, nasli odam ham tikan, ham gul bo'lur¹*

deb boshlanuvchi qit'asi ramal bahrining *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan, an'anaviy a-b, v-b tarzida qofiyalangan. Ushbu qit'a xalqona, falsafiy uslubda yaratilgan bo'lib, qit'a matla'sida o'xshatish san'atining ajoyib namunasi ko'ramiz. Gul hargiz tikanli bo'lib, tikan esa garchi gulda bo'lsa ham guldek bo'lolmasligi, lekin afsuski, "nasli odam" ham gul, ham tikon kabi bo'lishi mumkinligi shoirni ajablantiradi.

R.Orzibekov "Lirikada kichik janrlar" kitobida qit'alarining qofiyalanish tizimi haqida to'xtalib, Navoiy ijodida a-a, b-b qofiyaga ega bo'lgan qit'alar ham borligini ta'kidlaydi. Va bunga shoirning tuyuq vaznida yaratilgan "Kimki o'zluk imoratin buzdi" deb boshlanuvchi qit'asini misol qilib keltiradi². Chustiy ijodida ham tuyuq vaznida yozilgan, a-a, b-b qofiyali qit'a uchraydi.

¹Чустий. Кўрсатилган манба. – Б. 334.

² Qarang: Орзобеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.

*Bu hadis: “Hubbul Vatan – imon erur”,
Kimda imon bor, aziz inson erur.
Saqlamoq yovdan Vatanni senga qarz,
Qarzni qilmoq ado har kimga farz¹.*

Keltirilgan qit’aning birinchi bayti *ramali musammani mahzufda* bo’lsa, ikkinchisi *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan; a-a, b-b tarzida qofiyalangan. Ushbu she’r Chustiyning boshqa qit’alaridan farqli o’laroq, mashhur hadis “*Hubbul Vatan – minal iymon*”, ya’ni “*Vatanni sevmoq iymondandir*” degan hadis bilan boshlanib, kimda imon bo’lsa, eng aziz inson bo’lishi, Vatanni yovdan saqlamoq farz ekanligi kitobxonga uqtirilgan.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida istifoda etilgan kichik janrlardan yana biri farddir. Shayx Ahmad Taroziy mazkur janrga “Fard ikki misra’ bo’lur. Avvalgi misra’ida qofiya bo’lmas” – deb ta’rif beradi². “Fardlar hamma davrlardagi o’zbek she’riyatida bor edi. U maqollar kabi siqiq, ixchamligi, esda oson qolishi, hikmatlarga boyligi bilan shoirlarni qiziqtirib kelgan. Shuning uchun ham fard yozmagan shoirni uchratish qiyin”³. Adabiyotshunos I.Adizova “Uvaysiy ijodida janrlar takomili” risolasida Alisher Navoiy she’riyatida 86 ta, Zahiriddin Bobur devonida 26 ta, Uvaysiy she’riyatida 4 ta fard mavjudligini ta’kidlaydi⁴. XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida ham Habibiy ijodida aruz tizimining *ramal* (6 ta), *hazaj* (8 ta), *mutaqorib* (1 ta), *mujtass* bahri (1 ta) vaznlarida yaratilgan fardlar uchraydi (8-ilovaga qarang). Lekin negadir shoirning o’zi “Navro’zi olam” she’riy to’plamiga kirgan ushbu fardlarini “qit’alar” deb ataydi⁵. Habibiy o’z fardlarini qit’a deb nomlaganini adabiyotshunos olimlar M.Ibrohimov, M.Oymatovalar ham ta’kidlaydi⁶. Mazkur baytlarning janr xususiyatlarini o’rganganimizda esa ular qit’a emas, balki fard ekanligi oydinlashdi. Shuning uchun biz ularni fard deb hisobladik.

¹Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 334.

²Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хази́на, 1996. – Б. 130.

³Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 171-б.

⁴Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар такомилли. – Т.: Muharrir, 2011. – 6-б.

⁵Qarang: Ҳабибий. Наврӯзи олам. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 93–95-б.

⁶Qarang: Иброҳимов М. Кичик поэтик жанрлар ва уларнинг услуб хусусиятляри //Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Т.: 1983. – Б. 154–192; Ойматова М.А. Ўзбек адабиётида фард жанри поэтикаси ва тарихи. Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 1999. – 95-б.

Habibiy fardlarini yuksak badiiyat bilan yozishga harakat qilgan, ko‘pincha xalq maqollari, obrazli ifodalarni fardga singdirib yuborgan. Xususan, uning

*Yomon so‘zlarga odat qilma zinhor,
Yomon so‘zdan bilursan barcha bezor¹*

singari fardida hikmatli so‘zlardan oqilona foydalanib, yomon so‘zlarni so‘zlashga odat qilmasligi, yomon so‘zlardan hamma bezorligi haqida fikr yuritilgan. Keltirilgan fard aruz tizimining *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yozilib, an‘anaviy a-a tarzida qofiyalangan. Ushbu vaznda shoirning 7 fardi mavjud.

*Mastu ahmoqqa nasihat aylama, chekma alam,
Sapchigay qaytib o‘zingga, kir qilur ko‘nglingni ham².*

Mazkur fard *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan, a-a tarzida, ya‘ni mumtoz fardlarga xos qofiyalangan. Ushbu o‘lchovda 5 ta fard mavjud. Fard mazmunida mast va ahmoq insonga nasihat qilmaslik, u bu nasihatingni tushunmasligi, tushunmaslik oqibatida esa nasihat qiluvchining o‘ziga sapchib, tab‘ni xira qilishi haqidagi fikr yotadi. Shuningdek, shoir mutaqorib bahrida yozilgan bir fardida, “yaxshi topib so‘zlar, yomon qopib” xalq maqolini she‘r mazmuniga singdirib yuborgan.

*Ko‘ring yaxshilarni topib so‘zlagay,
Yomonlar hamisha qopib so‘zlagay³.*

Keltirilgan fard mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Ko‘ringanidek, Habibiy fard mazmuniga xalq maqolidan mohirona foydalangan. Adabiyotshunos N.Jabborov bu janrda muvaffaqiyat qozonish uchun shoir, birinchidan, oz so‘zga ko‘p ma‘no yuklay bilishi, ikkinchidan, mumtoz she‘riyatimizning ulug‘ namoyandalari nazmiy merosini puxta o‘rganib, fikrni san‘atkorona ifodalash sirlarini egallashi, uchinchisi, aruz ilmi sirlaridan xabardor

¹ Ҳабибий. Наврӯзи олам. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 93-б.

² Ҳабибий. Наврӯзи олам. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 93-б.

³ Ҳабибий. Наврӯзи олам. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 93-б.

bo‘lishi talab qilinishini ta’kidlaydi. Habibiy esa adabiyotshunoslikdagi mazkur xususiyatlarni o‘zining fardlarida jamladi¹.

Baytli she’rlar orasida shakliy jihatidan erkin, faqat mazmun asosida farqlanadigan janrlar ham mavjud bo‘lib, ularga lug‘z va ta’rix kiradi. Ushbu janrlar muallifning xohishiga ko‘ra, qit’a, ruboiy, fard, ba’zan g‘azal singari qofiyalanishi mumkin. Ular orasida xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan **lug‘z** janrining o‘ziga xos o‘rni bor. Lug‘z arabcha “topishmoq”, “sir” ma’nolarni anglatib, fors-tojik adabiyotida chiston (forscha “nima u?”) deb yuritiladi². Turkiy adabiyotda chistonlarning devon tarkibida kelishi Alisher Navoiy ijodidan boshlanadi. Uning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 10 ta chiston mavjud. Lekin Navoiygacha Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida chiston janrining ilk namunalari keltirilgan³. “Chiston har bir shoirning olam, odam va borliqni kuzatish, atrof-muhitni ilg‘ash darajasini ko‘rsatadi. Uning oddiy predmetlardan badiiy obraz yaratish salohiyatini aniqlash mezonini bo‘lib xizmat qiladi”⁴.

Erkin Vohidovning “Tanlangan asarlar”ida *ramali musammani mahzufda* yozilgan bitta chiston mavjud.

*Ul adib kimdirki, doim katta pinjida yurar,
Mansabu unvon, mukofot, mulk ilinjida yurar,
Tushsa ham otdan va lek hargiz egardan tushmagay,
Gar tramvay minsa ham nomer birinchida yurar*⁵.

Mazkur chistonda shoir savolu javob, irsoli masal, tanosub she’riy san’atlarini qo‘llab, chistonning ta’sirchanligini oshirgan. Ayniqsa, chistonning uchinchi misrasida keltirilgan “*otdan tushsa ham, egardan tushmaydi*” maqoli qolgan misralarda aytilayotgan fikrni dalillash vositasida mazmunni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilgan. Bu esa vaznning imkoniyatlarini ochib bergan.

¹ Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – 176 -б.

² Qarang: Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърят жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; D.Yusupova. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019.

³ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов. Т.: Ҳазина, 1996. – 127 -б.

⁴ Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар тақомили. – Т.: Muharrir, 2011. – 13 -б.

⁵ Вохидов Э. Танланган асарлар. , – Т.: “SHARQ” НМАК, 2018. – 445 -б.

Chustiy ham mumtoz anʼanalarni davom ettirib, “Davot va qalam”, “Qalam va qogʻoz”, “Quyosh”, “Chok mashinasi”, “Tuhmat”, “Mix” mavzularida chistonlar yaratdi. Bu asarlarning 2 tasi qitʼa, 2 tasi fard, 2 tasi ruboiy tarzida qofiyalanib, *hazaj* (4 ta), *muzoriʼ* (1 ta), *mujtass* (1 ta) bahri vaznlarida yozilgan (9-ilovaga qarang). Masalan, “Quyosh” haqidagi chiston ruboiy tarzida qofiyalanib, unda yer yuzini qizdiruvchi quyosh “tillosi bor, lekin puli yoʻq” xazinaga oʻxshatiladi va uning oʻziga xos xususiyatlarini tanosub, tazod, takrir orqali sanab oʻtiladi:

*Oyogʻi yoʻq, qoʻli yoʻq,
Tillosi bor, puli yoʻq.
Bir chiziqda yuradi,
Undan boʻlak yoʻli yoʻq¹.*

Chiston *muzoriyi murabbai axrab* (ruklari va taqtiʼi: *mafʼuvlu foilotun* — — V /— V —) vaznida yozilgan, a-a-b-a mumtoz ruboiyga xos qofiyalangan. A.Hojiahmedov *muzoriyi murabbai axrab*ni sheʼriyatimizda juda kam qoʻllanilgan oʻlchovlardan biri sifatida sanar ekan, uning Rabgʻuziy asarlaridagina qoʻllanilganligini va yagona namunasi Yusuf qissasi ichida keltirilganligini taʼkidlaydi². Bundan koʻrinadiki, Chustiy xalqona ohangga ega boʻlgan, gʻazallarda istifoda etilmagan ushbu vazn imkoniyatlaridan unumli foydalanib, unda oʻzining betakror chistonini yaratgan.

Navbatdagi chiston fard singari bitilib, unda qalam va qogʻoz belgilari mohirona aks ettirilgan.

*Birovni yuziga nayzam urib jafo qilaman,
Bu hikmatim bila koʻp maqsadim ado qilaman³*

chistoni *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* yaratilgan.

Bu guruhga kiruvchi janrlarning yana biri **taʼrix** boʻlib, faqat Habibiy ijodida uchraydi. Shoir devonida jami 3 taʼrix keltirilgan (10-ilovaga qarang). Ularning biri butun hayotida maktabdorlik qilib, mehnatkash xalqimizning oʻgʻil-qizlarini oʻqitib, xat-savodini chiqarib, minglab shogirdlar yetishtirgan qoʻqonlik ustoz Poʻlatjon Qayumovning vafotiga bagʻishlangan. Taʼrixning maqtaʼ baytini keltiramiz:

¹ Чустий. Ҳаётнома. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. — 436 -б.

² Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 76 -б.

³ Чустий. Ҳаётнома. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. — 436 -б.

*Boqib xalqimga tarixin, Habibiy,
Dedim u o'chmas (yonib turgan charog'i)¹.*

Ikkinchi misraning uchinchi va to'rtinchi ruknlaridagi “yonib turgan charog'i” so'zlarining raqamlar soni 1964 yilni anglatadi. Ushbu ta'rix *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yaratilgan.

Habibiyning keyingi ta'rixi o'zi tuzgan “Devon” sanasiga bag'ishlangan bo'lib, quyidagi misralardan iborat:

*G'azalxon, yoru do'stim, jonajonim,
Bo'lur sizlarga devonim nishonim.
Ajabkim arzimas devonga ta'rix
Bo'libdur (bu sharaflig' onim)².*

Bu ta'rix ham *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bo'lib, to'rtinchi misradagi “*bu sharaflig' onim*” shoirning dastlabki devoni nashrini, ya'ni 1971 yilni bildiradi. Shoirning uchinchi ta'rixi “Berlin fathining tarixi”ga bag'ishlanib, *hazaji musammani solimda* yaratilgan.

Biz baytli she'r shakllarining vazn xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov ijodida yaratilgan mustazodlar ikki vaznda, ya'ni *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustahzod* (Sobir Abdulla 2 ta, Chustiy 1ta, Erkin Vohidov 2 ta), *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod* (Habibiy 2 ta, Sobir Abdulla 1 ta, Chustiy 2 ta)da bitilgan, shu jihatidan ular mumtoz mustazodlarga mos keladi.

2. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida yaratilgan ayrim mustazodlarning qofiyalanish tizimi mumtoz mustazod qofiyalanishidan tubdan farq qiladi. Mustazodlarning matla'sidagi bayt misralari a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Adabiyotimiz tarixida bunday qofiyalanishdagi mustazodlar uchramaydi.

3. Sobir Abdulla o'zbek adabiyotiga mustazodning noan'anaviy turlarini ham olib kirdi. Uning mustazodida to'liq misra birinchi va to'rtinchi qatorlarda kelsa, yarim misralar esa ikkinchi va uchinchi qatorlarda keladi. Bu esa o'zbek mumtoz adabiyoti uchun yangilik hisoblanadi.

¹ Хабибий. Девон. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 316 -б.

² Хабибий. Кўрсатилган манба. – Б. 464 -б.

4. Turkiy adabiyotda Ahmad Tabibiy an'analarini davom ettirgan Chustiy, Charxiy o'zbek adabiyotida mustazodni muxammasga joriy qilib, muxammasi mustazod yaratdilar. Chustiyning mustazodi barcha misralarining o'zaro qofiyalanishi bilan Tabibiy mustazodidan farq qiladi. Charxiyning muxammas-mustazodi esa mujtass bahri vaznida yozilgan.

5. Bu davr she'riyatida qasida janri ham istifoda etilgan bo'lib, ular *ramali musammani mahzuf*, *ramali musammani maqsur*, *mutaqoribi musammani maqsur*, *hazaji musammani solim*, *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf*, *hazaji murabba'i musabbag'* va *muzoriyi musammani axrab* o'lchovlarida bitilgan. Sobir Abdullaning "Toshkent qasidasi"da qo'llanilgan *hazaji murabba'i solim* vazni turkiy she'riyatda ishlatilmagan edi.

6. Chustiy qasida janrining shakl imkoniyatlarini kengaytirib, "Yurak" qasidasini muxammas shaklida bitdi va unda "turkiy" deb ataluvchi *ramali musammani maqsur* vaznini qo'lladi.

7. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida kichik lirik janrlardan ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, muammo, lug'z (chiston), ta'rix kabilar istifoda etildi.

8. Ruboiy she'riy o'lchov jihatidan mumtoz she'riyatning murakkab janrlaridan biri bo'lsa-da, XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida undan foydalanish darajasi pasaymadi. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov ijodida ruboiy janriga munosabat 3 xil yo'nalishda bo'lganligini ko'rish mumkin. Bular an'anaviy (mumtoz) ruboiylar, dubaytiylar, to'rtliklardir. An'anaviy ruboiylar hazaj bahrining *axrab* va *axram* shajarasida bitilgan bo'lsa, dubaytiylar hazajning *hazaji musaddasi mahzuf* (*maqsur*) vaznlarida yozilgan. To'rtliklarda ramal bahrining *ramali musaddasi mahzuf* (*maqsur*) vazni yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin. Sobir Abdulla ijodida 5 ta an'anaviy (mumtoz) ruboiy, 15 ta dubaytiy, 2 ta to'rtlik uchraydi. Shuningdek, Chustiy ham mazkur tasnifning 2 ta turidan foydalangan. Habibiy ruboiylari esa an'anaviy ruboiylardan farq qilib, faqat barmoq vaznida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Erkin Vohidov she'riyatida ham 2 ta to'rtlik mavjud bo'lib, ular tavzi' she'riy san'atining yuksak namunasidir.

9. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida tuyuq janriga munosabat ham 3 xil yo'nalishda ekanligi kuzatiladi. Mazkur yo'nalishlar orasida *ramali musaddasi mahzuf* (*maqsur*) vaznida yaratilgan tuyuqlar yetakchi bo'lib, Habibiy ijodida 40 ta, Sobir

Abdullada 9 ta, Chustiyda 4 ta, shunday tuyuq borligi ma'lum bo'ldi. Tajnisga asoslangan tuyuqlar esa Habibiy ijodida 24 ta, Chustiyda 12 tadir.

10. Chustiyning "Hayotnoma" va "Sadoqat gullari" devonlarida 30 ga yaqin, Erkin Vohidovning "Yoshlik devoni"da *ramali musammani mahzuf* vaznida bitta qit'a mavjud. Shundan aruz tizimi vaznlarida yozilgani jami 8 ta, ulardan 1 tasi *ramali musaddasi mahzuf*, 1tasi *ramali musammani mahzuf*, 3 tasi *hazaji musaddasi mahzuf*, 4 tasi *hazaji musammani solimda* bitilgan.

11. Habibiyning "Navro'zi olam" she'riy to'plamida jami 17 ta fard uchraydi. Uning 15 tasi aruz tizimida yozilgan, shoir ijodidagi fardlarda *hazaji musaddasi mahzuf* vazni faol hisoblanadi.

12. Chustiyning "Hayotnoma" devonida "Davot va qalam", "Qalam va qog'oz", "Quyosh", "Chok mashinasi", "Tuhmat", "Mix" kabi chistonlari mavjud bo'lib, ular *hazaj* (4 ta), *muzori'* (1 ta), *mujtass* (1 ta) bahri vaznlarida yozilgan. Shoirning "Quyosh" chistoni *muzoriyi murabbai axrabda* yaratilgan bo'lib, o'zbek adabiyotida ushbu o'lchovning yagona namunasi Yusuf qissasi ichida keltirilgan. Erkin Vohidovning chistoni esa *ramali musammani mahzufda* yaratilgan.

13. Habibiy devonida jami 3 ta'rix bor. Ularning 2tasi *hazaji musaddasi mahzufda* va 1tasi *hazaji musammani solimda* yozilgan.

III BOB. BANDLI SHE'RLARDA ARUZ TIZIMINING O'RNI

3.1-§. Musammatlarning vazn xususiyatlari

O'zbek adabiyotida she'riy shakllar tarix silsilasida sayqallanib, ma'lum qoliplarga ega bo'lgan. Ana shu she'riy shakllarni aniqlashtirishda musammatlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Musammat arabcha so'z bo'lib, "marvarid tizmasi"¹ yoki "marvarid donalarini ipga termiq"² degan ma'nolarni ifodalaydi. Dastlab musammatlar tasmit nomi bilan fanga ma'lum edi. Bu haqda Atoulloh Husayniy o'zining "Badoyi' us-sanoyi'" asarida to'xtalib o'tgan. R.Orzibekov musammatlarning vujudga kelishida g'azalda musajja' (sajli, qofiyali) san'atini qo'llash hamda muvashshah (misra yoki baytlarda biror kishi nomi ifodalangan she'riy asar) va zajal (har bir bandida to'rt misradan o'n ikki misragacha bandlar keltirilgan she'riy asar) kabi arab she'riyatidagi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli bo'lgan", – deb ta'kidlaydi³.

Ye.E.Bertelsning fikricha, fors-tojik she'riyatida musammat dastlab XI asr shoiri Manuchehri Damg'oni (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o'rtalari) ijodida uchraydi⁴. O'zbek adabiyotida mazkur janr haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Unda yozilishicha, "musammat besh turlik bo'lur: musammati murabba', musammati musaddas va musammati muxammas, musammati musamman va musammati muashshar"⁵. Muallif o'zi sanab o'tgan musammat turlarining har biriga ta'rif beradi va misollar keltiradi. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodida murabba', muxammas, musaddas, musamman, muashshar janrining namunalari mavjud. Biz musammat janrlarining tavsifini berishda mazkur tartibga suyanamiz.

Dastlab murabba' janriga to'xtalib o'tamiz. Murabba' arabcha "to'rtlik" degan ma'noni bildiradi. Adabiy istiloh sifatida "har bandi to'rt misradan tashkil topgan she'riy shaklni ifodalaydi"⁶. Shayx Ahmad

¹ Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 65 -б.

² Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: ТА'LIM-MEDIA, 2019. – 141-б.

³ Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 72 -б.

⁴ Бертельс Е.Э. Истории персидско-таджикской литературы. . – М.:1960. – С. 360.

⁵ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина. 1996. – 128 -б.

⁶ Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 59 -б.

Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarining muqaddimasida “ammo musammati murabba’ aningtek bo‘lurkim, she’rni to‘rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj’ rioyat qilibtur. To‘rtinchi qismda qofiya keltur(ur)lar”¹, – deb yozadi. Demak, murabba’ to‘rtlik she’r bo‘lib, a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a... tarzida qofiyalanadi. Professor B.To‘xliyevning ta’kidlashicha, mazkur “...to‘rtliklar o‘z tarixiy ildizlari bilan qadimgi turkiy xalqlar adabiyotiga, xususan, o‘zida xalq og‘zaki ijodining, shuningdek, yozma adabiyotning ham eng yaxshi namunalarini jamlagan “Devonu lug‘otit turk”ka borib taqaladi².

Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida murabba’ning go‘zal namunalari mavjud. Habibiyning 71 ta murabba’si bo‘lib, shundan 15 tasi aruz tizimida yaratilgan. Ular, asosan, *ramal*, *hazaj*, *rajaz*, *sari*’ bahri vaznlaridadir. Habibiy murabba’larining mavzusi turlicha. Shoir o‘z murabba’larida goh Vatanni tarannum etsa, gohida ma’shuqa ishqida mast bo‘lib, tabiat manzaralariga mahliyo bo‘ladi. Xususan, uning “Zargar bahor” murabba’si tabiat lirikasining go‘zal namunalaridandir. Murabba’ning birinchi bandini keltiramiz:

*Keldi hur o‘lkam sari zargar bahor,
Shabnam ila ayladi gavhar, bahor.
Qildi zumurrad kabi yaksar bahor,
Lola kabi sochdi qizil zar, bahor*³.

Murabba’ sari’ bahrining *sari’i musaddasi matviyi mavquf* (ruknlari va taqti’i: *muftailun muftailun foilon*) vaznida yozilgan. An’anaviy a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a tarzida qofiyalangan. Murabba’da fasllar kelinchagi bahor tarannum etiladi. Murabba’ uchun tanlangan ushbu vazn bahor go‘zalliklarini o‘ynoqi ohangda ifodalash uchun nihoyatda qo‘l kelgan. Eslatib o‘tamiz, ushbu vaznda Habibiyning g‘azali ham mavjud edi.

Sobir Abdulla ijodida ham murabba’ janriga doir 35 ta she’r uchraydi. Shundan 27 tasi aruz tizimida, ular *ramal*, *hazaj*, *rajaz*, *muzori*’ bahri vaznlarida yaratilgan. U.To‘ychiyev “Sobir Abdulla murabba’ taraqqiyotiga hissa qo‘shdi”, deb yozar ekan, uning “Baxshining orzusi” murabba’sida zamonaviylik, suv va davr nidosi aks etishini ta’kidlaydi⁴. Quyida murabba’ning dastlabki bandini keltiramiz:

¹ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хази́на. 1996. – 128-б.

² Тўхлиев Б. “Кутадғу билиг”нинг поэтикаси масалалари // Ўлмас обидалар. – Т.: Фан, 1989. – 339-б.

³ Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 185-б.

⁴ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 319-б.

*Orzum shuldir, Qoraqumda chaman tuzmoqchiman,
Bog‘ uchun, suv yurguzib, gul, meva o‘tqizmoqchiman,
Sunbulu rayhon sepib, yulg‘unlarin uzmoqchiman,
Ey Amudaryo, senga chin yo‘lni ko‘rgizmoqchiman¹.*

Ushbu murabba’ *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. An’anaviy a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Murabba’ning 3-, 4-bandidagi qofiyalanmaydigan misralari *ramali musammani maqsur* vaznidadir.

Bilamizki, Muqimiy Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she’r qilib yozgan va ular “Sayohatnoma” nomi bilan shuhrat qozongan. Sobir Abdulla ham murabba’ yozishda Muqimiy an’analarini davom ettirdi. Uning “*Toshkent – Kosonsoy – Toshkent*” sayohatnomasi ham Muqimiyniki singari *rajazi murabba’i solim* (ruknlari va taqti’i: *mustaf’ilun mustaf’ilun* - — — V —/— — V —) vaznida yozilgan va har bir band “*ekan*” radifi bilan yakunlanadi. Asarda sayohat sababi beriladi, so‘ng turli manzil – qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasvir etiladi. Sayohatnoma:

*Ketdim sahar yo‘lga chiqib,
Atrof keng maydon ekan,
Serzavq safar, goh entikib,
Til ham bukun biyron ekan².*

satrlari bilan boshlanadi. Hajman 82 band, 328 misrani tashkil etadi.

Chustiy ijodida ham murabba’lar uchraydi. Lekin mazkur murabba’larni tahlil qilganimizda, ular aruz vaznida emas, balki barmoq vazni qonuniyatlari asosida yozilganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, Habibiy, Sobir Abdulla ijodidagi barmoqda bitilgan murabba’larni ham ishimizning mavzusi va maqsadidan kelib chiqib, tahlilga tortmadik.

Navbatdagi janr muxammas bo‘lib, arabcha “*bashlik*” degan ma’noni bildiradi. “She’riyatda har bandi besh misradan tashkil topgan lirik she’r shakli nomini ifodalaydi”³. “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da muxammasning 3 turi haqida ma’lumot beriladi. Ular: a) bir shoir mustaqil muxammas yozadi; b) shoir o‘ziga yoqqan biror g‘azalga

¹ Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 1-том. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 158-б.

² Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадиий адабиёт, 1965. – 398-б.

³ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: “TA’LIM-MEDIA”, 2019.

muxammas bog‘laydi va u taxmis deb ataladi; v) shoir o‘z g‘azaliga taxmis qiladi¹. V.A.Abdullayev XVIII va XIX asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti haqida gapirar ekan, muxammasning yana bir turi haqida ma‘lumot beradi. Uning fikricha, “... ishqiy muxammaslar yozish bilan birga, ijtimoiy motivlarni, ba’zi hollarda, hajviy shtrixlarni kiritib muxammas yozish yoki “*muxammasi mulamma*” deb atalgan qochirimlar, kinoyalar bilan to‘lib-toshgan muxammaslar to‘qish ham rasm bo‘lgan ² . R.Orzibekov, U.To‘ychiyev, A.Hojiahmedov, Yo.Is‘hoqov, D.Yusupovaning tadqiqotlarida muxammaslar yaratilish xususiyatiga ko‘ra ikkiga, ya’ni mustaqil (tab’i xud) va taxmis muxammaslarga ajratilishi qayd etiladi³. Biz tadqiq qilayotgan XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov ijodida muxammasning har ikki turi – mustaqil (tab’i xud) va taxmislarda ijod namunalari yaratilganligi ma’lum bo‘ldi.

Turkiy she’riyatda dastlabki muxammaslar Hofiz Xorazmiy (XIV asr), Yusuf Amiriy ijodida uchraydi⁴. Muxammasning taxmis turini adabiyotimizda taraqqiy ettirgan shoir esa Alisher Navoiy hisoblanadi. Yo.Is‘hoqov uning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 10ta muxammas mavjudligini ta’kidlaydi⁵. Mazkur janr XX asr she’riyatida ham keng qo‘llanilgan bo‘lib, Habibiy devonida 64ta, Sobir Abdullada 43ta, Chustiyda 107ta, Erkin Vohidovda 10ta, Abdulla Oripovning “Tanlangan asarlar”ida uchraydi. Muxammasning har ikkala turi ham XX asr ikkinchi yarmi shoirlari ijodida keng istifoda etilgan. Bu davr shoirlari ijodidagi muxammaslar aruz vaznining *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib*, *rajaz*, *muzori*, *mujtass*, *xafif* bahri o‘lchovlarida bitilgan (10-, 11-, 12-ilovalarga qarang).

Muxammas yaratishda ham XX asr ikkinchi yarmi shoirlari ijodida *ramal* bahri yetakchilik qiladi. Mazkur bahrda Habibiy 27ta, Sobir Abdulla 19ta, Chustiy 61ta, Erkin Vohidov 7ta muxammas yaratgan. Ramal bahri o‘lchovlari ichida *ramali musammani mahzuf* (*maqsur*)

¹ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. Иккинчи нашр. Т.: Ўқитувчи, 1970. – 220–221-б.

² Адуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1964. – 168-б.

³ Qarang: Орзібеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 79-б.; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – Б. 220-б.; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 74-б.; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 126-б.; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: “TA’LIM-MEDIA”, 2019. – 142-б.

⁴Qarang: Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.– Т.: “TA’LIM-MEDIA”, 2019.

⁵ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. –127-б.

vazni muxammasnavislikda keng qoʻllanilgan. Mazkur vaznda Habibiyning 27 ta, Sobir Abdullaning 17 ta, Chustiyning 52 ta, Erkin Vohidovning 7 ta muxammasi yaratilgan. *Ramali musammani mahzuf (maqsur)*ni Habibiy “Devon”idan olingan mustaqil (tab’i xud) muxammasi orqali koʻrib oʻtamiz:

*Gʻamza birla bir boqib jono, meni yor aylading,
Oshiqi sodiqlaring qoshida ham bor aylading,
Koʻnglim ovlab mahrami asrori diydor aylading,
Lahza-lahza marhamatlarga sazovor aylading,
Mehru shafqat qancha boʻlsa dilda izhor aylading¹.*

Muxammas tab’i xud yoʻnalishida boʻlib, bunda muallif boshqa shoir she’rini asos qilib olmasdan, oʻzi mustaqil ravishda beshlik yaratgan. Muxammas *ramali musammani mahzuf (maqsur)* vaznida yaratilgan boʻlib, *aaaaa, bbbba, vvvva...* tarzida qofiyalangan. *Yor, bor, diydor, sazovor, izhor* qofiyadosh soʻzlaridagi “r” undoshi raviy hisoblanib, barcha misralarini biriktirib, oʻzaro bogʻlab turibdi. “*Aylading*” radifi esa matla’ va har qaysi bayt oxirida takrorlanib kelgan. Muxammasning ikkinchi bandi *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan.

Erkin Vohidovning arman qiziga bagʻishlangan muxammasi ham *ramali musammani mahzuf* vaznida boʻlib, 4 banddan iborat.

*Koʻrdimu lol boʻldi aqlim, oʻngmidi bu, yoki tush,
Boʻlsa ham oʻng seni koʻrgach, yo boshimdan uchdi hush,
Sen baland togʻ uzra erding, misli ohu yoki qush,
Yolvorib men pastda derdim: Bir nafas yonimga tush,
Azganush, hoy Azganushim, Azganushjon, Azganush!²*

Mazkur muxammasda “*oʻngmidi bu, yoki tush*” misrasidagi savolu javob, tazod she’r badiiyatini ta’minlagan. Muxammasning toʻrtinchi bandi qolgan bandlardan farqli ravishda *ramali musammani maqsur*da yozilgan. Ushbu bandda *yiroq, biroq, ishtiyoq, quchoq* soʻzlari oʻzaro qofiyadosh boʻlib kelgan. Mumtoz anʼanalar asosida ikki vaznning bir

¹ Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 353-б.

² Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – 143-б.

she'r tarkibida qo'llanishi muxammas ohangining ta'sirchanligini oshirgan.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida *ramali musammani mahzuf (maqsur)* vaznida yozilgan muxammasning taxmis turi ham o'ziga xos o'ringa ega. Ma'lumki, taxmis g'azal asosida yoziladi. Bunda muayyan g'azalning har bir bayti oldidan uchtdan yangi misra qo'shiladi. Mumtoz adabiyotimizda shoirlarning o'z g'azallariga ham (Alisher Navoiy, Ogahiy), boshqa mualliflarning g'azallariga ham muxammas bog'laganliklari ma'lum. D.Yusupovanning "Alisher Navoiy taxmislari" maqolasida Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan 10 muxammasidan barchasi taxmis, ya'ni g'azalni beshlantirish asosida vujudga kelgan muxammas hisoblanishi; muxammasning 3 tasi "malik ul- kalom" Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa shoirning o'z g'azallari asosida yaratilganligi bilan xarakterlanishi ta'kidlanadi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida ijodkorning o'z g'azaliga taxmis bitish hodisasi kam uchraydi. An'anaga muvofiq, XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida ham taxmis bog'langan g'azalning vazni va qofiyasi saqlab qolingan. "Muxammas (taxmis Sh.R.) janrining qat'iy talablari bor: salaflar g'azaliga bog'langan uch misra g'azal baytlariga ham mazmun, ham vazn, ham san'at jihatidan shu qadar uyg'unlashmog'i zarurki, har besh misra go'yo bir shoir qalamidan chiqqandek tasavvur hosil qilishi kerak¹. XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan taxmislar ana shu talablarga to'laqonli javob berishiga ko'ra ham alohida ahamiyatga ega. *Ramali musammani mahzuf (maqsur)* vaznida yozilgan muxammasning mazkur turi Habibiy ijodida 5 ta, Sobir Abdullada 1 ta, Chustiy ijodida 3 ta, Erkin Vohidov ijodida 4 tani tashkil qiladi.

Habibiy Alisher Navoiy, Fuzuliy (2 ta), Furqat, Sobir Abdullaning mazkur vaznda bitilgan g'azallariga, Sobir Abdulla faqat Muqimiyning "Oshkor o'lg'ay sirim" radifli g'azaliga, Chustiy Fuzuliyning 2 ta va Muqimiyning 1 ta g'azaliga, Erkin Vohidov Alisher Navoiyning 3 ta, Fuzuliyning 1 ta g'azaliga, Abdulla Oripov Alisher Navoiyning 1 tag'azaliga taxmis bog'lagan (14-ilovaga qarang).

Erkin Vohidov hazrat Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 98-, 169-raqamli g'azallariga taxmis bog'lagan. Xususan, Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 169-raqam ostida o'rin olgan g'azali 7 bayt bo'lib, Erkin Vohidov taxmisida barcha baytlar aks etadi. Shoir taxmis bog'lashda vaznni ham saqlab qolgan.

¹ Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат. – 175-б.

Gʻazal mavzusi taxmisda mahorat bilan davom ettiriladi. Gʻazalning 7-bayti birinchi misrasi *ramali musammani maqsur*da, Erkin Vohidov ham taxmisning oxirgi bandida ushbu vaznni qoʻllaydi. Quyida taxmisning soʻnggi bandini keltiramiz:

*Sun qadah, bergil menga jonim haqin, ey piri dayr,
Kim qadahlar zarbidan chiqsin chaqin, ey piri dayr,
Bormi Erkinga ul ustozdin yaqin, ey piri dayr,
Gʻarq etar bahri fano gʻam zavraqin, ey piri dayr,
Ilgiga chun kim Navoiy boda kishtisin olur¹.*

Shu oʻrinda Habibiy tomonidan Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidan 566-raqam ostida oʻrin olgan gʻazaliga² bogʻlangan taxmisini ham tahlil qilsak. Alisher Navoiyning mazkur gʻazali 7 bayt boʻlib, aruz tizimining *ramali musammani mahzuf (maqsur)* vaznida yozilgan. Habibiy gʻazalga taxmis bogʻlash jarayonida uning vaznini saqlab qolgan. Zero, gʻazalga taxmis bogʻlanganda unda qoʻllanilgan vaznni saqlab qolish ham taxmisnavislikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Quyida muxammasning birinchi bandini misol sifatida keltiramiz:

*Vaslidin qildim umid, andishayi xomim bila,
Kelmadi bir yoʻl kutib taklifi eʼlomim bila,
Qayda boʻlsin shodligʻ bu qora ayyomim bila,
Bir qadah may ichmadim sarvi gulandomim bila,
Bir nafas uyrulmadi davron mening komim bila³.*

Bandda ajratib koʻrsatilgan misralar Alisher Navoiy qalamiga mansub boʻlib, yuqoridagi uch misra Habibiy tomonidan bitilgan. Taxmisning qofiyalanish tizimi: *aaaaa* shaklidir. Qofiya asosini raviy harfi tashkil qilgan. Taxmisda raviy: *xomim, eʼlomim, ayyomim, gulandomim, komim* qofiyadosh soʻzlaridagi birinchi “m” undoshi hisoblanib, barcha misralarni biriktirib, oʻzaro bogʻlab turibdi. “Bila” radifi esa matla’ va har qaysi bayt oxirida takrorlanib kelgan. Habibiy taxmisida xuddi Alisher Navoiy gʻazali singari 1, 3, 4 va 7-misralar *ramali musammani mahzuf*da boʻlsa, qolgan 2, 5, 6-misralar esa *ramali*

¹Вохидов Э. Танланган асарлар. - Т.: Sharq HMK, 2018. – 404-б.

² Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1990. – 298. -б

³ Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 390-б.

musammani maqsur vaznida yaratilgan. Shuning uchun biz taxmisning vaznini ham *ramali musammani mahzuf* ham *ramali musammani maqsur* vazni deb belgiladik. Habibiy taxmis yaratishda Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azalning barcha baytlaridan foydalangan. Shuni ta’kidlash lozimki, g‘azalning barcha baytlariga taxmis bog‘lash adabiyotimizda kam uchraydi.

Navbatdagi vazn *ramali musammani maxbuni mahzuf* bo‘lib, biz tadqiq etayotgan shoirlarning mustaqil (tab’i xud) muxammaslarida uchramaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, shoirlarimiz ushbu vaznda mustaqil muxammas yozmaganlar. Sobir Abdulla Lutfiyning “Sensan sevarim...” devonidagi “Bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul”¹ radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisidagina *ramali musammani maxbuni mahzuf* bor. Bunda u Lutfiy qo‘llagan vaznni taxmis yozish talabiga ko‘ra saqlab qolgan.

Sobir Abdulla:

*Ishq da’vo qiladurgan bu ko‘nguldur bu ko‘ngul,
Mehr paydo qiladurgan bu ko‘nguldur bu ko‘ngul,
Gahi g‘avg‘o qiladurgan bu ko‘nguldur bu ko‘ngul,*

Lutfiy:

*Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur bu ko‘ngul,
Xoru rasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur bu ko‘ngul*².

Keltirilgan taxmis aruz tizimining *ramali musammani maxbuni mahzuf (maqsur)*³ o‘lchovida bitilgan. E’tibor qilinsa, Lutfiyning g‘azalida o‘ta cho‘ziq hijo deyarli uchramaydi. Lekin Sobir Abdullaning misrasida (*ishq, mehr*) bu holatni kuzatamiz. An’anaga muvofiq, odatda, g‘azalga taxmis bog‘lanayotganda uning bandlari soni g‘azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba’zan shoirning xohishiga ko‘ra, g‘azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya’ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisda ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo‘lgan Lutfiy g‘azali aslida hajman 7 baytdan iborat. Ammo taxmis bog‘langanda uning uch bayti qisqartirilib, 4 band holiga keltirilgan. Xususan, Sobir Abdulla taxmisida Lutfiy g‘azalining 2-, 3-, 6-baytlari uchramaydi.

¹Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –146-б.

² Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 208-б.

³ Izoh: Lutfiyning “Bu ko‘nguldur – bu ko‘ngul” g‘azalining 1-, 2-, 3-, 4-, 5-bayti *ramali musammani maxbuni mahzuf*da, 6-baytning birinchi misrasi *ramali musammani maxbuni maqsur*da, 7-baytning birinchi misrasi esa *ramali musammani maxbuni maqtu’* vaznida yozilgan.

Navbatdagi o‘lchov ramal bahrining musaddas o‘lchovlari hisoblanib, bular *ramali musaddasi mahzuf* va *ramali musaddasi maqsur* dir. *Ramali musaddasi mahzuf (maqsur)* vaznida Sobir Abdulla 1 ta mustaqil muxammas va taxmis, Chustiy 9 ta mustaqil (tab’i xud) va 1 ta taxmis muxammaslar yaratgan. Sobir Abdullaning taxmisi Nodiraning “Ehtiyoj” radifli g‘azaliga bog‘langan. Taxmisga g‘azalning 5-, 6-, 7-, 8-baytlari kiritilmagan. Taxmis quyidagi band bilan boshlanadi:

*Aylagay g‘amga giriftor ehtiyoj,
Ham qilur tunlarda bedor ehtiyoj,
Qilsa ham majburu nochor ehtiyoj,
Qilmagil zinhor izhor ehtiyoj –
Kim, aziz elni qilur xor ehtiyoj¹.*

Ushbu band *ramali musaddasi maqsur*da yozilgan. Muxammasning ajratilgan qismi Nodira qalamiga, yuqoridagi uch misra esa Sobir Abdullaga tegishlidir. Taxmisga e’tibor qaratsak, misralar tarkibida *foilotun* (— V — —) aslining ketma-ket takrorlanib kelishi yoqimli ohangni vujudga keltirgan². Habibiy g‘azaliyotida mazkur vaznda yozilgan taxmislar uchramaydi.

Bu davr she’riyatida muxammasnavislikda ham qo‘llanilish jihatidan *hazaj* bahri ikkinchi o‘rinda turadi. Bu bahrda Habibiyda 22 ta, Sobir Abdullada 17 ta, Chustiyda 38 ta, Erkin Vohidovda 2 ta muxammas uchraydi. Muxammas yaratishda *hazaj* bahri o‘lchovlari orasida *hazaji musammani solim* vazni faol. Mazkur vaznda Habibiyning 19 ta, Sobir Abdullaning 16 ta, Chustiyning 29 ta, Erkin Vohidovda 2 ta muxammasi mavjud. Masalan, Habibiyning “Jononimga” muxammasi *hazaji musammani solim* vazni namunasi hisoblanadi va quyidagi band bilan boshlanadi:

*Bayon et, ey sabo, arzimni bir-bir jonojonimga,
Quloq solgay qachon bulbul kabi chekkan fig‘onimga,
Singib ketgan sharaflı mehru qonu ustixonimga,
Hujum etgay raqiblar bir balokash xasta jonimga,
Junun ta’sir etar deb qo‘rqaman pokiza qonimga³.*

¹ Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. –175-б.

² Izoh: Sobir Abdulla taxmisning maqta’sida “Komila” so’zi “Nodira” jumlasiga o‘zgartirilgan. Asl matnda esa “Komila” qo‘llanilgan.

³ Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулom номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –345.

Sobir Abdullaning “Shoir Sayfiy marsiyasi”, Chustiyning “Rasul qori Madaliyevga” marsiyalari ham muxammas shaklida bo‘lib, har ikkala she‘r ham *hazaji musammani solim* o‘lchovida bitilgan (14-ilorvaga qarang).

XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida biz tadqiq qilayotgan shoirlar she‘riyatida *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan taxmislar ham uchraydi. Jumladan, Habibiy Furqatning *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan g‘azaliga, Chustiy Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi 243- “Etmish” radifli g‘azaliga, shuningdek, Muqimiyning “Bir menmu” g‘azaliga, Erkin Vohidov Zahiriddin Boburning “Qachon bo‘lg‘ay musharraf bo‘lg‘amen, jono, jamolingg‘a?” g‘azaliga, qozoq shoiri Jumakent Najmiddinovning g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Habibiy ham, Chustiy ham, Erkin Vohidov ham g‘azallarga taxmis bog‘lash jarayonida vaznni saqlab qolganlar (14-ilorvaga qarang).

Navbatdagi o‘lchov *hazaji musammani musabbag‘* vazni hisoblanib, Habibiyning 1 ta, Sobir Abdullaning 1ta, Chustiyning 2 ta mustaqil va 1 ta taxmis muxammasi shu vaznda bitilgan.

*Sayohat ayladim, ko‘rdim ajoyib rang-barang yalqov,
Buyursang andaki bir ishni, qo‘zg‘algay arang yalqov,
Olifta ba‘zisi, mag‘ruri kekkaygan, satang yalqov,
Va lekin ba‘zisi tundu qo‘pol, damduz, tajang, yalqov,
Bilimsiz, ishga to‘mtoq, badqovoq, noshud, garang yalqov¹.*

Yoki:

*Sochib o‘t, komiga tortar kishini, ajdahoyi nafs,
Yutishda ba‘zilarda ajdahodan zo‘r baloyi nafs,
Qadrdon xalta-xurjunni gadodek oshnoyi nafs,
To‘yar xalqning hisobiga, chiqib qorni binoyi nafs,
Tushar tergov tuzog‘iga biror kun, bu baloyi nafs².*

Yoki:

*Tabiat mehribonlik birla bergay mehribon farzand,
Bo‘lur orzu jahoningdan kishiga armug‘on farzand,
Ul uyda to‘y tug‘ilgay – ko‘rsa har bir xonadon farzand,
Tili chiqqach, qilur uy ahlini shirin zabon farzand,
Taraddudga solur ota-onani har zamon farzand¹*

¹ Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –425.

² Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б 103.

singari mustaqil muxammas matla'leri *hazaji musammani musabbag* 'da bo'lsa, Chustiy Fuzuliyning mazkur vazndagi g'azaliga ("O'landan so'r") taxmis bog'lagan². Taxmis bog'lash jarayonida Chustiy Fuzuliy g'azalining vaznini, qofiyasini, radifini saqlab qolgan.

Chustiy:

*Tikanlar nishini zahrini gulga yor o'landan so'r,
Muhabbat lolazorin ko'zlari xunbor o'landan so'r,
Firoqing dardini har dam davoga zor o'landan so'r.*

Fuzuliy:

*Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Ziloli shavq zavqin tashnai diydor o'landan so'r*³.

Keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, misralarda 1-, 2-, 3-rukni – *mafoiylun*, so'nggi 4-rukni esa xuddi g'azalning oxirgi rukniga o'xshab *mafoiylon* bilan ifodalangan. Muxammasda 4 ta qisqa, 11 ta cho'ziq, 1 ta o'ta cho'ziq hijo qatnashgan. Chustiy g'azalga taxmis bog'lash jarayonida baytlarning barchasidan foydalangan.

Navbatdagi vazn *hazaji musammani ashtar* bo'lib, unda Sobir Abdullaning 4 ta mustaqil muxammasi yozilgan. Mazkur o'lchovda yaratilgan muxammas namunalari Habibiy, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodida uchramaydi. Xususan, Sobir Abdullaning "Beg'araz nasihat" muxammasining dastlabki bandi quyidagicha boshlanadi:

*Kalta o'ylamay she'r yoz, o'ylashib uzun hal qil,
Yakka-dukka gap tuzmay, satrini mufassal qil,
Bo'lma kambag'al, tilga boyliging mukammal qil,
Ma'nili, shirinlikdan xalqni unga mahtal qil,
Umruzoq asarlardan sen o'zingga haykal qil*⁴.

Anglashiladiki, keltirilgan band hazaj bahrining *hazaji musammani ashtar* o'lchovida yaratilgan bo'lib, pand-nasihat mavzusida yozilgan. Muxammas bandidagi *mufassal-mukammal* so'zlari tanosubni *kalta-*

¹ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 281-б.

² Фузулий. Девон. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – 127 -б.

³ Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 390 -б.

⁴ Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 129 -б.

uzun, kambag'al-boy so'zlari esa o'zaro zid ma'nolarni ifodalashi bilan tazodni vujudga keltiradi.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida hazaj bahrining musamman vaznlari *hazaji musammani axrab* (Habibiyda 3 ta, Sobir Abdullada 3 ta, Chustiyda 1 ta), *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (Habibiyda 1 ta, Sobir Abdullada 3, Chustiyda 2 ta), hazaj bahrining musaddas o'lchovlari *hazaji masaddasi mahzuf* (Habibiyda 6 ta, Sobir Abdullada 4 ta), *hazaji musaddasi maqsur* (Habibiyda 1 ta, Chustiyda 2 ta) vaznlaridagi muxammaslar ham uchraydi (11-, 12-, 13-ilovalarga qarang).

Mujtass bahriga oid *mujtassi musammani maxbuni mahzuf*, *mujtassi musammani maxbuni maqtu'* o'lchovlarida ham muxammas bitilgan bo'lib, *mujtassi musammani maxbuni* vaznida Habibiyning 4 ta, Sobir Abdullaning 9 ta mustaqil muxammasi yaratilgan. Mazkur vaznda faqat Abdulla Oripov Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 203-raqamli g'azaliga taxmis bog'lagan. Shoir taxmisida g'azalning barcha baytlari aks etadi.

Mujtassi musammani maxbuni maqtu' da ham Habibiy (3 ta mustaqil muxammas va 1 ta taxmis), Sobir Abdulla (2 ta mustaqil muxammas) muxammaslar yaratdilar. Chustiy ushbu vaznda yaratgan taxmisini Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 371-g'azaliga bog'ladi. G'azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Qaro ko'zum kelu mardumlug' emdi fan qilg'il¹,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il².*

Matla'dan ma'lum bo'ladiki, g'azal aruz tizimining *mujtassi musammani maxbuni maqtu'*, ya'ni *mafoilun failotun mafoilun fa'lun* o'lchovida yozilgan. Chustiy ham g'azalga taxmis bog'lash jarayonida g'azalning vaznini, qofiya tizimini saqlab qolgan. Bilamizki, Alisher Navoiy g'azalining radifi "qilg'il" sof turkiycha so'z bo'lib, Chustiyning ham taxmisida radif sifatida takrorlanadi.

*Quyosh yuzim kelu bir tarki mouman qilgil,
Shirin so'zim kelu yo'l shirinsuxan qilgil,
Fido o'zum, kelu bir rahmi jonu tan qilgil³.*

¹ Izoh: Chustiy taxmisida "qilg'il" radifli "qilgil" tarzida qo'llaydi.

² Аlisher Navoiy. Faroyib us-sig'ar. TAT. 10 jildlik. – T.: Faфur Fулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.1. – 320 -б.

³ Чустий. Хаётнома. – Т.: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 386-б.

Chustiy Alisher Navoiyning gʻazalida keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirib, uni oʻz ijodiy gʻoyalari bilan toʻldirgan. Shu sababli Chustiyning taxmisi unga asos boʻlgan gʻazal bilan uygʻunlashib ketgan.

Musammatlarning navbatdagi turi musaddas hisoblanib, u arabcha “oltilik” degan maʼnoni ifodalaydi. “Birinchi bandning misralari oʻzaro (a-a-a-a-a) va keyingi bandlarning oxirgi misralari birinchi band bilan qofiyadosh boʻladi”¹. Adabiyotshunoslarimiz musaddas mustaqil yozilishi yoki oʻzining yo boshqa shoir gʻazali asosida yaratilishi mumkinligini taʼkidlashadi².

Musaddaslar dastavval turkiy (oʻzbek) adabiyotida Alisher Navoiy ijodida qoʻllanilgan. Bu haqda U.Toʻychiyev “Adabiy turlar va janrlar” kitobida, “Musaddasni qoʻllash Navoiydan boshlanadi, unda erkin ishq masalasi aks etdi”, – deb taʼkidlaydi³. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 5 ta musaddasdan bittasi tabʼi xud musaddas boʻlsa, qolgan barchasi tasdis shakliga ega. Ulardan 2 tasi Lutfiyga, bittasi Husayniyga va bittasi shoirning oʻz gʻazaliga bogʻlangan tasdisdir⁴.

XX asr ikkinchi yarmi sheʼriyatida, jumladan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodida tasdis, yaʼni gʻazalni oltilantirish asosida yaratilgan musaddaslar uchramaydi. Faqat tabʼi xud, yaʼni mustaqil musaddaslar uchraydi. Xususan, Habibiy 3 ta, Sobir Abdulla 4 ta, Chustiy 22 ta mustaqil musaddas yaratgan⁵ (16- ilovaga qarang). Ular tomonidan yaratilgan mustaqil musaddaslar aruz tizimining *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib*, *mujtass* bahrlarining vaznlarida bitilgan. Davr shoirlari ijodida yaratilgan mustaqil musaddaslar a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a tarzida qofiyalangan. Chunki yaratilgan mustaqil musaddaslarning soʻnggi ikki misrasi naqorat tarzida har bir band oxirida takrorlanib keladi. Xuddi shunday musaddaslardan biri Habibiyning “Otaxonlar” sheʼri hisoblanadi.

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Оʻzbekiston, 2014. – 112-б.

² Батафсил маълумот олиш учун Qarang: Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 79-б.; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 222-б.; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 62-б.; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Оʻzbekiston, 2014. –112-б.; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: “TAʼLIM-MEDIA”, 2019. –143-б.

³ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. –113-б.

⁴ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: TAMADDUN, 2016. –55-б.

⁵ Izoh: Chustiyning “Hayotnoma” devonida “Alisher Navoiyning Abdurahmon Jomiy gʻazaliga musaddasi” (Foniy devonidan) ham kiritilgan. Bu musaddas bevosita Chustiyning oʻz ijodi emas, balki tarjima boʻlganligi uchun biz uni bu miqdorga kiritmadik.

*Bu ko' hna jahon bog'ida bog'bon otaxonlar,
Avlodi bashar tuxmiga dehqon otaxonlar,
Insonlar aro eng ulug' inson otaxonlar,
Zo'r tarbiyachi, usta bilimdon otaxonlar,
Ey bir-biriga yoru qadrdon otaxonlar,
Yo'q sizda g'amu hasratu armon otaxonlar¹*

deb boshlanuvchi musaddasning matla' bayti *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida, "otaxonlar" radifi asosida yaratilgan. Ushbu musaddas yaratilish xususiyatiga ko'ra tab'i xud, ya'ni mustaqil musaddas hisoblanadi. Hajman 5 banddan iborat bo'lib, 30 misrani o'z ichiga oladi. Musaddas yoshi ulug', "jahon bog'ida bog'bon", hayotning "usta bilimdon" otaxonlariga bag'ishlanadi.

Chustiy "O'qing a'lo bo'ling derman" she'ri orqali musaddaschilikka *hazaji murabba'i solim* vaznini olib kirdi (16-ilog'ga qarang). Shoirning mazkur musaddasi kelajak avlodga murojaat tarzida bo'lib, ta'limiy mazmunni o'zida aks ettiradi. Musaddasda har band oxirida:

*O'qib a'lo bo'ling derman,
Yetuk dono bo'ling derman*

bayti takrorlanadi, shu ma'noda ushbu musaddasni *mutakarrir* musaddas deyish mumkin. Musaddasning umumiy hajmi 9 band, 54 misrani tashkil etadi. Chustiyning mazkur musaddasining matni "Sadoqat gullari" devonida to'liq bo'lmaganligi sababli asl matndan foydalandik².

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida, xususan, Chustiy tomonidan yaratilgan musaddaslarda vazn buzilish holatlari ham uchray turadi. Biz buni Chustiyning "Ko'ngil tilagi" devoniga kiritilgan "Katta-kichik" musaddasi misolida ko'rib o'tamiz. Musaddas quyidagi band bilan boshlanadi:

*Assalom ey, yoru do'st(u) yoshu qari, katta-kichik,
So'z topolsam koshki erdi siz(lar)ni xursand etgulik,
Men kirib har dam tafakkur olamin kezdim tetik,*

¹Хабибий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 453 -б.

² Izoh: musaddasning asl matni Nabixon Chustiyning qarindoshi Farog'atxon Xo'jaeva taqdim qilgan qo'lyozmadan foydalanildi.

*Ikki soʻz koʻrdim haqiqat olami(da) nurdan bitik,
Arzimas bir pulga debdir ochsa ming boylik eshik,
Boʻlmasa gar tan sihatlik birla xotir(i)jamlik¹.*

Keltirilgan musaddasda deyarli har bir baytida boʻgʻin ortish hodisasi kuzatiladi. Bu holat esa vaznning buzilishiga sabab boʻlgan. Biz musaddasdagi vazn talabi bilan ortiqcha boʻgʻinlarni qavs ichiga oldik. Garchi musaddasning vazni buzilgan boʻlsa ham, shartli ravishda uni *ramali musammani mahzuf (maqsur)* deb belgiladik. Shuningdek, Chustiyning boshqa musaddaslarida, xususan, “Tasadduqman”, “Zoʻr avlod” kabi sheʼrlarida ham vazn buzilish holatlarini kuzatish mumkin.

Navbatdagi janr musamman deb atalib, arabcha “sakkizlik” degan maʼnoni ifodalaydi. Mazkur janr ham muxammas, musaddas singari 2 ga boʻlinadi:

1. Tabʼi xud, yaʼni mustaqil musammanlar;
2. Tasmin, yaʼni gʻazalni sakkizlantirish asosida yaratiladigan musammanlar.

Musammanning 2-turi, yaʼni tasminlar XX asr ikkinchi yarmi sheʼriyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodida uchramaydi. Tabʼi xud musammanlar esa Sobir Abdulla (1 ta), Chustiy (2 ta) ijodida uchraydi. U.Toʻychiyev turkiy adabiyotda musammanning ilk bor qoʻllanilishi Yusuf Amiriy nomi bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi².

Sobir Abdulla devonida bitta musamman boʻlib, u ramal bahrining *ramali musammani mahzuf (maqsur)* vaznida yaratilgan. Musamman a-a-a-a-a-a-a-b-b tarzida qofiyalangan, 9 band – jami 72 misradan iborat. Musammanda oxirgi bayt barcha bandlarda (tarjiʼband singari) takrorlanadi. Sobir Abdullaning “*Frontga maktub*” musammani shoir Amin Umariy bilan hamkorlikda yozilgan³. Bu haqda U.Toʻychiyev: “Yangi ong musammanlarda ham (...Sobir Abdulla, Amin Umariy “Frontga maktub”) hukmron ijodiy ruhga aylandi”⁴, – deya taʼkidlaydi. Albatta, sheʼr mazmuni davr nuqtayi nazariga koʻra maʼnan eskirgan. Lekin vazn nuqtai nazaridan misol sifatida koʻrsatilishi mumkin.

Chustiyning “*Oliyhimmat chustligim*”, “*Toʻyona*” singari musammanlari aruz tizimining *ramali musaddasi mahzuf* vaznidadir.

¹ Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994. – 224 -б.

² Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 223 -б.

³ Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 265 -б.

⁴ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 224 -б.

Xususan, “*Oliyhimmat chustligim*” musammanini ko‘rib o‘tsak. Musamman Chustiyning “Ko‘ngil tilagi” devoniga kiritilgan. Shoirning mazkur yetti bandli musammanida birinchi band to‘liq, keyingi bandlar esa olti misra o‘zaro va oxirgi ikki misralar birinchi band bilan o‘zaro qofiyadosh bo‘lib keladi. Ya’ni *a-a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-b-a-a*, *v-v-v-v-v-v-a-a* tarzida qofiyalangan. She’r muraddaf (radifli) bo‘lib, “chustligim” jumlasini radif vazifasida kelgan. Ushbu musamman mazmuniga ko‘ra chustliklarning tom ma’nodagi madhiga bag‘ishlab yaratilgan. Musammanda shoir chustliklarni mard, shersalobat, halol mehnat orqali rohat topishini madh etadi. Ularning hunarmand, bahodir, lafzi halolligi, xirmoni Tyanshan, Elbrus tog‘iga qiyoslanadi. She’r quyidagi band bilan boshlanadi:

*To‘y muborak, ey badavlat chustligim,
Qutli yangi shonu shuhrat chustligim,
Mardu maydon, shersalobat chustligim,
Mehnatingiz koni rohat chustligim,
Husningizning nuri g‘ayrat chustligim,
Tabrik etmoq menga odat chustligim,
Ming tasanno, olihimmat chustligim,
Sizga rahmat, sizga rahmat chustligim¹.*

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida muashshar janri ham alohida o‘rin tutadi. Ma’lumki, muashshar arabcha “o‘nlik” degan ma’noni ifodalaydi. Adabiy istiloh sifatida har bandi o‘n baytdan tarkib topuvchi lirik she’r hisoblanadi. A.Hojiahmedov “Mumtoz badiiyat lug‘ati” kitobida: “Bunday asarlarda birinchi banddagi o‘nta misra qofiyalanib, keyingi bandlarning 8 misrasi mustaqil qofiyaga ega bo‘ladi, oxirgi 9-, 10-misralar esa birinchi band bilan qofiyadosh bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi². Ba’zan aksi ham bo‘lishi mumkin (masalan, Nodiraning “Firoqnoma” muashshari). Adabiyotimizda muashsharning dastlabki ko‘rinishi Nodira she’riyati bilan bog‘liq. XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida Sobir Abdulla ijodida ikkita (“Qudratli qo‘llar gullagan cho‘llar qissasi”, “Bosing siz ilgari”), Chustiy ijodida esa bitta (“Bashar dushmani – dushmanimdir mening”) muashshar uchraydi.

Sobir Abdullaning “Qudratli qo‘llar gullagan cho‘llar qissasi” muashshari mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani maqsur*

¹ Чустий. Кўнги́л тилаги. – Т.: Фан, 1994. – 229 -б.

² Ходжахмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 41 -б.

vaznida yozilgan. Muashshar 10 bandli bo‘lib, har bir band 10 baytni o‘z ichiga oladi (jami 100 misra). Muashshar an’anaga muvofiq a-a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalangan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Jahon barmog ‘i tishlanib, aqli lol,
Bo ‘lib chin, har afsonayu ehtimol¹.*

Chustiyning “Bashar dushmani – dushmanimdir mening” muashshari Sobir Abdulla she’ri vaznidan oxirgi hijoning cho‘ziqligi bilan farqlanuvchi *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Mazkur muashshar Chustiyning “Hayotnoma” devonidan o‘rin olgan. Qofiyalanish tizimi Sobir Abdullaning muashsharidan farqli o‘laroq, a-a-a-a-a-a-a-a-b-b, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-v-v-v-v-a-a tarzidadir. Muashshar 9 band – jami 90 misradan iborat. Bandning oxiridagi

*Bashar dushmani – dushmanimdir mening,
Bashar gulshani – gulshanimdir mening*

misralari aynan naqorat tarzida takrorlanadi. “Bashar dushmani – dushmanimdir mening” muashshari hozirgi kundagi insoniyat ma’naviyatiga rahna solayotgan inson muammosiga bag‘ishlangan. Muashsharning birinchi bandi quyidagicha:

*Demishlar nechadur bashar dushmani,
So ‘zi og ‘u mutlaq, zahar kulgani,
Chayon yanglig ‘ nashtar urishtir fani,
Jahannam o ‘tidur ular gulxani,
Faqat zulm erur, zulm erur qilgani,
G ‘araz to ‘la jonu qalbu tani,
Murodi xarob aylamoq, hammani,
Yomon der menisenga, senga mani,
Bashar dushmani – dushmanimdir mening,
Bashar gulshani – gulshanimdir mening².*

Muashshar matla’sidayoq bashariyat dushmani so‘zi og‘u, zahar kulguli chayon monand faqat zulm, joni g‘arazga to‘la insoniyat dushmanlariga xitob namoyon bo‘ladi.

¹ Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 204 -б.

² Чустий. Ҳаётнома. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 338 -б.

3.2-§. Bayt asosidagi bandli she'rlarning o'lchov imkoniyatlari

Adabiyot nazariyasiga oid kitoblarda bandga asoslangan she'r shakllari turkiy (o'zbek) adabiyotda taxminan XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanila boshlanganligi aytiladi¹. Ularga masnaviy, tarji'band, tarkibband va soqiynoma janrlari kiradi. Qayd etilgan janrlarning dastlabki uchasi shakliy jihatidan ham baytga, ham bandga asoslangan she'r shakli xususiyatlariga mos tushadi. "Soqiynomaning esa janr xususiyatlarini belgilashda mazmun yetakchilik qilsa-da, uning masnaviy usulida qofiyalanishi mazkur janrni ham ushbu guruhga kiritishga asos bo'ldi"². U.To'ychiyevning fikricha, bandni uyushtiruvchi narsa, eng avvalo, uning qolipi, ya'ni vazn va qofiya emas, balki bu qolipga quyilgan mazmundir. Darhaqiqat, ijodkor tomonidan tanlangan she'riy shakl u ifoda etmoqchi bo'lgan mazmunga mos bo'lishi kerak. "Bandni mazmun tanlaydi, agar to'rtlik, ikkilik yoki ko'lami keng murakkab bandlar katta epik hodisalarni aks ettirishga mos bo'lsa; ruboiy, fard, qit'a kabi ixcham poetik formalar oniy kechinmalar, kundalik mushohadalar, falsafiy o'ylarni lo'nda ifodalash ishiga qulayroq"³.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida, jumladan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida ham masnaviy, tarji'band, tarkibband janrlarida yozilgan she'r namunalari uchraydi. "Ushbu janrlar tarkibiga ko'ra ham bayt (g'azal asosidagi qofiyalanish tizimini o'z ichiga olganligi yoki baytlardan iborat bo'lganligi uchun) ham band (tarkiban davomiylikni taqozo qilganligi va bandlarni vujudga keltirganligi uchun)ga asoslangan she'r shakllari hisoblanadi"⁴. Mazkur janrlar davr she'riyatida aruz tizimining *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib* bahri vaznlarida yaratilgan.

Bandga asoslangan dastlabki janr masnaviy bo'lib, adabiyotimizda voqyeabandligi bilan o'ziga xosdir. Masnaviy arabcha "ikkilik" so'zidan olingan bo'lib, har ikki misrasi o'zaro qofiyalanuvchi bandlardan tashkil topgan janr hisoblanadi. Shayx Ahmad Taroziyning "Fununul-balog'a" asarida "Masnaviy iki misra bo'lur. Ikalasi muqaffo (o'zaro qofiyalanuvchi – Sh.R.), netokkim, manzum qissalarni masnaviy

¹ Qarang: Орзобеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.

²Yusupova D. Aruz vazni qoidalar va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. – 147 -6.

³Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – 254 -6.

⁴Yusupova D. Aruz vazni qoidalar va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. – 147 -6.

qilibturlar”, – deb ta’kidlanadi¹. Masnaviydagi har bir ikkilik bandning o‘zaro mustaqil qofiyalanishi ijodkor uchun katta erkinlik beradi, bu erkinlik katta hajmdagi voqyeaband asarlarni yaratish paytida, ayniqsa, qo‘l keladi. Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonida masnaviyni ushbu imkoniyatini alohida ta’kidlab, uni “vase” – keng maydon deb ataydi:

*Masnaviykim, burun dedim oni,
So ‘zda keldi vase’ maydoni².*

Mumtoz adabiyotga doir manbalarda epik poeziyaga mansub dostonlar masnaviy atamasi bilan atalgan. Umuman, “har qaysi baytdagi ikkala misra mustaqil qofiyalanuvchi she’r shakli masnaviy (“ikkilik”) deb yuritiladi³. Adabiyotshunos U.To‘ychiyev masnaviy shakli katta lirik-epik asarga ham o‘ng‘ay, shakli sodda, hashamsizligini ta’kidlaydi⁴. Turkiy (o‘zbek) adabiyotida yaratilgan masnaviylar a-a, b-b, d-d... tarzida qofiyalanadi. Bunday qofiyalanish tizimi nihoyatda qulay bo‘lganligi uchun voqyeaband she’riy asarlar, manzumalar va dostonlar masnaviyda yozilgan”.

Adabiyotshunoslikda mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviylarni shartli ravishda ikki turga ajratiladi:

– lirik masnaviy (shoirning lirik kechinmalari, his-tuyg‘ulari ifoda etiladigan she’r shakli);

– epik masnaviy yoki doston (syujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida ham masnaviy yaratishda uning lirik turidan mohirona foydalanilgan. Xususan, Habibiy 12 ta, Sobir Abdulla 3 ta, Chustiy 7 ta⁵ masnaviyni *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib*, *muzori’*, *sari’*, *xafif* bahri o‘lchovlarida yaratgan. Ular ijodida *hazaji musaddasi mahzuf* vazni yetakchilik qiladi. *Hazaji musaddasi mahzuf* vazni qo‘llanilish jihatidan epik poeziyada yetakchi o‘rinni egallaydi. XIX asrgacha bo‘lgan epik poeziyada mazkur vazn, asosan, ishqiy mavzudagi dostonlarda istifoda etildi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si

¹ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. Т., Хази́на. 1996. – 125 -б.

² Алишер Навоий. Сабаи сайёр. –Т.: МАТ.7-жилд. – 61 -б.

³Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. –35 -б.

⁴Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. –147 -б.

⁵Изоҳ: Чустийнинг “Ҳаётнома” девонида “Ҳикоят” маснавийси ҳам киритилган. Бу маснавий бевосита Чустийнинг ўз ижоди эмас, балки Саъдийдан таржима бўлганлиги учун биз уни бу миқдорга киритмадик.

va umuman, barcha nomalar, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Qutbning “Xisrav va Shirin”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma” va “Haqiqatnoma” hamda Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonlarining mazkur vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi.

O‘zbek epik poeziyasida mazkur vaznning ilk bor qo‘llanishi Xorazmiy nomi bilan bog‘liq. Uning 1353–1354 yillarda yaratilgan “Muhabbatnoma” dostoni shu vaznda yaratilgan. Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida turk xalqida “Muhabbatnoma” deb atalgan qo‘shiq borligini va mazkur qo‘shiqning o‘lchovi biz yuqorida tilga olgan vazn bilan mutanosib kelishini ta’kidlaydi: “Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani “muhabbatnoma” derlar, ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va xolo matruqdur, budur (bayt):

*Meni og‘zing uchun shaydo qilibsen
Manga yo‘q qayg‘uni paydo qilibsen”¹.*

Demak, xalq og‘zaki ijodidagi “muhabbatnoma” qo‘shig‘i ohangi bilan Xorazmiy “Muhabbatnoma”si vazni orasida muayyan darajada aloqadorlik mavjud ekan.

Kuzatishimizcha, ushbu vaznda Habibiyning 5 ta, Sobir Abdullaning 1 ta, Chustiyning 2 ta masnaviysi yozilgan. Otaxon shoir Habibiyning “Zamon farhodlari” dostoni mumtoz an’anaga ko‘ra masnaviy shaklida yaratilgan bo‘lib, an’anaviy aa, bb, vv... tarzida qofiyalangan. Doston quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Kel ey, yorim, madadkorim qalam sen,
Har ish qilganda hamkorim qalam sen².*

Bayt *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan. Bu yerda *hazaji musaddasi mahzuf* vaznining doston mazmuniga uyg‘un tarzda qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Doston Habibiy “Devon”idan o‘rin olganligi uchun biz uni lirik masnaviy qatoriga qo‘shdik. Shoirning “Navoiy”, “Andijon”, “Singlimga”, “8 mart” masnaviylari ham mazkur vazndaligi bilan xarakterlidir.

Sobir Abdullaning “Oltin kuz madhiyasi” masnaviysining matla’ bayti ham *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bo‘lib, unda to‘kin-sochinlik tasvirlanadi, sarhisob fasl xususiyatlari madh etiladi:

¹Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – 90 -б.

²Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 479 -б.

*Ko 'ngulda zavq berib, kuz keldi qayta,
Satrlarga to 'lib, so 'z keldi qayta¹.*

Chustiy ham quyidagi matla'li masnaviysini mazkur vaznda yozdi:

*Go 'zallardan go 'zal surat chizibdir,
Taniga baxsh etib jon kirgizibdur².*

Shoirning “Do‘stobod” masnaviysi ham ushbu o‘lchovda bitilganligini misol qilish mumkin.

Tahlilga asos bo‘lgan yana bir vazn *ramali musaddasi mahzufdir*. Mazkur o‘lchovda Chustiyning 3 ta masnaviysi mavjud. Uning “Maktubga javob” masnaviysi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Mujda keldi menga do 'stimdan sahar,
Ko 'p xabarlardan maroqli mo 'tabar³.*

Aslida, mumtoz adabiyotda masnaviyni ushbu vaznda bitish an'anasi Jaloliddin Rumiydan boshlanadi. Uning “Masnaviyi ma'naviy”si mazkur o‘lchovda bitilgan⁴.

Chustiy masnaviysining voqyealar silsilasi lirik qahramonga do‘stidan maktub kelishi tasviri bilan boshlanadi. Maktubda do‘sti xonadonida qiz farzand tug‘ilganligi, unga:

*Onasi debdi Surayyo yaxshidir,
Otasi debdi⁵Zulayho yaxshidir,*

– deb yozib, ism qo‘yishda maslahat so‘raydi. Do‘sti javoban yangi tug‘ilgan qizaloqqa “Kimyo” ismini qo‘yish taklifini beradi:

*Ismi jismiga munosib, bo 'ldi par,
Kimyoxon dunyoda kimyodek yashar.*

Masnaviyda qizaloqqa “Kimyoxon” ismini qo‘yish taklifi sabablari izohlanadi. Ism ta'rifi tarix bilan bog‘lanadi. Ibn Sino, Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Mendeleyevlar asarlarida bu nom qo‘llanilganligi va eng munosib ismlardan biri ekanligi e'tirof etiladi. “Maktubga javob”

¹Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 281 -б.

²Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994. –128 -б.

³Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994. –126 -б.

⁴Захириддин Мухаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. –135 -б.

⁵Izoh: asl matnda “debdi” so‘zi “deb” tarzida qo‘llangan. Biz vazn talabi bilan “deb” so‘zini “debdi” shaklida qo‘lladik.

masnaviysida ramal bahrining ham *ramali musaddasi mahzuf* ham *ramali musaddasi maqsur* vaznlari uchraydi. Masnaviy hajman 23 baytdan iborat. Uning 2-, 9-, 11-, 13-, 19-, 20-, 21-baytlari *ramali musaddasi maqsur*da bo'lsa, qolgan baytlari *ramali musaddasi mahzuf* vazniga xosligi masnaviy vaznini *ramali musaddasi mahzuf (maqsur)* deb belgilashga asos bo'ladi. Shuningdek, "Indamaslar olami", "Badgumon" masnaviylari ham mazkur vaznda bitilgan. Shoir ijodida *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yaratilgan masnaviylar an'anaviy mumtoz masnaviylarga xos a-a, b-b, d-d ... tarzida qofiyalangan.

Masnaviy yaratishda *xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf* vazning ham o'ziga xos o'rni bor. Habibiy devoniga kiritilgan "Xazina", "Iqlim bahori" masnaviylari aynan shu vazn talablarini o'zida mujassam etadi. Ularning mazmuni haqida U.To'ychiyev: "Habibiy aruzda yozgan masnaviylarida davr qahramoni tasvirlandi ("Xazina", "Iqlim bahori")", – deb ta'kidlaydi¹. Mazkur masnaviylar tahlili ularni shartli ravishda *xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf* o'lchovida yozilgan deyishga asos bo'la oladi. Sababi mazkur masnaviylarda vazn bilan bog'liq chalkashliklar bor. Masalan, "Xazina" masnaviysini olib ko'raylik. Masnaviy quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*O'zbekiston yeri konu xazina,
Xalqi olim, de(h)qon kamtar kamina².*

Ko'rinadiki, keltirilgan bayt xafif bahrining *xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf* vazni xusiyatlarini ifodalaydi. Ikkinchi misraning ikkinchi ruknidagi 1-, 3-hijolar aruzdagi "*vasli ho*" hodisasi hisoblanadi.

A.Hojiahmedov ta'kidlaganidek, "aruz tizimida yaratilgan she'riy misralardagi ayrim yopiq hijolarning oxirgi undoshini vazn taqozosi bilan o'zidan keyin turgan va "h" undoshi bilan boshlanuvchi hijoga qo'shib o'qish hodisasi" hisoblanadi³. Yuqorida keltirilgan baytda ham "*dehqon*" so'zining birinchi hijosida turgan "h" undoshi keyingi "*qon*" hijosiga ulab talaffuz qilinadi. Bu jarayonda "h" undoshi tushib qolib, "*deqon*" tarzida o'qiladi. "*Vasli ho*" hodisasini masnaviyning boshqa baytlarida ham kuzatish mumkin. Shuningdek, ba'zi o'rinlarda qisqa hijo tarzida kelishi lozim bo'lgan bo'g'inlar cho'ziq hijo bo'lib, ya'ni yopiq bo'g'in bo'lib kelgan. Baytdagi "*kamtar*" so'zining birinchi bo'g'ini "*kam*" aslida cho'ziq hijo hisoblanadi, lekin biz vazn talabidan

¹ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. –200 -б.

² Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 467 -б.

³ Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 45 -б.

kelib chiqib uni qisqa hijo deb belgiladik. Bunday vazn buzilish holatlarini masnaviyning deyarli barcha baytlarida kuzatish mumkin.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida shaklan masnaviyga o'xshash, lekin barmoq vaznidagi she'rlar ham yaratilgan (masalan, Habibiy ijodida "O'g'limga", "Farzandlarimga", "Ikki o'rtoq", "Muborak", "Tabriknoma", "Naqqosh usta Shirin Murodovga"; Sobir Abdullada "To'yga taklif xati", "Katta Farg'ona kanali" va hokazo). Tahlil jarayonida mazkur masnaviylar aruz o'lchovlariga mos kelmasligi ma'lum bo'ldi.

Bandga asoslangan keyingi janr tarji'band bo'lib, turkiy (o'zbek) adabiyotdagi yirik hajmli she'r shakli hisoblanadi. Tarji'band arabcha-forscha "qaytarish", "bandni takrorlash"¹, "takrorlab bog'lash"² degan ma'nolarni anglatib, har biri g'azalga teng bandlardan tashkil topgan va barcha bandlar oxirida mustaqil qofiyalanuvchi bir bayt takrorlanib keluvchi she'r shakli hisoblanadi³. Bandlar oxirida o'zaro qofiyalanuvchi bayt aynan takrorlanib, barcha tarji'xonalarni o'zaro bog'lab turadi va vosila⁴ bayt deb ataladi. Har bir band oxirida takrorlanib keladigan yagona bayt ularni mazmunan va usluban bog'lab turadi. Takrorlanuvchi band o'zi mustaqil qofiyalanib, g'azal matla'ini eslatadi. Shuning uchun ham tarji'bandlar g'azal singari a-a, b-a, d-a... tarzida qofiyalanadi. Turkiy (o'zbek) adabiyotda, odatda, 7–12 baytdan iborat bir necha bandli tarji'bandlar yaratilgan. Tarji'band lug'aviy jihatidan "bandning qaytishi" bo'lsa ham, aslida band emas, balki vosila bayt qaytadi. Ushbu janr haqidagi dastlabki nazariy qarash Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida, ilk namunasi esa Hofiz Xorazmiy devonida (3 ta) uchraydi.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida, xususan, Habibiyda ikkita, Sobir Abdullada va Chustiyda bitta tarji'band uchraydi. Habibiy tarji'bandlari aruz tizimining *ramal* hamda *hazaj* bahri o'lchovlarida yozilgan. U.To'ychiyev: "Habibiy tarjibandlarida lirik ruh, xalq tili leksikasi doim shoir e'tiborida turadi; lirik qahramon va lirik personaj bu janrda ham shoir g'oyaviy-badiiy yumushini birga ado etadi⁵, – deb e'tirof etadi. Habibiy tarji'bandlarining dastlabkisi *ramali musammani mahzuf (maqsur)* vaznida yaratilgan bo'lib, hajman 5 band (6-7 bayt)dan

¹Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 201 -б.

²Yusupova D. Aruz vazni qoidalar va mumtoz poetika asoslari. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019. –149 -б.

³Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. –130.

⁴Изоҳ: боғловчи байт.

⁵Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. –202.

iborat. Ishq mavzusi tarji'bandlar uchun ham xos. U haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun misol keltiramiz:

*Dilbarim bir dilbarikim dilrabolar dilbari,
Dilrabolar dilbari dildori, ya'ni sarvari.
Dilbarimning har so'zi totlig' asaldan yaxshidir,
Bahra olgaylar eshitgan chog'da har yoshu qari.
Dilrabolar o'ynashib yursa chamanda sayr etib,
Dilbarim bironu baryon o'zga dilbarlar bari.
Ko'zlarim kasb aylagay nur oy yuzidin har nafas,
Xiyr bo'lg'ay ko'z ko'zimdin bir nafas bo'lsa nari.
Har damimda shukr etay tobora mehri ortadur,
Mehrikim qalbimdadur yo'l topmagay g'am lashkari.
Har buzuvq niyat, yamon ko'zdin himoyat qilgali,
Qoshi tig'i isfixoni, kiprigidur xanjari¹.*

Tarji'bandning ikkinchi bandi *ramali musammani maqsurda* bo'lsa, qolgan 3-, 4-, 5-bandlari birinchi band singari *ramali musammani mahzuf* vaznidadir. Ular an'anaviy a-a, b-a, v-a -a, d-a, e-a, f-a tarzida qofiyalangan. Ma'lumki, Habibiy devonlari 1971, 1975, 1980-yillarda ketma-ket nashr qilingan ². Mazkur nashrlarning barchasida tarji'bandning ikkinchi bandi olti bayt shaklida berilgan. Lekin tarji'band bandlaridagi baytlarning ko'payib yoki ozayib ketishi bilan janr va vazn xususiyati buzilib ketmagan. Tarji'band, asosan, har bir band oxirida takrorlanib keluvchi baytlari bilan xarakterlanadi. Yuqorida keltirilgan tarji'bandning oxiridagi ajratilgan bayt vosila bayt hisoblanadi va u o'zaro mustaqil qofiyalangan misralardan iborat. Ko'rinadiki, tarji'band miqdorini tanlangan mavzu, g'oyaviy uyg'unlik va lirik qahramon kechinmalari dinamikasi belgilaydi. Habibiyning *hazaji musammani solim* vaznidagi ikkinchi tarji'bandi

*Meningdek tashna oshig'larga vaslingni davo derlar,
Sening ham ishq eliga meg'ribonu oshino derlar³*

matla'si bilan boshlanadi. U hajman 5 band (35 bayt 70 misra)dan iborat. An'anaviy tarzda qofiyalangan. Mazkur tarji'band ham ishqiy

¹ Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 321.

² Qarang: Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971; Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975; Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

³Хабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 322 -6.

mavzuda yozilgan bo‘lib, oshiqning dil izhorlariga bag‘ishlanadi. Tarji‘bandning har bir bandi ushbu mavzuning biror muhim jihatini yoritadi. Shuning uchun bandlar izchil bog‘lanib, yaxlit she‘riy asarni yuzaga keltirgan. Har bandning oxirida masnaviy shaklida qofiyalanuvchi vosila bayt ham takrorlanadi:

*Vafo bobida ham vasf aylashib ahli muhabbatlar,
O‘ziga fe‘lu atvori yarashgan dilrabo derlar.*

Tarji‘bandning bosh va oxirgi baytlari aynan bir-biriga o‘xshash bo‘lmasa-da, juft-juft qofiyalanishi she‘rda ritmik holatni hosil qiladi.

Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida rindona mazmundagi mashhur tarji‘band mavjud. “Unda o‘zligini va shu orqali Allohni izlayotgan, dunyo tartibotini, undagi siru sinoatlarni anglashga intilayotgan solikning ruhiyati aks ettirilgan”¹. Mazkur tarji‘band quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash‘asidin ko‘ngul erdi mast*².

Chustiy o‘zining “Hayotnoma” devonida “Boqiynoma”sini shu she‘r ta’sirida va Alisher Navoiy “Soqiynoma”siga javob tariqasida yozganligini ta’kidlaydi hamda epigraf sifatida vosila baytini keltiradi.

*Xarobat aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol*³.

Bu o‘rinda Chustiy she‘r shakliga emas, balki “soqiy” bilan boshlangani uchun uning mazmuniga e’tibor bergan bo‘lsa kerak. Aslida, Alisher Navoiyning she‘ri soqiynoma emas, balki tarji‘banddir va u “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida musaddasdan keyin keladi.

Mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznidagi ushbu tarji‘band

¹ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: TAMADDUN, 2016. – 59 -б.

² Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. – 361 -б.

³ Чустий. Ҳаётнома. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 333 -б.

*Go ‘zal tong edi, keldi qutlug‘ nido,
Nido sohibi misli yo ‘q xushnavo¹*

misrasi bilan boshlanib, hajman 13 band (bandlar 6-8 baytli), 85 baytni tashkil qiladi.

Mazkur tarji‘band tom ma’noda Alisher Navoiy ijodidan ilhomlanib yozilgan go‘zal namunalardan biridir deyishga imkon beradi. She’rda Chustiy Alisher Navoiyni “g‘azal mulkining quyoshi” deb, uning “Xamsa”sini “beshta daryo”ga qiyoslaydi.

Shuningdek, Chustiy, Sobir Abdulla devonida “tarji‘band” nomi bilan boshqa she’rlar ham keltirilgan (Chustiy. “Baraka toping, kamol toping”; Sobir Abdulla. “Tarji‘band”)². Lekin izlanishlar natijasida bu she’rlarning birinchisi murabba’, ikkinchisi esa muashshar ekanligi ma’lum bo‘ldi. Biz ularni “Musammatlarning vazn xususiyatlari” faslida tahlilga tortganligimiz bois bu o‘rinda ularga to‘xtalmaymiz.

Bandga asoslangan keyingi janr tarkibband bo‘lib, “u (tarkib – arabcha tuzilish; band – forsha bog‘lash) g‘azal tarzida (taxallussiz) qofiyalangan, har bir bandi oxiridagi bayt juft (a-a tarzida alohida) qofiyalanib boruvchi, har bir bandining misra soni teng bo‘lgan, ammo turli shoirlar yozgan tarkibbandlarning har bir bandidagi misralar soni o‘ziga xos belgilangan, murakkab lirik janr³.

Mumtoz adabiyotshunoslikda tarkibband haqidagi ilk ma’lumot Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida keltirilgan. Shayx Ahmad Taroziy tarkibbandni tarji‘ning bir turi sifatida sanab o‘tadi. “Va beshinchi qismi ulkim, har bandning qofiyasi har tariqa bo‘lur va tarje’ baytlari taqi har biri alohida qofiya birla kelur va mukarrar qilmaslar. Va bu qismda marsiya va madh ayturlar”, – deb misol keltiradi⁴. Adabiyotshunos Yo.Is’hoqov: “Tarkibband shakl va tuzilish tarzi tarji‘bandga monand. Oradagi tafovut shundaki, tarji‘bandda vosila bayt aynan takrorlanadi, tarkibbandda esa g‘azalga o‘xshash har bir band oxirida mustaqil qofiyalangan yangi baytlar keladi”, – deb ta’kidlaydi⁵.

¹Чустий. Кўрсатилган манба. –333 -б.

² Qarang: Абдулла Собир. Девон. – Т.: 1975; Чустий. Ҳаётнома. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

³Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 201-б.

⁴Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. Т., Хази́на. 1996. – 128 -б.

⁵ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: О‘zbekiston, 2014. – 219 -б.

Ushbu ta'riflardan tarkibband ham yirik hajmli bandli she'r shakllaridan biri hisoblanishi ma'lum bo'ladi. Turkiy (o'zbek) adabiyotda dastlab (XV asr) Hofiz Xorazmiy she'riyatida uchraydi, "uning devonida to'rt band (har bandi 8 bayt) tarkib topgan bitta tarkibbandi mavjud¹. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan aksariyat tarkibbandlar mavzu jihatidan marsiya shaklda ekanligini ko'ramiz. Alisher Navoiyning "Devoni Foni"da Abdurahmon Jomiya, "Navodir ush-shabob" devonidagi Sayyid Hasan Ardasheriga bag'ishlab yozilgan tarkibband-marsiyalari bunga misol bo'loladi. Lekin zamonaviy XX asr adabiyotiga kelganda bu qonuniyat biroz o'zgargan bo'lib, bu davr tarkibbandlari, asosan, ishqiy mavzuda yozilganligini kuzatamiz.

Bu davr she'riyatida Chustiyning "To abad dunyoda qol" she'ri tarkibband janriga misol bo'la oladi. Mazkur tarkibband "Ko'ngil tilagi" devonidan o'rin olgan. Tahririyat devonda tarkibbandning ba'zi satrlari tushib qolganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun biz asl matndan foydalandik². Tarkibband matni Chustiyning boshqa devonlarida bo'lmaganligi uchun she'r vaznini aniqlashda asl matndan tayanildi. She'r quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Har kun oy ishqila uyg'ondi quyosh,
O'z ko'zidan oyni qizg'ondi quyosh.*

Bandning matla'si *ramali musaddasi maqsur* (tuyuq vazni) o'lchovida yozilgan bo'lib, a-a, b-a, v-a -a, d-a, a-a tarzida alohida qofiyalangan. Chustiy tarkibbandining 1-bandi 6 bayt, 2-bandi 7 bayt, 3-va 4-bandi esa 5 baytdan iborat. Jami 36 misra. Muallif she'rda quyosh va oy ramzlaridan foydalangan holda ishq-muhabbatni kuylaydi. Quyosh chiqishi, oy botishi kabi tabiat hodisalaritasvirini tarkibbandga syujet sifatida olib kiradi. Birinchi bandning xotimasi:

*Bo'sa olsa na quyosh, na oy qolur,
Tog'u cho'l, daryoyu qir, na soy qolur.*

2-band oxiridagi bayt:

*Sabrdan topgay ikov mangu hayot,
Aylagaylar xalqu yurti iltifot.*

¹Исҳоқов Ё. Кўрсатилган асар. – 219 -6.

² Izoh: tarkibbandning asl matni Chustiyning qarindoshi Farog'atxon Xo'jaeva taqdim qilgan qo'lyozmadan foydalanildi..

3-band oxiridagi bayt:

*Ushbu fanda yaxshilardan o'rnak ol,
Garchi o'lsang ham jahonda mangu qol.*

4-band oxiridagi bayt:

*Sendan oshiqlikni Chustiy o'rganur,
Pok ishqingdan unga baxsh ayla nur*

tarzida kelgan. Demak, ushbu tarkibbandning mumtoz adabiyotdagi tarkibbandlardan farq qilib, oshiqona mavzuda bitilganligi ma'lum bo'ladi.

Bandli she'rlarning vazn xususiyatlarini tadqiq qilish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida musammatning murabba', muxammas, musaddas, masamman, muashshar kabi turlari istifoda etilgan bo'lib, ular aruz tizimining *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib*, *rajaz*, *muzori*', *mujtass*, *xafif* bahri vaznlarida yaratilgan. Mazkur bahrlar orasida *ramal* bahri yetakchilik qiladi.

2. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida, xususan, Habibiy devonida 64 ta, Sobir Abdulla devonida 43 ta, Chustiy devonida 107 ta, Erkin Vohidovda 10 ta, Abdulla Oripov ijodida bitta muxammas yaratilgan bo'lib, ulardan 27 tasi taxmis hisoblanadi. Musaddas janrida Habibiyning 3 ta, Sobir Abdullaning 4 ta, Chustiyning 22 ta she'ri bor. Musamman va muashshar janrlari Sobir Abdulla hamda Chustiyda uchraydi, Habibiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovbu ikki janrda ijod qilmaganlar.

3. Bu davr muxammaslarida marsiya mavzusida ijod qilish tamoyili yetakchilik qilganini ko'rish mumkin. Sobir Abdulla *hazaji musammani solimda*, Chustiy esa ham *ramali musammani mahzuf*, ham *hazaji musammani solim* vaznida marsiya-muxammas yaratib, muxammasning janr imkoniyatlarini kengaytirdilar.

4. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy she'riyatida masnaviy, tarji'band, tarkibband singari bandli she'r shakllari ham qo'llanilgan bo'lib, ular aruz tizimining *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib*, *xafif*, *sari*' bahri vaznlarida yaratilgan.

5. Masnaviy janri Habibiy ijodida yetakchi bo'lib, uning 12 ta masnaviysi bor. Bu ko'rsatkich Chustiyda 7 ta, Sobir Abdullada 3 tani tashkil qiladi. Ular aruz tizimining *ramal*, *hazaj*, *mutaqorib*, *muzori*', *sari*', *xafif* bahri o'lchovlarida yaratilgan. Mazkur bahr o'lchovlari

orasida masnaviy yaratishda *hazaji musaddasi mahzuf* vazni yetakchilik qiladi.

6. Habibiyning 2 ta tarji'bandi mavjud bo'lib, ular *ramali musammani mahzuf* va *hazaji musammani solim* vaznida yaratilgan. Har ikki tarji'band devondan o'rin olgan. Chustiyning "Boqiynoma" she'ri esa *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznida bo'lib, Alisher Navoiy ijodidan ilhomlanib yozilgan. Bu she'r devonda ko'rsatilganidek, soqiynoma emas, balki tarji'band janriga mansubdir.

7. Bu davr she'riyatida tarkibband janrida yagona she'r yaratilgan bo'lib, Chustiy qalamiga mansubdir. U *ramali musaddasi maqsur* vaznida bitilgan. Tarkibband mumtoz tarkibbandlardan farq qilib, marsiya yo'nalishida emas, balki ishqiy mavzudadir.

XULOSA

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida aruz tizimini Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodi misolida tadqiq qilish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Aruz ilmi she'riyatdagi har bir lirik janrda muayyan o'lchov imkoniyatlari mavjudligini, ijodkor o'z g'oyalari uchun janr tanlar ekan, unga shu janrning vazn imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashishi zarurligini taqozo etadi. Shu ma'noda g'azal, qit'a, fard, chiston kabi janrlar aruz tizimining istalgan vaznida yozilgani holda, tuyuq, ruboiy, mustazod kabi she'riy shakllar o'z maxsus vaznlariga ega; qasida, masnaviy kabi janrlar esa o'z tabiati va mavzu ko'lamiga ko'ra bir necha vaznlar doirasidagina yaratiladi.

2. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida an'anaviy barmoq tizimida she'rlar bitilishi bilan bir qatorda mumtoz an'alar asosida ijod qilish tamoyili ham davom etdi. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar o'z asarlarida aruz tizimini muvaffaqiyat bilan qo'llab, mumtoz lirik janrlar: g'azal, mustazod, ruboiy, tuyuq, qasida, musammatlardan mohirlik bilan foydalandilar, aruzning yangi vaznlarini turkiy she'riyatga olib kirdilar.

3. Agar Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy g'azaliyotida shakliyl nuqtai nazardan mumtoz aruz an'analari davom etgan bo'lsa, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov o'z g'azallari bilan turkiy aruz imkoniyatlarini kengaytirdilar. Ushbu shoirlar tomonidan barmoq she'r tizimiga xos turoq va so'z mutanosibliigi tamoyilining aruz tizimiga olib kirilishi aruzning zamonaviy she'riyatda mustahkam o'rin olishi va an'anaviylik kasb etishi uchun asos bo'ldi.

4. Davr shoirlari lirik turning o'n yetti janri (g'azal, mustazod, qasida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, chiston, ta'rix, murabba', muxammas, musaddas, musamman, muashshar, masnaviy, tarkibband, tarji'band)da qalam tebratdilar, ushbu janrlar aruz tizimining o'n bir bahri: ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib, mutadorik, komil, muzori', mujtass, munsarih, sari', xafifda yaratildi. Shulardan Habibiy ijodida 12 janr, 11 bahr, 48 vazn; Chustiy ijodida 15 janr, 7 bahr, 29 vazn; Sobir Abdulla she'riyatida 12 janr, 7 bahr, 28 vazn; Erkin Vohidovda 7 janr, 3 bahr, 11 vazn; Abdulla Oripovda esa 2 janr, 2 bahr, 4 vazn istifoda etildi.

5. Bu davr g'azaliyotida *ramal* bahri vaznlari yetakchilik qildi. Shoirlar ramalning 10 vaznini qo'llab, uning ohang imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalandilar va turkiy til imkoniyatlarini namoyon

qildilar. Mumtoz adabiyotning murakkab vaznlaridan hisoblanuvchi va kuyga tushmaydi deb qaraluvchi ramali musammani mashkulda ohang jihatidan betakror gʻazallar yaratdilar.

6. XX asr ikkinchi yarmi shoirlari aruz tizimidan foydalanishda mumtoz ijodkorlardan taʼsirlanish bilan birga turkiy aruzni yangi vaznlar bilan boyitdilar. Habibiy turkiy (oʻzbek) sheʼriyatda oʻzidan oldin qoʻllanilmagan *rajazi musaddasi solim*, *mutadoriki musammani muzol*, *mutaqoribi musammani aslami musabbagʻni*, Sobir Abdulla esa *hazaji musammani ashtari musabbagʻ* vaznlarini turkiy sheʼriyatga olib kirib, ilk bor gʻazal bitdi. Mumtoz gʻazaliyotimizda faqat Uvaysiy ijodida qoʻllanilgan ruboiy vaznlarida, arab sheʼriyatiga xos boʻlgan va ayrim shoirlar sheʼriyatidagina istifoda etilgan *komil* bahrida gʻazal bitilishi Habibiy badiiy mahoratining yana bir qirrasini koʻrsatuvchi omillardandir.

7. XX asr ikkinchi yarmi gʻazaliyotida *muxtalif ul-arkon* bahrlaridan *muzoriʻ*, *mujtass*, *munsarih*, *sariʻ*, *xafif* singari bahrlar ham muvaffaqiyat bilan qoʻllanildi. Sobir Abdulla, Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov sheʼriyatidan farq qilib, Habibiy ushbu bahrlarning barchasida qalam tebratdi.

8. Bu davrda mustazod janri oʻzining badiiy takomiliga erishdi. Sobir Abdulla mustazoddagi toʻliq misralarni birinchi va toʻrtinchi, yarim misralar esa ikkinchi va uchinchi qatorlarga joylashtirdi va mustazodni shakliy jihatidan boyitdi. Chustiy, Charxiy mustazodni muxammasga joriy qilib, muxammasi mustazod yaratdi va Tabibiy anʼanalarini yangi bosqichga koʻtardi. Ularning bu turdagi mustazodi barcha misralari oʻzaro qoʻfiyalanishi bilan Tabibiy mustazodidan farq qildi.

9. Qasida janrining istifodasi ham muvaffaqiyat bilan davom etdi. Sobir Abdulla *hazaji murabbaʻi musabbagʻ* vaznini qasidachilikka olib kirdi. “Toshkent qasidasi”da qoʻllanilgan ushbu vazndan turkiy sheʼriyatda avval foydalanilmagan edi. Chustiy esa *hazaji murabbaʻ solim* vaznida musaddas yozdi.

10. Bu davr sheʼriyatida ruboiy janri 3 xil yoʻnalishda: anʼanaviy (mumtoz) ruboiylar, dubaytiylar, toʻrtliklar shaklida istifoda etildi. Anʼanaviy ruboiylar hazaj bahrining *axrab* va *axram* shajarasida bitilgan boʻlsa, dubaytiylar hazajning *hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)* vaznlarida yaratildi. Toʻrtliklarda ramal bahrining *ramali musaddasi mahzuf (maqsur)* vazni yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin. Qitʼa,

fard, chiston va ta'rixlar, asosan, aruz tizimining ramal, hazaj, muzori' va mujtass bahrlarida yozildi.

11. Musammatning murabba', muxammas, musaddas, musamman, muashshar kabi turlari istifoda etildi. Ular orasida muxammasning tazmin ko'rinishi – taxmislar ham yaratilgan bo'lib, ularning aksariyati Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Nodira, Muqimiy, Furqat g'azallariga bog'landi. O'z navbatida o'zaro tazmin bog'lash tamoyili ham vujudga kelib, Habibiy Sobir Abdullaning ikki g'azalini beshlantirdi. Musammatlar aruz tizimining *ramal, hazaj, mutaqorib, rajaz, muzori', mujtass, xafif* bahri vaznlarida yaratildi.

12. Masnaviy, tarji'band, tarkibband singari bandli she'r shakllari ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilib, ulardaramal, hazaj, mutaqorib, xafif, sari' bahrlari istifoda etildi.

13. Poetik shakllar uchun tanlangan radif va qofiyalar vaznni vujudga keltirishda muhim rol o'ynadi. Lirik janrlarda qo'llanilgan cho'ziq "o" unlili murdaf qofiya ohangning ta'sirli chiqishini ta'minlagan bo'lsa, radifning asosiy vazifasi ijodkorning g'oyaviy niyati va maqsadini ta'kidlash hamda kitobxonga chuqurroq yetkazib berishga qaratilganligi bilan belgilanishi she'rdagi mazmun takomili uchun xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida aruz tizimi mumtoz poetik shakllarning asosiy vazni sifatida muvaffaqiyatli sur'atda davom etdi. G'azal yetakchilik qiluvchi baytli she'r shakllari, musammatlar, bayt asosidagi bandli she'rlarni o'z ichiga oluvchi devonlar tartib berildi. Habibiy, Chustiy, Sobir Abdulla, Charxiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning she'rlari g'azal taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Aruz tizimi turfa mavzular va hikmat tarannumi uchun xizmat qildi. Muxammas janri o'zining badiiy takomiliga yetib, muxammas-qasida, muxammas-marsiya kabi poetik shakllar rivojlandi, muxammas-mustazodning yangicha ko'rinishlari vujudga keldi. O'zbek aruzi yangi vaznlar bilan boyidi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1.1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 2017 йил 4 август.

1.2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: O‘zbekiston, 2017. – 483 б.

1.3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. 2017 йил, 20 сентябрь.

1.4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил, 8 феврал.

1.5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги қарори // Халқ сўзи. 2017 йил, 21 апрель.

2. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

2.1. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – 80 б.

2.2. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London, 2003. – P. 507.

2.3. Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012. – 84 б.

2.4. Umurov H. Adabiyotshunoslik asoslari. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 б.

2.5. Yusupova D. Aruz alifbosi. Akademnashr. – Т.: 2015. – 136 б.

2.6. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Ta’lim-Media. – Т.: 2019. – 184 б.

2.7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Akademnashr. – Т.: 2020. – 304 б.

2.8. Zehra Işık. Özbek Şairi Habibiy’nin Divan’ında Türkiye Türkçesi ile Ortaklaşan Ve Farklılaşan Bazı Sözcükler Üzerine // I. Uluslararası Türk dili ve edebiyatı öğrenci sempozyumu (OTUDES) bildiri kitabı. 1 cild. Dil ve folklore. Ordu. Aralık. 2017. – S. 403-414.

2.9. Zehra Işık. Özbek Şairi Mevlâna Habibiy'nin "Divan" Adli Eserinde Bulunan Gazeller Üzerine Tematik Bir Değerlendirme // Folklor Akademi Dergisi. 2019 Cilt: 2 Sayı: 2. – S. 238-271.

2.10. Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, 1965. – 313 б.

2.11. Абдулла Собир. Сўз ва соз. – Т.: Давлат нашриёти, 1943. – 84 б.

2.12. Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 1-том. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 333 б.

2.13. Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 2-том. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 333 б.

2.14. Абдулла Собир. Ҳаёт гулшани – Т.: Бадий адабиёт, 1959. – 252 б.

2.15. Абдулла Собир. Ҳаёт кўшиқлари – Т.: Бадий адабиёт, 1962. – 112 б.

2.16. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1964. – 168 б.

2.17. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари: Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт ҳаваслилари учун / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 112 б.

2.18. Абдурауф Фитрат. Аруз ҳақида. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.

2.19. Абдурахмон Жомий. Рисолаи аруз / Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова. – Т.: TAMADDUN, 2014. – 100 б.

2.20. Абдурахмонов А. Аруз илмидан сабоқлар. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2008. – 80 б.

2.21. Абдурахмонова М. Собир Абдулла. – Т.: Фан, 1980. – 198 б.

2.22. Абдусаматов Ҳ. Мавлоно Ҳабибий. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 188 б.

2.23. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 202 б.

2.24. Адизова И. Сўзимни ўқиб англағайсен ўзимни. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2008. – 168 б.

2.25. Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар тақомили. – Т.: Muharrir, 2011. – 52 б.

- 2.26. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.3. – 764 б.
- 2.27. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.1. – 804 б.
- 2.28. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1997. Т.13. – 284 б.
- 2.29. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 2000. Т. 16. – Б. 43-98.
- 2.30. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.2. – 772 б.
- 2.31. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1990. – 298 б.
- 2.32. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сироҷиддинов. – Т.: Sharq НМИУ, 2016.
- 2.33. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ китоби). – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 194 б.
- 2.34. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. (А.Рустамов таржимаси). – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 398 б.
- 2.35. Афоқова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Т.: Фан, 2005. – 24 б.
- 2.36. Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Т.: Фан, 2005. – 28 б.
- 2.37. Ахметов З. А. Казахское стихосложение. – Алма-Ата: Наука, 1964. – 460 б.
- 2.38. Аъзамов Абдулла. Аруз: Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур сабоқлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – 224 б.
- 2.39. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Наука, 1958. – С. 821.
- 2.40. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965. – С. 500.
- 2.41. Бертельс Е.Э. Истории персидско-таджикской литературы. – М.:1960. – С. 360.
- 2.42. Бобир Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – 412 б.
- 2.43. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.

- 2.44. Бобоев Т. Шеър илми таълими (Ўзбек шеърляти поэтикасидан сабоқлар). – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
- 2.45. Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1975. – 67 б.
- 2.46. Болтабоев Ҳ. Рисолаи аруз ва аруз ҳақида // Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2004. – Б. 132-138.
- 2.47. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б.
- 2.48. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. Икки жилдда. I жилд. – Т.: MUMTOZ SO‘Z. 2013. – 400 б.
- 2.49. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
- 2.50. Веселовский А.Н. Историческая поэтика / Вступительная статья И.К. Горского. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 406.
